

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
Amaliy san`at va rangtasvir kafedrasи



RANGATASVIR

Fanidan

O'QUV USLUBIY MAJMUA

2023/2024 o'quv yili kunduzgi ta'lif shakli, 3-kurslari uchun

Bilim sohasi: 200 000 - San`at va gumanitar fanlar
Ta'lif sohasi: 210 000 - San`at
Ta'lif yo`nalishi: 60210500-Rangtasvir (dastgohli)

NAMANGAN – 2023

Fanning o'quv uslubiy majmuasi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 2020 yil 18-avgustdagি 418 sonli buyrug'i bilan maqullangan fan dasturi asosida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

M.Sharipjonov

NamDU, Amaliy san'at va rangtasvir kafedrasi katta o'qituvchisi

Taqrizchi:

X.Rizayev.



NamDU, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedarsi dotsenti

Fanning o'quv uslubiy majmuasi Amaliy san'at va rangtasvir kafedrasining 2023 yil 28-iyundagi 12- son yig'ilishidagi muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:



p.f.n., dots. A.Amanullayev.

Fanning o'quv uslubiy majmuasi San'atshunoslik fakul'tet kengashida muhokama qilingan va foydalanishga tavsiya qilingan. (2023 yil 29-iyundagi 11-sonli bayonnomma)

Fakultet dekani:



A.Sayfitdinov.

Ushbu o'quv uslubiy majmua Namangan davlat universitetining 2023 yil 11-iyuldagi 12-sonli Kengashida ko'rib chiqilgan va o'quv jarayonida qo'llanishiga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

I.	O'QUV MATERIALLAR.....
1)	Ma'ruza mashg'uotlari.....
2)	Amaliy, seminar mashg'uotlari.....
II.	MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI.....
1)	Kurs ishi bo'yicha tavsiyalar.....
2)	Mustaqil ish bo'yicha tavsiyalar.....
III.	GLOSSARIY.....
IV.	ILOVALAR.....
1)	Fan dasturi.....
2)	Ishchi fan dastur.....
3)	Tarqatma materiallar.....
4)	Testlar.....
5)	Baholash mezonlari.....
6)	Boshqa ma'lumotlar.....
7)	O'UM elektron variant.....

O'QUV
MATERIALLARI

AMALIY MASHG'ULOT

**1-Mavzu: Libossiz odam qomatini tahlili. Libossiz erkak qomati.
(Kontroposda xolatida. Keksa chayir kishi.) Inson qomatini turli holatlarda
o'rganish.**


Reja:

- 1. Interyerda inson qomatining turli holatlardagi qalamchizgiları.*
- 2. Odam qiyofasini tasvirlashda plastik anatomiyaning o'rni va ahamiyati.*
- 3. Rangtasvida inson tana azolarining anatomik taxlili.*

Ma'lumki, tasviriy san'atda inson qomatini tasvirlash eng murakkab va serqirra vazifalardan biri hisoblanadi. Tirik modelni tasvirini chizish qiyin vazifa, uni bajarish uchun rassomdan doimiy mashg'ulotlar davomida egallangan bilim va malaka talab etadi. Tirik modeldan rasm chizishning qiyin tarafi shundaki, bunda model qimirlamasdan, bir xil holatda tura olmaydi, ya'ni chizish davomida u bir necha bor o'z holatini o'zgartiradi. Boshqa tomondan qomatda kuzatiladigan suyaklar va mushaklarning yaqqol ajralib turishi, ularning tuzilishi, nisbati, vazifasi va xarakat xarakterini oydinlashtirishga imkon yaratadi. Bundan tashqari model o'z holatini o'zgartirganida, rassom o'z tasavvuri va xotirasiga asoslanib chizishni davom ettirishi kerak. Bunday ish uslubi juda muhim bo'lib, chizgilar va eskizlar chizishda uning ahamiyati kattadir.

Tirik inson modelini chizish mashg'ulotlarini tashkil etish va undagi rasm chizish ketma-ketligi gipsdan ishlangan qomat tasvirini ishlash jarayoni bilan deyarli bir xil. Qomat podium ustida (tahminan 30-40 sm balandlikda) erkin holatda, rassomga qarab, bir oyog'iga tiralib – ushbu holatda o'ng oyog'iga tiralib turishi kerak. Model holati Gudonning ekorshesini eslatadi. Bukilgan chap qo'lda podiumga tiralib turgan uzun kaltak bor.


O'ng qo'l erkin holatda pastga osilib turibdi. Bu yerda o'ng oyoq og'irlik markazidir. Chap oyoq esa o'ng oyoqqa nisbatan biroz oldinroqda




joylashgan va erkin holatda turibdi. Modelga yuqori-yon tarafidan kuchsiz yorug'lik tushishi kerak. Model devor fonida turadi. Anatomik tuzilish bo'yicha to'liq tasavvur hosil qilish uchun, modeldan uzoqroq masofada odam skeleti yoki Gudon ekorshesini joylashtirish tavsiya etiladi. Rassomlar bir-birlaridan eng kamida model bo'yiga uch barobar keladigan masofada joylashishlari kerak. Bunday masofa ularga modelni boshdan oyog'igacha murakkab perspektiv o'zgarishlarsiz ko'rish imkonini beradi. Rassom tasvirning joylashish o'rni va o'lchamlarining kompozitsiyasini belgilaydi. Model holati va xarakatidan kelib chiqqan holda, uning umumiyligi holati va figura massasi qalam bilan yengil chizib chiqiladi.

Turgan holatdagi qomatni chizishni dastlab old tarafidan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday holatda rasm chizish tamoyillarini ochib berish ancha oson kechadi. Oyoq osti va ular orasidagi maydon turgan figuraning tayanch maydoni bo'lib hisoblanadi.


Og'irlik markazidan o'tuvchi vertikal chiziq tayanch maydonidan ham o'tsa qomat muvozanat holatida deb hisoblanadi. Bundan shuni anglashimiz mumkinki, odam oyoqlari orasini kengroq ochsa, tayanch maydoni kattalashadi va mustahkam muvozanatga ega bo'ladi. Buni sportchilarining, masalan, basketbolchining o'yin vaqtida turish holatini eslashimiz mumkin. Bir oyoqqa tiralib turganda figura holati og'irlik markazi bo'ylab tushirilgan vertikal tayanch oyoqning tovon qismidan yoki uning yonidan o'tadi. Odam tasviri chizilganda uning figurasi holati ana shunday bo'lishi





lozim. Rasm chizishning dastlabki bosqichida xarakat holati va asosiy nisbatlarni ko‘rsatgan holda, butun figurani umumiy ko‘rinishini tasvirlash muhimdir. Ushbu holatga misol tariqasida Dyurer tomonidan geometrik shakllarga asoslanib ishlangan rasmni keltirishimiz mumkin. Bu yerda figura xarakati yaqqol ko‘zga tashlanadi. Yelka kamari tosga nisbatan deyarli to‘g‘ri burchak bo‘yicha burilgan, bosh orqaga qayrilgan. Yanada oydinlik kiritish maqsadida, A.Dyurer ko‘krak qafasini geometrik shakli assida, perspektiv o‘zgarishlarni ko‘rsatib, sxematik tarzda tasvirlagan.


Og‘irlik markazidan podium yuzasidagi kesishish nuqtasigacha vertikal chiziq chiziladi. Ushbu nuqtaga asoslanib ikki tovonning o‘zaro joylashuvini izlash kerak. Har bir oyoq joylashadigan joy tovon uzunligi darajasida belgilanadi. Katta oshiqdan (sonning tos bilan birlashgan qismi) pastga, oyoq joylashadigan joy markazi tomon tana tiralgan oyoqning umumiy yo‘nalishini ko‘rsatuvchi to‘g‘ri chiziq chiziladi; ikkinchi sonning katta oshig‘idan erkin turgan oyoqning avval tizzagacha bo‘lgan qismi, keyin esa tovon markazigacha bo‘lgan qismi chiziq bilan belgilanadi. Og‘irlik markazidan o‘tuvchi va rasmda belgilangan boshning yuqori




qismigacha davom etuvchi vertikal chiziqning umumiyligi figura balandligini tashkil etadi. Gavda erkin holatda turganida og'irlik markazidan tushirilgan vertikal yarem chuqurchasidan o'tadi. Hosil bo'lgan umumiyligi vertikal chiziqqa tananing quyidagi alohida qismlari chegaralarini ko'rsatuvchi belgilar chiziladi: oyoq, tors va bosh o'lchamini ko'rsatuvchi belgilar.

Bu yerda boshning o'rta chizig'i oriyentir qilib olinadi va bosh holati oval shakl bilan belgilanadi; shu usul bilan boshning burilish darajasi va xarakati

aniqlanadi. Ishning mazkur bosqichida rasmning obrazli xarakteriga ta'sir qiluvchi figuraning yuqori, o'rta, pastki qismi nisbatlariga to'xtalib, pedagog rassomlarga baland, o'rta va past bo'yli odamlarda boshning butun tana uzunligiga nisbati qanday bo'lishini, shuningdek erkak, ayol va yosh bola figuralari nisbatlari o'rtasidagi farqlarni tushuntirib berish kerak. Bosh balandligi va yarem chuqurchasining joylashuvi butun figura balandligiga nisbatan belgilangandan so'ng, yengil chiziqlar bilan o'mrov suyaklari yo'naliishi chiziladi. So'ngra figuraning yarem chuqurchasidan to'sh suyagining xanjarsimon o'sig'i, undan kindik va rasmdagi asosiy o'zgarmas nuqtalardan biri bo'lgan tos suyagining boshlang'ich qismi - yonbosh suyak tomon cho'zilgan shartli o'rta chiziq aniqlanadi. Rasmga ko'krak so'rg'ichlaridan o'tuvchi gorizontal chiziq chiziladi; keyin tos suyaklarining qirralaridan chiziq o'tkaziladi va shu yo'l bilan tosning gorizontal chiziqqa nisbatan yotiqlik darajasi aniqlanadi. Ikkita oyoqqa tiralib turgan figura holatida tos gorizontal holatda bo'ladi.




Tananing barcha og‘irligini bir oyoqqa o‘tkazilganida, tos og‘irlilik tushmagan oyoq tomonga egiladi. Tosning yuqori qismi chizig‘i yonbosh suyakning ko‘rinib turgan qirralariga asoslanib belgilanadi. Keyin ikki son suyagi boshchalari o‘rtasidagi chiziq belgilanadi. Tana og‘irligini ko‘rsatib turgan sonning tos bilan birlashgan boshchasi aniq ko‘rinib turadi; ikkinchi oyoqning son boshchasining joylashish o‘rni o‘zgarganligi tufayli, uning o‘rnida chuqurcha hosil bo‘ladi. Ikki son boshchalari o‘rtasidagi chiziqla parallel ravishda, rasmda shtrixlab qo‘yilgan tosning yuqori qismidan o‘tuvchi, chiziq belgilanadi. Tos chizig‘iga parallel ravishda ikki oyoqning tizza qopqoqlaridan o‘tuvchi chiziq chiziladi (son boshchasi va to‘piq o‘rtasida). Bunday usulda chizilgan belgilar vertikal chiziq bo‘yicha figura nisbatlarini aniqlashga yordam beradi. Qomatning asosiy qismlari kengligi - tosdan tovongacha va tosdan boshning yuqori chegarasigacha bo‘lgan qismi shtrixlar yordamida oydinlashtiriladi. Ikki oyoqning yon tomonlari va tos, tors, yelka, qo‘l, bo‘yin va bosh ham shtrixlar bilan chizib chiqiladi. Ishning keyingi bosqichida o‘chirg‘ich bilan yordamchi chiziqlar va tasvirlangan figura ichidagi barcha belgilangan oriyentir-tayanch nuqtalar o‘chiriladi va tasvirning




o‘lchami va chegaralari natura bilan yana bir marotaba solishtirib tekshiriladi.


Buning uchun dastlab tasvir hajmini ko‘rsatib beruvchi asosiy soya va ton munosabatlari rasmda aks ettiriladi va natijada nisbatlarni to‘g‘rilash va konturlarga shtrix bilan aniqlik kiritish imkoni paydo bo‘ladi. Bunda figuraning tors va bo shdan boshlab, oyoq va qo‘lgacha bo‘lgan qismlari ustida ish olib boriladi.



Oyoq-qo'lning – yelka, tirsak, tizzalarning bukilgan joylariga shtrix yoki yorug'lik soyasi yordamida tus beriladi. Qo'l kaftlari va tovonlar birgalikda ishlanadi, figura tasviri shtrixlar bilan ishlanadi va shakl hajmi yorug'lik-soya munosabatlari asosida ko'rsatiladi. Rasm chizishda qalamni botirib chizish mumkin emas, chunki bunda rasm qorayib ketadi, xatolarni tuzatish qiyinlashadi va tasvir butunligi buziladi. Yalang'och model rasmini chizishdagi keyingi bosqich – rasmni tugallash va qismlarni umumlashtirishdan iborat. Yalang'och odam figurasi tasvirini orqa tomonidan chizishni uning og'irlilik markazini topishdan boshlanadi. U tahminan tosdan - yonbosh suyak balandligiga mos keluvchi ikkinchi bel umurtqasidan o'tadi. Topilgan og'irlilik markazidan vertikal chiziq chiziladi. Pastda u tayanch maydonidan, yuqorida esa naturada yaxshi ko'zga tashlanuvchi yettinchi bo'yin umurtqasidan chuqurchasiga to'g'ri keladi) va bosh suyagining yuqori qismigacha davom etadi. Shundan so'ng ikki oyoq yo'nalishini ko'rsatuvchi chiziqlar – son katta boshchalaridan tovon markazigacha (huddi figuraning old tomonini chizish jarayonida bajarilgani kabi) chiziladi. Qomat nisbatlari vertikal chiziq bo'yicha avval og'irlilik markazidan - asosiy qo'zg'almas nuqtadan pastga tomon aniqlanadi. Og'irlilik markazidan o'tuvchi vertikal chiziqqa belgilari qo'yiladi va tosning yonbosh suyagi qirralardan, katta boshchalardan (sonning yuqori qismidan), hamda dumba mushaklarining pastki



chegaralidan chiziq o‘tkaziladi.



Tizza osti chuqurchalaridan o‘tgan chiziq sonlarning katta boshchalaridan o‘tgan chiziqqa parallel qilib chiziladi. Keyin dumg‘azadan (og‘irlilik markazidan) yuqoriga qarab umurtqa pog‘onasi chizig‘i belgilanadi va ushbu chiziqqa asoslangan holda tors juft qismlarga ajratib chiziladi.

Ushbu chiziqdagi kurakning yuqori va pastki chegaralari, yettinchi bo‘yin umurtqasi va kalla suyagi asosini bildiruvchi belgilar qo‘yiladi. Bosh butun tanaga nisbatan oval holatda bo‘ladi va u umurtqa chizig‘ining davomi bo‘lgan bosh markaziy chizig‘ida joylashadi. Endi qomat nisbatlarini gorizontal chiziq bo‘yicha tosdan oyoq tagigacha, tosdan boshgacha bo‘lgan qism nisbatlarini aniqlashga kirishamiz. Tos, butun bel, bosh, yelka va qo‘lning yon yuzasi va kengligi yengil shtrixlar bilan belgilanadi. O‘chirg‘ich bilan barcha yordamchi chiziq va nuqtalar o‘chiriladi, asosiy ton va soya ifodalanib, nisbat bo‘yicha yo‘l qo‘yilgan kamchilik va xatolar tuzatiladi. Umumiy shaklning soyali qismlarini shtrixlash yordamida rasm konturini ajratib ko‘rsatish mumkin. Bunda torsning bukilishi, hamda uning tos va qo‘llar bilan birlashishini ko‘rsatish mumkin.

Qo'l kaftlari va tovonlar umumlashgan holda tasvirlanadi. Rasm ustida olib borilayotgan ishning keyingi bosqichi yakuniy bosqich, ushbu bosqichda detallarni bir-biri bilan uyg'unlashtirish va umumiylashtirish amali bajarilada.

2-Mavzu: Tik turgan holatdagi libossiz qomat. (sarv qomat kishi) Inson qomatini tik turgan holatini turli ko'rinishlarda o'rganish.



Reja:

1. *Inson qomatini tasvirlashda plastik anatomiya.*
 2. *Tana a`zolarning nisbatlari.*
 3. *“Poliklet” jins va yoshga ko`ra inson tanasini tasvirlash.*

Tasvirlashning qonun qoidalari tasvirlash metodikasi buyumlar shaklu shamoyilining o'xshashligini e'tiborga olgan holda bajarilgan bo'lsa, endi bu qalamtasviri ilmiy asoslangan, anatomiya qonunlarini chukur o'rganish, perspektiva qoidalariiga to'la to'kis hisobga olib aks ettirgan holda tasvirlash metodlari rivojlangan davr bo'ldi. Yuqorida ta'kidlanganidek uygonish davri rassomlari rasm chizish metodikasiga katta xissa qo'shdilar va rangtasvirni fan sifatida rivojlanishiga asos soldilar. Rangtasvir mashg'ulotlarining amaliy jihatlarini o'rgatish bilan bir qatorda, uning nazariy asoslari ham puxta o'qitilishi katta ahamiyatga ega. Shuning uchun Rangtasvir mashg'ulotlari qator aniq predmetlar asosida olib boriladi. Ulardan asosiysi - perspektiva va plastik anatomiyadir. Bularsiz talaba eng oddiy vazifani ham to'g'ri bajarishi mushkul. Perspektiva qonuniyatlarini bilmay turib, u buyumning fazoviy holatini aniq topa olmaydi yoki odam plastik anatomiyasi borasida aniq bilimga ega bo'lmasdan, inson qomati va portretini chiza olmaydi. Yorug' va soya qonuniyatini yaxshi tushunib yetmagan talaba tasvirlanayotgan buyum tusi, hajmi va materiallik xususiyatlarini aniq tasvirlashning uddasidan chiga olmaydi. Buyumlarni tasvirlash san'ati, boshqa aniq fanlar kabi, fikrlab chizilayotgan narsani chuqur tahlil etib, uni so'z orqali emas, turli tasvirlash vositalari bilan, obrazli qilib yaratishni taqozo etadi. Tasviriy san'at ustasi va rus pedagoglaridan biri P.Chistyakov aytganidek, tasvirlash - fikrlash demakdir. U shogirdlariga doimo bunday deb ta'kidlagan: «Hech qachon fikrlamay rasm chizmang, har doim oldingizga maqsad qo'ygan holda gapirib tasvirlang, bu yerdan-bu yergacha». Tasviriy san'at, xususan, o'quv

qalamtasviri qonun-qoidalari tabiat qonunlaridan kelib chiqadi. Tabiat qonunlari tasviriy san'atga ta'sir etib, uning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Tasvirlash qonunlari talabaning qalamtasvir bilimini oshiradi va malakasini shakllantiradi, ijodiy qobiliyatini o'stiradi hamda uni bo'lajak pedagogik faoliyatga puxta tayyorlaydi. Buyumlarni o'ziga qarab, naturadan tasvirlash mashqlari tasviriy san'atning asosi hisoblanib, u talabandan yuqorida bayon etilgan qonun-qoidalalar asosida ish yuritishni talab etadi. Shu bois, talaba o'qishning dastlabki bosqichidanoq rasm chizishning asosiy qonunlarini to'la-to'kis egallashi hamda o'tmishdagi buyuk rassomlarning ijodini va tasvir texnikasini chuqur o'rganishi lozim. Tasviriy san'at borliqdagi voqeа-hodisalar hamda buyumlarning nafaqat tashqi shaklini chizishni, balki ushbu narsa va buyumlarning ichki mohiyatini chuqur tahlil etishni taqozo etadi. Bu borada buyuk fransuz rassomi va me'mori Le Korbyuze shunday degan edi: «Tasvirlash jarayonida buyumlarning qanday

dunyoga kelishini, ularning qanday rivojlanishini, o'sishini, gullab-yashnashini ko'rasan. Bu borliqni kuzatish, avvalo, buyumlarning «ichki» dunyosini, so'ngra «tashqarisini» o'rganish natijasida amalga oshiriladi.... Buyumning haqiqiy go'zalligini, avvalo, tashqarisiga e'tibor berib, so'ngra chizish davomida idrok etamiz. Tasvirlash -kuzatish, yaratish, ixtiro qilish demakdir». Tasvirlanayotgan buyum shakli qanchalik murakkab bo'lsa, chizuvchi uni shunchalik ko'p o'rganishi va tahlil etishi kerak. Rangtasvida ilmiy yondoshish, ayniqsa, buyumning chiziqli konstruktiv tuzilishi va perspektiv holatini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi. Rangtasvida yetuk malakaga erishish ko'p jihatdan narsani o'ziga qarab tasvirlashga bog'liq. Narsani o'ziga qarab tasvirlash mahorat maktabini o'tamasdan badiiy rivojlanish pillapoyalaridan yuqoriga chiqish mumkin emas. Bir necha yetuk shogirdlar tarbiyalagan rus rassomi va murabbiyi P.P.Chistyakov aytganidek, talaba, avvalo, chizilayotgan buyumni sinchiklab kuzatishi zarur, so'ngra u naturani o'ziga "bo'ysundirishi" kerak. Rassom qanday




yetuklikka erishmasin, u narsani oziga qarab tasvirlashdan voz kechmasligi lozim. Boshqacha qilib aytganda, rassomning hayoli uni o'rab turgan borliq bilan har doim bog'liq bo'lishi lozim. Ijodkor-rassom biron-bir san'at asari ustida ijod qilishidan oldin, eng avvalo, kuzatib, eslab qolgan borliq obrazlarini xayolan tiklab, tahlil qiladi, so'ngra ularni juda ko'p marta amaliy mashqlar bajarish orqali olgan bilim va tajribalari asosida tasvirlaydi. O'quv qalamtasvirini ilmiy jihatdan tahlil etish natijasida uning bir necha mustaqil asosiy fanlar bilan bevosita chambarchas bog'liqligini kuzatishimiz mumkin:

I. Perspektiva - buyumning fazoviy holatini tekislikda to'g'ri tasvirlash metodlarini ochib beruvchi fan.


II. Plastik anatomiya - inson va hayvonlar tanasining tuzilishi haqidagi fan.

III. Fizika - buyumlarda yorug' va soyalarining taqsimlanishi borasidagi fan. Ushbu fanlarni har bir talaba umuta'l'm maktabida, so'ngra badiiy o'quv yurtida chuqur o'zlashtirgan bo'lishi hamda ularni tasviriy faoliyatda keng qo'llay olishi zarur. Yuqorida bayon etilganidek, Uyg'onish davri rassomlari o'zlarining mashhur san'at asarlarida sanab o'tilgan fanlardan unumli foydalanganlar.


Buyumlarni haqqoniy tasvirlashda ushbu aniq fanlarning ahamiyati nihoyatda katta. Biron-bir mashhur san'at asari yoki, unda perspektiva qonuniyatlariga amal qilinmagan bo'lzin. O'ziga qarab chizilgan suratni rassom qanday holatda (ro'paradan, yonidan, o'tirib, yoki tik turib) bajarganini aniq aytib berish mumkin. O'tmishda yashab ijod etgan buyuk rassomlar ham, hozirgi zamonaviy rassomlar ham perspektivani birinchi o'ringa qo'yadilar. Tasviriy san'at fazoviy tasavvurimiz perspektiva qonuniga to'la amal qilishini talab etadi. Buyumning fazoviy holatini to'g'ri tasvirlash uchun, perspektiva qonunlariga rioya qilishimiz shart. Mashhur



rassomning ijodi shundan dalolat beradiki, borliqni haqqoniy tasvirlash uchun tasviriy san'at qonun-qoidalariга rioya qilish g'oyat muhim. Leonardo da Vinci o'zining «Rangtasvir qonuniyatлari» nomli asarida shunday degan edi: «0'quvchi, avvalambor, perspektiva qonunlarini puxta bilishi lozim, so'ogra narsaning o'lchamlarini o'zlashtirishi kerak». Buyumlarning konstruktiv tuzilishini hamda ularning turli vaziyatlardagi perspektiv qisqarishlarini to'g'ri tasvirlash talabidan tinmay amaliy mashqlar bajarishni talab etadi. Mashhur rassom murabbiylar, ijodiy faoliyati bilan bir qatorda, ko'plab maxsus metodik yo'llanmalar ishlab chiqqanlar. Jumladan, XIX asrning birinchi yarmida ijod etgan rus pedagoglaridan A.P.Sapojnikov buyumlarni tasvirlashda sinch (karkas) usulini joriy etdi. Gipsdan ishlangan geometrik shakllarni tasvirlashda u ma'lum shaklning yoniga shu shaklning simdan ishlangan nusxasini qo'yib, yosh rassomlarning chiziqli




konstruktiv tuzilish, perspektiva qonun-qoidalarini osonlikcha o'rganishlariga yordam bergan. Sinch usuli yordamida tasvirlash turli geometrik hamda boshqa shakllarning (kub; silindr, konus, prizma va hokzo..) buyum tekisligidagi tayanch nuqtalarini, perspektiva asoslarini hamda fazoviy holatlarini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Tasvir chizishning asosiy qoidalari. Tasvir chizishning asosiy qoidalardan biri perspektivadir. Narsaning ko'zatuvchidan uzoqlashgan sari kichrayib ko'rinishi perspektiva hodisasi deyiladi. Masalan, tekis yo'lning o'rtasiga turib kuzatsak, yo'lning oxiri bir nuqtaga tutashgandek qisqarib ko'rindi . Tabiatdagi hamma narsa, gorizont chizig'idagi kuzatish nuqtasi, ya'ni ko'zimizga teng bo'lgan nuqtaga qarab qisqarib boradi. Har bir narsa boshqa narsadan uzoqda turgan bo'lsa, ko'zimizga kichraib ko'rindi, tog'lar ham xiralashib ko'rindi . Unga tushayotgan yorug'lik va soyalar ham yaxlit ko'rinishga ega bo'lib, birinchi plandagi



narsalardan farq qladi. Har qanday narsani qog'ozga tasvirlash uchun, uning joylashishiga nisbatan ufq chiziqi topib olinadi. Bu chiziq yuqoriga aytganimizdek ko'zimiz balandligiga teng masofadir. Natyrani tasvirlashda perspektiva qonunlaridan to'g'ri foydalanish muhim shartlaridan biri bo'lib, tasvirning haqqoniy chiqishini ta'minlaydi. Narsaning tasvirini gorizontal sathiga va vertikal kartina sirtiga nisbatan holati perspektiva ko'rinishiga muvofiq topiladi. Rasm chizishda havo perspektivasiga ham ahamiyat berishimiz zarur. Yaqindagi buyum uzoqroqdagisidan tusi, rangi, och - to'qligidan ajralib turadi. Soya - yorug'likning tasvir tarxiga muvofiq ravishda o'xshatib aks ettirish, ular o'rnini to'g'ri topishga ham bog'liqdir. Natyrani tasvirlash manzara tasviriga nisbatan perspektiva qoidalarini qo'llash murakkabroq. Chunki buyumlar orasidagi masofa qisqaroq bo'lgani uchun uni diqqat bilan kuzatish orqali aniqlanadi. Tasvir chizishda o'rtacha yumshoqlikdagi TM; M; "2M" rusumli qalamlar, pastel, saus, sangina,pista ko'mirlardan foydalaniladi. Bularning orasida eng ko'p ishlatiladiganini alohida ishga hozirlash kerak. Ularning uchini o'tkir tig' bilan jami bo'lib 30mm, shunda uning grafit qismi 10 mm qilib chiqariladi. Yordamchi chiziqlarni chizishda qalamning yon qismi bilan chiziladi. Shunda yordamchi chiziqlar oq yumshoq o'chirg'ich bilan oson ketadi. Agar qalamning uchi bilan chizilsa, qog'oz yuzidagi chiziqlar o'chmay qoladi. Inson qomati plastikasini mukkammal o'rganishda inson qo'li va oyoqlarini chizishni o'rganish juda muhimdir.

yillik ish
shuni

Ko'p
tajribasi



ko'rsatadiki, talabalar inson qo'lini va oyog'ini chizishda ancha qiynaladilar. Shu sababli badiiy ta'lim tizimmiagi o'quv yurtlarida gipsdan yasalgan qo'l va oyoqning tasvirini ishlash o'quv dasturlariga kiritilgan. Turli davr rassomlari qo'l panjalari tasviriga katta e'tiborni qaratgan. Bu bilan ular insonnig fizik va emastional holatini ochib berishga erishdilar. Qo'l panjalari rasmini chizishda har bir kishi uchun alohida o'ziga xos ko'rishga ega ekanligini hisobga olish zarur. Portretni qo'llari bilan ishlash insonning ijtimoiy holati, yoshi va emotsiyal xususiyatlarini anglashga yordam beradi. biz yuqorida ta'kidlaganimizdek insonni qo'llari bilan tasvirlashning o'ziga xos plastik xususiyatlarga ega. Portret chizishda doimo umumiylididan hususiylikqa qarab borish prinsipiga rioya qilish zarur. Rasm chizishda talaba eng asosiy ikki xususiyatni esdan chiqarmasligi zarur. Bulardan birinchisi umumiylididan hususiylikka, ya'ni detalga o'tish prinsipidir. Unda chiziladigan naturani eng avvalo detallarsiz, umumiyl shakli to'liq olinib, so'ngra mayda elementlarini ishlashga o'tiladi. Ikkinci prinsipimiz bu hususiyatlikdan, ya'ni detallar ishlovidan so'ng umumiylikka qaytishdir. Umumiylidaka detallar ishlashga o'tilganda har bir bo'lak alohida ishlanadi va yaxlitlanadi. Ish jarayonida detallar ishloviga e'tibor berilib, yaxlitlikni unutmaslik lozim. Bu prinsipning muhim tomoni ham shundaki, detallarning har biri boshqasiga solishtiriladi, soyayorug'liklar nisbatlari tekshirilib, hisobga olinadi. Bu tasvirlanayotgan naturaning har bir detali qo'silib, yaxlitlikka o'tishga xizmat qiladi. O'qituvchi qalam tasvirni vaqtidan oldin detallashtirishdan saqlab qolish uchun o'qituvchilarni ishini kuzatish berishi shart; Shu bilan shaklining katta qismlarini chizish kerakligidan ularning diqqatlari chalg'ishidan saqlaydi.

3-Mavzu: Libossiz erkak qomati murakkab harakatda (Keksa chayir kishi) Inson qomatini murakkab holatini turli ko'rinishlarda o'rganish.

Reja:


1. *Hajmli odam qomatini shakli.*
2. *Inson qomatida mushaklar va suyagi mutanosibligi.*
3. *Bo`gimlar birlashmalari, harakatlari va ularning plastikasi.*

Insonning u yoki bu harakati paytida uning skeleti suyaklarining nisbiy holati o'zgaradi, tana mushaklarining tegishli guruhlari taranglashadi, bu butun figuraning tashqi plastik shaklida o'zgarishlarga olib keladi. Shuning uchun o'quv chizmasini qurish ishning mohiyatini, figuraning turli harakatlaridan kelib chiqqan mushaklarning kuchlanish darajasini bilishga asoslanishi kerak. Biz ushbu muammoni inson tanasining alohida qismlarini chizish usuliga bag'ishlangan bo'limlarda batafsil ko'rib chiqamiz.

Inson tanasining tashqi plastik shakli bevosa uning ichki tuzilishiga bog'liq. Shuning uchun, tashqi shakllar konturlarining o'zgarishiga sabab bo'lgan sabablarni aniq tushunmasdan, o'quvchi rasmda odam figurasini ishonchli tarzda qura olmaydi. Eng yaxshi holatda, chizish jarayoni ko'rindigan shakllarning ko'proq yoki kamroq aniq nusxasiga qisqartiriladi, uning kamchiliklari arxitektura akademigi V. A. Vesnin tomonidan juda aniq tasvirlangan: "... tabiatga, taqlidga, unga passiv munosabatda bo'lish. ma'nosiz takrorlash. Chizish faol jarayon - fikr, ko'z va qo'lning ajoyib ishi ekanligini qat'iy tushunishimiz kerak ...".

Inson figurasining plastik shaklidagi o'zgarishlarning u tomonidan ishlab chiqarilgan harakat tabiatiga bevosa bog'liqligini ko'rsatish uchun oddiy misol keltiriladi. Shaklda bir oyog'iga suyanib turgan o'tiruvchini ko'rsatadi. Shaklning muvozanat darajasini plumb chizig'i yordamida tekshirish mumkin. Tirik modelning barqaror muvozanati bo'lsa, figuraning og'irlik markazidan (tos suyagining o'rtasida joylashgan) tushirilgan plumb chizig'i mos yozuvlar yo'lini kesib o'tishi kerak. Bunday holda, qo'llab-quvvatlovchi oyoq tashqi tomonga sezilarli darajada suyanadi, tananing massasi bilan yuklangan va ikkinchi oyoqning tayanchidan mahrum bo'lgan tos suyagi ham moyil holatni oladi. Bu bunday holatga xos bo'lgan "qiyshiq" harakatni yaratadi.

Oyoqning egilishi va tos suyagining egilishi konkida uchuvchi oyoqning katta trokanterining kuchli proektsiyasi bilan ta'kidlanadi. Muvozanatni saqlash uchun umurtqa pog'onasining yuqori qismi, uning pastki qismi bilan tos suyagi bilan qattiq bog'langan, teskari yo'nalishda egiladi. Ushbu egilish torsonning o'rta chizig'ida aniq aks etadi. Orqa miya bilan qattiq bog'langan ko'krak qo'llab-




quvvatlovchi oyoqqa egiladi. Bunday holda, ko'krakning pastki qovurg'alari, bir tomonidan, tos bo'shlig'ining yonbosh suyaklariga yaqinlashadi, ikkinchidan,

ulardan uzoqlashadi. Elkama-kamar ko'krak qafasining harakatiga mos keladigan tabiiy pozitsiyani egallab, tos suyagining egilishiga qarama-qarshi tomonga egiladi. Uning pastki qismidagi bo'yin umurtqa pog'onasini siljitishda davom etadi va yuqori qismda bosh bilan birga u qo'llab-quvvatlovchi oyoqqa qarama-qarshi tomonga og'adi.


Shunday qilib, butun shaklning umumiy harakati silliq serpantin chizig'iga o'xshaydi va tos, ko'krak va boshning og'irlilik markazi qo'llab-quvvatlovchi yo'lga tushadi. Qo'llab-quvvatlamaydigan oyoq bo'g'lnarda bir oz egilgan bo'ladi, uning tizzasi qo'llab-quvvatlovchi oyoq tizzasi ostida joylashgan bo'ladi. Qo'llar turli xil pozitsiyalarni egallashi mumkin, ammo qo'llab-quvvatlovchi oyoq ustidagi tushirilgan qo'l va ko'tarilgan boshqa qo'l elkalarining harakatiga mos keladi va butun figuraning tabiiy holatini ta'kidlaydi. Mushaklar asosan qo'llab-quvvatlovchi oyoq tomondan siqilgan, tarang holatda bo'ladi va qarama-qarshi tomondan cho'ziladi, bo'shashadi. Shunday qilib, biz inson qiyofasini faqat bir oyog'ida qo'llab-quvvatlash suyaklar va mushaklarning qat'iy mantiqiy o'zaro joylashishiga qanday olib kelishini, bu butun figuraning tashqi plastik shakliga ta'sir qilishini kuzatdik. Ushbu munosabatni tushungan talaba o'z vazni bilan yuklangan inson qiyofasining ishonchli tasvirini yaratishi mumkin.

Inson figurasing turli xil harakatlarining "mexanikasini" va ularning shaklda to'g'ri aks etishini tushunish uchun, birinchi navbatda, butun tananing og'irlilik markazining joylashishi va uning individual xususiyatlarining ushbu jarayondagi ahamiyatini tushunish kerak. qismlar. Tik turgan yoki o'tirgan odam ongli ravishda, lekin ko'pincha instinktiv tarzda, uning tanasining og'irligidan butun yukni butun skelet tomonidan qabul qilinadigan pozitsiyani egallaydi va mushaklarning ishi bu pozitsiyani o'rnatadi. Shuning uchun, erkin turgan yoki o'tirgan figurada



uning umumiy harakati va alohida qismlarning harakati butun figuraning va uning qismlarining tayanch nuqtalari va og'irlik markazlarining o'zaro joylashishi bilan belgilanadi. Tabiiyki, agar raqam barqaror statik holatga ega bo'lsa, butun inson tanasining og'irlik markazidan tushirilgan plumb chizig'i uning tayanch maydonidan o'tishi kerak. Biror kishi ma'lum mushak guruhlari ishining kuchayishi tufayli o'zining yanada dinamik pozitsiyalarining qat'iy pozitsiyasini saqlab qoladi.


Dinamik harakatlarni amalga oshiradigan inson tanasining kosmosdagi joylashuvi murakkab va cheksiz xilma-xildir. U statiklardan nafaqat og'irlik markazining boshqa pozitsiyasida va mushaklarning faolroq ishlashida, balki harakatlanuvchi tana massalarining inertsiya qonunlarida ham farq qiladi. Shuning uchun odamning yurish, yugurish, ishlash va boshqa murakkab harakatlarda umumiy og'irlik markazidan tushirilgan plumb chizig'i ba'zi lahzalarda tayanch zonasidan tashqariga chiqadi va kuchlar tufayli tananing muvozanatiga erishiladi. inertsiya. Tik turgan odamning umumiy og'irlik markazi uning tos bo'shlig'inining o'rtasida joylashgan; odamning qiyin pozitsiyalarida og'irlik markazi uning tanasidan tashqariga chiqishi mumkin.



Inson o'z tanasining og'irlik markazining holatini ongli ravishda boshqaradi, uning alohida qismlarining ma'lum bir o'zaro bog'liqligini yaratadi. Bu unga mehnat, sport mashqlari, raqlar va hokazolar davomida turli murakkab harakatlarni oson bajarish imkonini beradi. Hayot jarayonida ishlab chiqilgan harakatlar tabiiy, ba'zan esa go'zal va uyg'un ko'rindi. Kutilmagan, tasodifiy tushish bilan, odam instinctiv ravishda tanasining og'irlik markazini barqaror holatga keltirishga intiladi.


Tabiiyki, chizma vositalari fazoda va vaqtda sodir bo'ladigan harakat jarayonining faqat bir lahzasini aks ettira oladi. Shuning uchun, harakatning bir lahzasi haqidagi taassurotni to'g'ri etkazish uchun ushbu harakatning butun jarayonini o'rganish va biz qayd etgan momentdan oldin qaysi pozitsiyani va undan keyin qanday pozitsiyani eslab qolish muhimdir. Tasvirlangan shaklning har bir qismi oldingi harakatning izlarini saqlab qolishi va shu bilan birga keyingisini ham o'z ichiga olishi kerak. Rassomning vazifasi - bu harakat turining tabiatini eng aniq va ifodali aks ettiradigan figuraning yagona pozitsiyasini tanlash.

Endi vertikal o'q atrofida kuchli burilish qilayotgan odamning rasmini ko'rib chiqing. Bunday holda, umumiylayish aylanish harakati tananing alohida qismlarining nisbatan kichik bosqichma-bosqich aylanishlaridan iborat. Oyoq Bilagi zo'r bo'g'inlar, tizza va son bo'g'imlari, ko'krak umurtqalari, pastki orqa va bo'yinning aylanishi har bir yo'nalishda boshni (harakatsiz oyoq izlari bilan) 180° ga aylantirish imkonini beradi. Inson figurasini turli holatda chizishda tos bo'shlig'ining bosh suyagi, ko'krak qafasi, umurtqa pog'onasi egilishi va oyoq-qo'llar suyaklarining joylashishini aniq tasavvur qilish kerak. Bir so'z bilan aytganda, plastik anatomiya talabaga turli bo'g'inlardagi harakatlarning tabiatini, inson tanasining asosiy qismlarining mumkin bo'lgan o'zaro pozitsiyalarini va



mushaklarning ma'lum bir guruhining ishini tushunishga yordam berishi kerak. Bir so'z bilan aytganda, inson tanasining barcha qismlarining uning figurasi harakatining tabiatini bilan qat'iy asosli, mantiqiy bog'liqligini tushunish kerak. Shuning uchun chizishni o'rganish jarayonida figuraning tayyor tasviriga kalta qo'yish va uning konturiga skelet suyaklarini yozish foydalidir.

Sxematik chizmalar inson qiyofasi va uning qismlari harakatining statik turlarini ko'rsatadi, ularning kombinatsiyasi nafaqat insonning jismoniy imkoniyatlari va holatini, balki uning murakkab hissiy kechinmalarini



ham aks ettiruvchi boy harakatlar doirasini yaratadi. Inson figurasining o'quv chizmasi, albatta, turli xil matematik munosabatlarda gapirganda, shaklning geometrik tuzilishining to'g'rilingini ifodalovchi nisbatlar haqidagi bilimlarga asoslangan bo'lishi kerak. Vitruvius ta'kidlaganidek, "Proportsion" - bu butun

asarning a'zolari va uning butun proporsionalligi asos bo'lgan asl nusxa sifatida olingan qismga nisbatan yozishmasidir.

Individual xususiyatlar tufayli inson tanasining nisbatlarida ba'zi o'zgarishlar bo'lsa, ko'pchilik odamlar uchun xos bo'lgan ba'zi umumiy proporsional naqshlarni qayd etish mumkin. Voyaga etgan erkakning normal rivojlangan figurasining ushbu o'rtacha nisbatlarini boshlang'ich sifatida qabul qilish mumkin, ular bilan solishtirganda shaxsning proporsional tuzilishining xususiyatlarini sezish osonroq.

Tabiatning eng uyg'un ijodi sifatida inson tanasining nisbati rassomlar va san'at nazariyotchilarining diqqat markazida bo'ldi. Proporsiyalarni o'rganish Rim arxitektura nazariyotchisi Vitruviy, Uyg'onish davrining yorqin rassomi Leonardo da Vinchi, o'sha davr me'morlari Alberti va Palladio, mutanosibliklarning yirik tadqiqotchilari Zeising, Messel va Gambagening kitoblarida mavjud. Proporsiya masalasi bizning zamonamiz me'morlari va tadqiqotchilari, birinchi navbatda mashhur frantsuz me'mori Le Korbusier va sovet me'morlari I.V.Joltovskiy, M.Ya.Ginzburg, V.F.Krinskiy va boshqalar ijodida muhim o'rinn tutgan.

Ushbu asarlar tufayli san'atning tarixiy rivojlanishi jarayonida tirik odamni chuqur o'rganishga asoslangan va inson tanasining mukammal go'zalligi haqidagi ma'lum bir davrning ideal g'oyalarini aks ettiruvchi ko'plab mutanosiblik qonunlari yaratildi. Keling, o'rtacha bo'yli katta yoshli erkakning figurasining asosiy proporsional naqshlarini ko'rib chiqaylik. Boshning balandligi 1/7,5-8, yelkalarining kengligi taxminan 1/4, tos suyagining kengligi esa shaklning umumiy balandligining 1/5 qismini tashkil qiladi, pubik artikulyatsiya uni yarmiga bo'ladi. tizzalar oyoq balandligining yarmiga qo'yiladi, tushirilgan qo'lning barmoqlari sonning o'rtasiga etadi. Uzun bo'yli odamning boshi balandligining 1/8 qismidan ko'prog'iga etadi, past bo'yli



odamning boshi esa nisbatan kattaroq bo'lib, uning bo'yining atigi 1/7 qismini tashkil qiladi. Tana uzunligi oyoqlarning uzunligiga qaraganda kamroq individual o'zgarishlarga duchor bo'ladi, shuning uchun baland bo'yli odamlar odatda nisbatan uzunroq oyoqlarga ega, past odamlar esa qisqaroqdir. Erkaklar bilan solishtirganda, ayollarning bo'yi kichikroq, gavdasi nisbatan uzunroq va oyoqlari kalta, tos suyagi kengroq va tor yelkalari, kichikroq boshi, qo'llari va oyoq izlari bor.

Insonning butun hayoti davomida uning tanasining nisbati juda o'zgaradi. Buning sababi shundaki, o'sish jarayonida uning alohida tana qismlari turli yo'llar bilan o'sadi, masalan, boshning balandligi 2 marta, tanasi 3 marta, qo'llar 5 ga, bo'yin . 6 marta. Yangi tug'ilgan bolada bosh balandligining 1/4 qismini, olti yoshli bolada 1/6 qismini, kattalarda esa 1/7 yoki 1/8 qismini tashkil qiladi. Tabiatdan inson qiyofasini tez va ishonchli chizish uchun, ayniqsa, yuqorida aytib o'tilganidek, "tasavvur bilan" figuraning eng muhim anatomik tugunlarini mahkamlaydigan mos yozuvlar nuqtalarini yoki mayoqlarni bilish va qo'llash kerak. va tananing asosiy massalari harakatining yo'naltiruvchi chiziqlari.

Yo'naltiruvchi nuqtalar raqamning kosmosdagi o'rnini va uning proportsional tuzilishini aniqlaydi. Ular istiqbolli qisqarishlarni hisobga olgan holda chizma yaratish uchun boshlang'ich mayoq bo'lib xizmat qiladi va tananing har bir qismi harakatining tabiatini belgilashga imkon beradi.



Keling, inson qiyofasining asosiy nuqtalarini ta'kidlaymiz. Old tomondan yonbosh suyagining pubik artikulyatsiyasi va proyeksiyalari, koksiksin pastki umurtqasi va orqa tarafagi yonbosh suyaklarining proyeksiyalari tos suyagi holatini aniqlaydi. Birinchi va ettinchi bachadon bo'yni, o'n ikkinchi ko'krak va pastki sakral vertebralalar, shuningdek, koksiks orqa miya harakatining tabiatini aniqlaydi. To'sh suyagining bo'yinbog'i chuqurchasi va xiphoid o'simtasi, shuningdek, ko'krak uchi chiziqlarining chiqib ketishlari ko'krak qafasining moyilligi va aylanishini belgilaydi. Son, tizza bo'g'imi va oyoq Bilagi zo'r bo'g'imning katta trokanteri oyoqlarga kerakli harakatni aytishga imkon beradi. Akromial jarayonlarning nuqtalari elkalarining kengligi va aylanishini belgilaydi, elka, tirsak va bilak bo'g'inlari qo'llarning harakatini belgilaydi. Shaklning tafsilotlarini ishlab chiqish jarayonida, ko'rsatilgan asosiy mos yozuvlar nuqtalariga qo'shimcha ravishda, alohida suyaklar va mushaklarning (bo'g'imlar, to'piqlar, tizzalar va boshqalar) mos yozuvlar nuqtalarini belgilash kerak.



Академия Художеств им. И.Е. Репина || Аникеев Г. В.

Ikkala oyog'ida vertikal tik turgan figuraning asosiy yo'naltiruvchi chiziqlari quyidagi pozitsiyalarga ega: tos suyagi chizig'i oldinga egilgan, qorin vertikal, ko'krak orqaga, bo'yin oldinga va bosh bir oz orqaga, o'q. oyoqning pastki qismi vertikal, sonlari esa yon tomonga egilgan. Bilak va elkaning asosiy chiziqlari o'zaro kichik burchak hosil qiladi, tananing boshqa qismlari (qo'l, oyoq, bo'g'inlar va boshqalar) o'z yo'naltiruvchi chiziqlariga ega.

Insonning murakkab harakatlari bilan uning tanasining asosiy massalarining yo'nalishi sezilarli darajada o'zgarib, ko'p sonli turli xil pozitsiyalarni yaratadi. Shaklning langar nuqtalari va yo'naltiruvchi chiziqlarini kuzatish va ularni qog'oz varag'ida belgilash, istiqbolli kesishlarni hisobga olgan holda, biz odam chizilgan mustahkam "skelet" ni olamiz.

Inson qiyofasini qurishga ta'sir qiluvchi turli omillar orasida fiziologik optika, xususan, chiziqlar va uch o'lchovli shakllarni vizual idrok etish muhim o'rinni egallaydi. Insonning ko'rish qobiliyati optik illyuziyalarga moyil bo'ladi. Shakl tasvirini o'rganish jarayonida vizual idrok etishning bu qobiliyatini hisobga olish kerak. Gap shaklni shakllantirish elementlarining uzunligi, maydoni, moyillik burchagi va egriligin xayoliy baholash haqida bormoqda. Vizual optik apparatimizning nomukammalligi va modelni psixologik idrok etish ba'zan



o'lchamlar va konfiguratsiyalarning noto'g'ri talqin qilinishiga olib keladi.

Inson figurasini tarbiyalashda miyaning tuzatuvchi roli juda muhim, chunki ko'zga ko'rinaligan o'lchamlarni mexanik ravishda o'tkazish, ayniqsa, inson figurasini nuqtai nazardan chizishda taniqli xatolarga olib keladi. "Fotografik" tasvirlangan model, konusning proektsiyalash qoidalariga ko'ra, rasmda nomutanosib bo'lib chiqishi mumkin, vizual jihatdan ishonchsizdir. Tajriba shuni ko'rsatadiki, bu holda inson qiyofasining haqiqiy qiyofasi parallel nurlar bilan proektsiyalash natijasida tana qismlarining hajmli nisbatlarini istiqbolli o'zgarishlarsiz saqlaydi, ya'ni uzoq qismlarni biroz oshirib, yaqin qismlarini kamaytiradi. Murakkab istiqbolli qirqimlarda odamni tasvirlashda rassom figuraning asl frontal ko'rinishlarini (yon, old, orqa), shuningdek, tasvirlangan figuraning xarakterli "bo'limlari" ni tasavvur qilishi, tasavvur qilishi kerak. Tuzilishi, harakati va nisbati haqidagi ko'rib chiqilgan dastlabki ma'lumotlar keljakda inson qiyofasi va uning malakali qiyofasini chuqurroq tushunishni rivojlantirishga yordam beradi. Me'mor ko'pincha inson kiyimi ishlab chiqarilgan materiallardan foydalanish bilan bog'liq me'moriy masalalarni hal qilishi kerak, shuning uchun u ularning dizayn xususiyatlarini bilishi kerak. Barcha turdag'i matolarni o'rganish shart emas, lekin burmalarning shakllanishi bilan bog'liq ba'zi xarakterli xususiyatlarni hisobga olish kerak. Turli gazlamalarning "xulq-atvori"ning tabiat tabiatda kuzatilishi mumkin, ammo bizning nuqtai nazarimizdan, uni turli davrlar (haykaltaroshlik, rangtasvir, grafika) san'ati asarlarida ko'rib chiqish qiziqroq. Ayniqsa, to'qimalarni tasvirlash usullarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular burmalarni shakllantirishdagi "ishlarini" aniq ko'rsatib beradi. Burmalar shaklning, odamning, havoning (shamol) dam olish yoki harakatini tavsiflashi mumkin.



Matoning burmalari ma'lum bir harakat paytida shaklning tugunlarini ochishi kerak.

Amaliyotchi me'mor o'z loyihalari uchun eskizlar yoki me'moriy va dekorativ elementlarni ishlab chiqishi kerak - uch o'lchovli (haykal, relyef) yoki planar (rasm, mozaika, sgraffito). Bunday hollarda u inson qiyofasidagi kiyimlarni stilize qilingan, umumlashtirilgan tarzda tasvirlashi kerak.

Me'mor tasvirlangan inson qiyofasining nisbatlarini, hajmini, harakatini, imo-ishorasini ta'kidlaydigan va shu bilan badiiy tasvirning ekspressivligini sezilarli darajada oshiradigan oz sonli lakonik burmalarni tanlashi kerak.

Apollon haykallarida burmalar naqshlari figuraning umumiyligi harakatiga bo'yusunadi, tananing plastikligining u yoki bu xarakterini ta'kidlaydi, uni osonlashtiradi, shamol bilan erkin tushadi yoki rivojlanadi. Burmalar tasvirining texnik tomoni inson qiyofasi, uning tugun nuqtalari va harakatning yo'naltiruvchi chiziqlari chizmasini qurish usuliga to'liq bo'ysunishi kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, turli davrlarning tasviriy san'ati ustalari ko'pincha odam skeletini chizib, uni mushaklar bilan "kiyintirgan", keyin esa turli xil kiyimlarni bo'yashgan.

Yuqorida aytilganlarning barchasi kostyumlar, shlyapalar va poyabzallar kabi kiyim turlarini chizish uchun qo'llanilishi mumkin. Ularning tashqi ko'rinishi matoning modasi, maqsadi va sifatiga bog'liq. Shunday qilib, nozik, yumshoq, engil matolardan tikilgan kiyimlar tananing plastikligini aniq oolib berishi, ta'kidlashi mumkin. Chizmada nafaqat matoning shaklga mahkam o'rashgan joylarini, balki burmalar erkin osilgan yoki tebranadigan joylarni ham ta'kidlash kerak. Zich qalin matolardan tikilgan kiyimlar odatda shaklni yashiradi, lekin



ikkinchi tomondan, uni umumlashtirish orqali asarning monumentalashuviga hissa qo'shamdi.

Apollon haykalining chizmasini bajarish ketma-ketligi shaklda ko'rsatilgan.

1-bosqich. Harakatni anglab etgach, rasmning o'ta nuqtalarini (qog'oz varag'iga eng yaxshi joylashtirish uchun) va butun kompozitsiyaning markaziy ko'rish chizig'i nuqtasini tezda belgilang. Shaklning mos yozuvlari nuqtalarini qo'llang: pubik bo'g'im - pubis, elkama-kamarning yonbosh suyaklarining taroqsimon chiqishi - bo'yinbog' chuqurchasi, elka bo'g'implari, ko'krak qafasi - xiphoid jarayoni va uning pastki chetining nuqtalari, pastki ekstremiteler - katta trokanter, oyoq izlari va tizzalar, yuqori ekstremiteler - tirsak va bilak , boshlar. Tana, oyoq, bo'yin, bosh va qo'llarning umumiyligi egilishining yo'naltiruvchi chiziqlarini chizish.

2-bosqich. Tos bo'shlig'i, ko'krak, son, pastki oyoq, oyoq izlari, bo'yin, bosh, elkalar, bilaklar, qo'llarning umumiyligi harakatini va o'lchamlarini bir-biriga nisbatan, shuningdek vertikal va gorizontal ravishda tavsiflovchi yo'naltiruvchi chiziqlarni takomillashtirish. Tos suyagi, pastki orqa, ko'krak, bo'yin va boshning tasviri. Shaklning umumiyligi shakli va uning qismlarini o'rtasidan chetlarigacha engil chiziqlar bilan chizish.

3-bosqich. Tos suyagi, ko'krak, bosh, oyoq va qo'llarning alohida qismlarini ko'rsatadigan detallarning tasviri, biriktirilish joylari va asosiy mushaklar tomonidan bajarilgan ishlarni hisobga olgan holda. Butun figuraning shakllarini kuchliroq va aniqroq chiziqlar bilan chizish. Vertikal va gorizontga nisbatan massalar va qismlarning yo'nalishini tahlil qilish.

4-bosqich. Yorug'lik sharoitlarini, yorug'lik manbasiga nisbatan shaklning ko'ndalang va bo'ylama qismlarini oldindan tushunib, o'z va tushadigan soyalarni belgilash.

5-bosqich. Chizmani umumlashtirish, ya'ni tonal va chiziqli uyg'unlikka keltirish, yorug'lik manbasidan va tomoshabindan yaqin va uzoqda joylashgan shakl qismlarini va uning plastikligining xususiyatiga qarab ochib berish. Bir holatda, kesish kontrasti kuchayadi, ikkinchisida u kamayadi. Asarda xuddi


shunday ketma-ketlik boshqa haykallarni chizishda ham kuzatiladi: "Gozli bola", "Kupid". Ushbu chizmalarda, boshqalarda bo'lgani kabi, skeletlarni kiritish, ularni harakat va o'lchamda bir-biri bilan solishtirish foydalidir. Anatomiyada, Akademik chizma, Asosiy kurs, Boshning gips detallari, Chizma Teglar kattalar erkak figurasining asosiy proportsional naqshlari, Inson qiyofasi, Shakl qurilishi, asosiy figura harakatlari, Rasm nisbatlari, Haykal chizish ketma-ketligi, odam figurasi chizish, konstruksiya, Jismoniy va inson qiyofasi, odam qiyofasi tasviri, chizilgan odam, chizish uchun odam, bosqichma-bosqich chizish, inson qiyofasi, odam qiyofasi nisbati, odam figurasining tuzilishi, nisbati va tuzilishi. odam qiyofasi, uning skeleti suyaklarining holatlarini taxlil qilib chizish maqasadga muvofiq.

**4-Mavzu: Libossiz erkak qomati o'tirgan xolatda (Yosh erkak qomati)
Inson qomatini o'tirgan holatini turli ko'rinishlarida o'rganish.**

Reja:

1. *Odam gavdasini rangtasvida ishlash yo'llari.*
2. *Odam yuzi, qo'li, va tana nisbatlarini anatomic taxlili.*
3. *Yalang'och gavdadan ranglavha ishlashda qo'yiladigan talablar.*


Odam gavda rangtasvirini ishlashdan oldin, uning mukammal qalamtasviri, konstruktiv qurilishi umumiyligi, yaxlit shakl va mayda bo'laklar ifodasini puxta o'rgangan bo'lishi kerak. Shaklni m ohirona topa bilish, nisbatlarni to'g'ri aniqlash, yaxlit va mayda detallarning anatomik va konstruktiv qurilmasini to'g'ri topish natijasida ko'zlangan natijaga erishish mumkin. Rangtasvir shaklning to'g'ri qurilishi tus va rang yechimining birligidadir. Kimki grizayl texnikasida odam tasvirini maromiga yetkazib bajara olsa, rangtasvirni ham muvaffaqiyatli chiqishiga zamin yaratgan bo'ladi. Odam qom atining rangtasvirida uning xajmi, sirt, muhit sifatlari, rang yaxlitligi va mayda shakl ifodasini doimo solishtirib turish va fikr yuritib ishlash natijasida yaratiladi. Dastlabki rang qoplamadan boshlab, keyingi ishlovlargacha ochib beruvchi shakl xarakterini ish yakunida qanday bo'lishini hisobga olib



rejalashtirish kerak bo‘ladi. Yoritilishiga qarab rang yorqin, xira va och bo‘lishi mumkin. Xuddi bosh rangtasviri kabi odam qomatining rangtasvirini ishlashda ham kompozitsiya ustida izlanib, bir necha ranglavhalar bajariladi. Eng chiroyli plastik yechim tanlanadi. Bu eskizlarda gavdaning kom pozitsion-plastik echimi, rang yechimi tanlanadi, o‘lcham aniqlanadi. Model xarakterini ocha turib, rassom barcha psixologik nyuanslafdan, xarakterli xususiyatlardan eng ifodaligini ajratib topishi zarur. Kiyimsiz gavda tasvirida tana rang xususiyatlarini uning atrof-m uhit bilan bog‘liqligini ifodalash kerak. Odam tana rangi o‘zining tabiiy rangidan tashqari nozik ko‘z bilan ilg‘ash juda qiyin issiq-sovuq, och-to‘q tuslanishlarga ham ega bo‘ladi. Odam tanasidagi ranglarning turlicha bo‘lishi birinchi navbatda qon tomirlarining chuqur yuzada bo‘lishi, tana dagi yog‘ qatlam iga, teri yuzasi xarakteriga bog‘liq. Ko‘krak, qorin yoki yelka rangidan son terisi rangi tizza yoki oyoq tovoni rangidan farq qiladi. Yuz, qo‘l, bo‘yin odatda tananing yopiq qismlardan to‘qroq b o‘ladi. Tanadagi ranglar jilosи albatta reflekslarga ham bogiiq. Tananing yuqori qismiga shiftdan, oyoq qismiga poldan reflekslar tushib turadi. Bundan tashqari, fon va kiyimlar ta ’sirini ham sezish mumkin. Yuz, tana, kiyimlarda fondan qo‘srimcha to‘ldiruvchi ranglar bo‘ladi. Yalang‘och qom atni ishlash jarayoni to ‘g‘risida professor O. E. Braz shunday degan: "Siz gavdaga yaxlit qarab ko‘rishni o‘rganing, busiz rangtasvir yozib bo‘lmaydi. Yaxlit bo‘laklarni doimo solishtiring, bo‘yin va tizza, qorin va oyoqlarga qarang, yaxlitlikda ranglar kuchini topping". Shunday bo‘lishi mumkinki, talaba naturani alohida bo‘laklarga bo‘lib ko‘chiradi, natijada ish sifati buziladi.



Ikki kishilik qo‘yilmada gavdalarni birgalikda ishlang, alohida-alohida ishlashga yo‘l qo‘ymang. Sizga yaqin tu rghan gavdaning tayanch nuqtasini toping, keyin masofani hisobga oigan holda ikkinchisini tasvirlang. Bir gavdani ikkinchisi bilan solishtirib guruh shaklida birgalikda yozish kerak (yaxlit narsa singari). Qaysi gavdaning asosiyligini (kattalikda va masofada) oldindan belgilab olish zarur. Gavda atrofidagi predmetlar rangi ishning rangtasvir yechimiga katta ta ’sir etadi. Shuning uchun gavdani tasvirlab turib, albatta, atrofdagi predm etlar rangi bilan ham solishtirib turish shart. Albatta bu ikkinchi darajali qo’shim cha detallarga asosiy obyekt bo‘lgan odam gavdasidek ishlov berilmaydi. Gavdani qo’shimcha nozik ranglar bilan boyitib borish kerak. Lekin ularning jarangdorligini oshirib yuborish kerak emas. Boshlovchi rassomlar, odatda issiq vasov uq ranglarning oddiy tarkibidan foydalanishadi. Murakkab issiq ranglarni qandaydir qizg‘ish rang bilan sovuq ranglarni yashil, siyoxrang yoki ko‘k rang bilan olishadi. Bunday ranglar tana sirti ifodasini bera olmaydi. Tañada deyarli har doim kamida 2-3 ranglar birikmasini ishlatish kerak. Oxra, siyena, kuydirilgan suyak rangi kabi bo‘yoqlar tanadagi sovuq ham da issiq ranglarni



chiroyli ifodalaydi. Ularni oq bilan aralashmasi turlicha issiq ham da sovuq ranglar tuslanishini kashf etadi. Politrada bo‘yoq turi ko‘p boMmasligi kerak. Chegaralangan ranglar bilan ko‘p rang va tuslar topishga harakat qilish kerak. Ishning yakuniy qismi yaxlitlash, ya’ni mayda detallarning bir butunlikka bo‘ysunishidir. Bu ishda asosiy bo‘laklarning tus yechimiga e’tibor berish kerak. Agar ola-bula chiporlik yaxlitlikka xalaqit bersa, ularga ishlov berish kerak. Naturani yaxlit ko‘rishga xalaqit berayotgan har bir bo‘lakni o‘z joyiga qo‘yish kerak. Agar shunday qilmasak, qo‘srimcha detallar asosiy obyektdan chalg‘itib, diqqatni tortadi, yaxlitlikni buzadi. Agar rassom yaxlit ko‘rishni 0‘rgangan bo'lsa, tasvirni oqilona bajaradi. Bu bosqichda gavda siluetiga ham e'tiborni kuchaytirish darkor. Tasvirda juda nozik tus farqini saqlab qolish kerak. Siluetning ba’zi joylarini kuchaytirib (chiziq orqali) ba’zi joylarni fon bilan qo’shib yuborish kerak. Qo‘yilmada nimani bo‘rttirib (chizib) nimani fonga yaqin tusda birlashtirib yuborishni hal etish zarur. Buni naturaga yaxlit qaraganda ajratib olish mumkin. Shundan so‘ng gavdaning to‘g‘ri konstruktiv qurilmasiga ega boMish mumkin. Nihoyat, portreti ishlanayotgan odamning ichki psixologiyasini ochishga ham urinib ko‘rish



mumkin. Bu narsaga detallarni yaxlitlab, asosiy xarakterli joylarini bo'rttirish bilan erishish mumkin. Shuning uchun tasviri chizilayotgan odamni uning o'zi uchun xarakterli bo'lган muhitda, ish ustida tasvirlagan m'a'qul. Yuz ifodasi, qo'l va gavda xarakteri, rang aynan shu odamni xarakterlashi o'ta-muhimdir. Bu o'rganishlar, kuzatishlar portret kom pozitsiyasi, plastik va kolorit yechimining asosiga poydevor bo'la oladi.

Odam gavdasi, badanini rangtasvirini ishslash eng murakkab vazifalardan hisoblanadi. Chunki kiyim ichida turadigan, quyoshda qorayib, rang olmagan, odam terisi juda nozik rang tuslarida bo'ladi. Uni tasvirlash, rang-tusini o'xshatib ifodalash

ancha qiyindir. Odam, gavdasini har xil ko'rinishlarini turli vaziyatlarda aks ettirish inson tanasi tuzilishi, anatomiysi, o'ziga

xos shakl-shamoyilini o'rganishni, plastik echimini topishni taqozo etadi. Shuning uchun chizilayotgan odam keksami, yoshmi gavdasining

konstruktiv tuzilishini avvalo qalamtasvirini chizib, o'rganilishi kerak. Buning uchun mayda qalam chizmalar, ranglavhalar bajarish, shakl va rang-tus munosabatlarini taxlil qilib o'rganish lozim. SHundan so'ng eng maqbul, chiroyli, ko'zga yaxshi tashlanadigan joydan turib tasvirni matoga tushirish boshlanadi. Unda gavdaning sathda joylashishi kompozitsiya tomonlari puxta o'ylab chiziladi. Rangda ishlaganda katta shakl, rang uyg'unligiga ham alohida e'tibor bilan qaralishi, mutanosiblik barcha narsada o'z aksini topishi kerak. Ular esa gavdaning har bir bo'lagi, rangi, soya yorug'ligida namoyon etiladi. Odam gavdasi uning soya va yorug' joylarini yaxlit qilib ham tus, ham rang jihatidan ishlab chiqishdan



boshlanib, hajmni ko'rsatishga yordam beruvchi unsurlar-yarimsoya va aks shu'lalarni belgilash bilan davom ettiriladi, bunda rang koloriti ham muvofiq tarzda ko'rsatiladi. Ayniqsa, gavdaning qorin va bel qismlari rang jihatidan juda murakkab, nozik tovlanishli tuslarga egaligi bilan ajralib turadi. Ularni «nyuans»lar yordamida ishlash mumkin. Bunda ham tus, ham rang o'zgarishlarining salgina farqi ham hisobga olinadi. Odam tanasi agar kiyim bilan tasvirlanayotgan bo'lsa, kiyim tana qismlari shakliga monand burmalar hosil qilib turishi hisobga olib ishlanadi. Aks holda uning tagidagi badan sezilmaydi va tana plastikasi buzilib ko'rindi. Buning uchun avvaldan matolarning qanday burmalanib turishi, natyurmortlar ishlash jarayonlarida ham yaxshi o'zlashtirib olingani qo'l keladi. Ilgarigi ma'ruzalarda biz odam boshi va yuzini qanday ishlash kerakligi ustida to'xtalgan edik. Gavda tasvirini bajarganda odamning bosh va yuz qismlari bo'yin va boshqa a'zolar bilan birgalikda, uzviylikda tasvirlanadi. SHu tomoniga alohida e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir. CHunki ularni plastik va qurilish jihatidan bog'lab ifoda etish ancha murakkab bo'lib, sa'y-harakatlar talab qiladigan mashg'ulotdir. Inson gavdasini rangtasvirini qay yo'sinda, qanday ko'rinishda ishlamang, unda albatta qo'l tasvirining o'rni kattadir. CHunki qo'l harakatlari, turish holati orqali gavda, inson tanasi vaziyatlari, harakatli holatlari yaqqol bo'rtib ko'rindi. Qo'l yaxshi aks ettirilsa tasvir e'tiborli va to'kis ko'rinish kasb etadi. Kiyimli portretda qo'l tasviri hatto insonning «ikkinchi yuzi» deb ham atalishi beziz emas. U orqali inson kayfiyati, uning ichki ruhiy kechinmalari ham bo'rttirib ko'rsatilishi mumkin. SHuning uchun qo'lga ikkinchi portret sifatida qarab, xuddi inson yuzini qanday e'tibor bilan ishlansa uni ham shunday diqqat bilan tasvirlamoq kerak. Odamning kiyimsiz, yalang'och gavdasi, badanini rangtasvirda aks ettirish ancha qiyin ish. Bu o'quv akademik vazifani bajarish tasvir ishlashning deyarli barcha yordamchi bosqichlarini o'tilgach amalga oshiriladi. Yalang'och tanani tasvirlashda uning tayyorgarlik bosqichi, ranglavhalar



chizish katta ahamiyatga ega. Chunki unda talabaning quyilmadan olgan ilk tasavvuri, taassurotlari mujassam bo‘lishi ma’lum. Ranglavhalar ham o‘z navbatida qalamtasvir, tezkor chizgilar amalga oshirilgach ishlanadi. Ular ko‘pincha kartonlarga ishlanishi mumkin. Bunday mashqlar paytida tasvir etilayotgan odam qiyofasidagi umumiylastirish plastik va rangga oid jihatlar, shu bilan birga yaxlitlik masalalari tezkorlikda hal etilib bajariladi. Ma’lumki ranglavha uncha ko‘p muddatda bajarilmaydi, eng ko‘pida bir, ba’zan esa ikki seans ishlanishi mumkin. Ana shunda odam qiyofasining asosiy rang-tusi, shakl xususiyatlari ishlab olinib ifodali aks ettirilishi talab qilinadi. Bunda qiyofachi tasvir tarxi yaxlit kurinishi, ortiqcha mayda qismlari ham umumlashtirib olinishi kerak. Shunday qilinganda uning fonga nisbatan tutgan o‘rni, kompozitsiya mezonlariga, o‘lchamlariga amal qilinishi engil ko‘chadi. Yalang‘och tanani tasvirlashda juda ko‘p ranglar majmuidan foydalanish shart emas. Ranglavha asosiy rang va tus munosabatlarini, shakl ko‘rinishidagi yaxlitlikni ifodalashi kifoya. Buning uchun har bir tana a’zosi umumlashtirib, soya-yorug‘ligi aniqlanib aks ettiriladi. Agar ranglar xuddi natyurmortdagidek bor rang-barangligi bilan qo‘llansa, tasvir bachkana, g‘ayritabiiy chiqib qolishi ehtimoli bor.

Ranglavhani tezkorlik va ilk taassurotlar yo‘qolmasdan ishlash kerak. Ana shunda u asliga ko‘proq ham rang, ham shakl jihatidan monand bo‘lib chiqadi. Yalang‘och gavdani belgacha, tizzagacha yoki butun tanani ko‘rsatib tasvirlash mumkin. Bu o‘quv-mashq vazifada qanday talablar qo‘yilganiga bog‘liq. Ular har xil fon bilan turlicha yorug‘lik sharoitida-ko‘p martalab ishlanishi kerak. SHunda malum ijobiy natijalarga erishiladi. Ilgarigi saxifalarda aytilganlardan ma’lumki, inter’erdagi odam qiyofasini, xoh u yalang‘och bo‘lsin, xoh kiyimda bo‘lsin tasvirlash qiyin jarayon hisoblanadi. Buning uchun ancha tayyorgarlik bosqichlarini avvalgi mashg‘ulotlarda nazariy va amaliy tomondan o‘tilgan zdi. Shu sababdan bu mavzuning ilgari aytib, qayd etib ulgurilmagan qirralariga to‘xtalish joiz. Ma’lumki, odam xona ichida, inter’erda bo‘lganda u va undan har xil masofada joylashgan narsalar yoki boshqa odamlarning qiyofasi muhit holatiga muvofiq o‘zgarib ko‘rinadi. Bunda tasvirni tasvir ob’ekti uzoq yoki yaqin

masofada joylashganligiga qarab planlarga ajratib aks ettirish yo‘li qulaydir. Bunday ish o‘quv qo‘yilmasida ikki kishidan iborat kompozitsiyaviy vazifani ishslash talab qilinganda amalga oshiriladi. Murakkab kompozitsiyali, mavzuli voqeaband qo‘yilmalarni tasvirlaganda xona ichidagi yorug‘lik qanday holatda ekanligi muhim rol o‘ynaydi. Chunki chizilayotgan paytda tasvir ob’ektining asosiy qismlari bo‘rttirib ko‘rsatilishi, asosiy narsalar yuzaga chiqarilishi, zarur emaslari esa xiraroq aks ettirilib uzoqlashtirilishi talab qilinadi. Shunday muhit holatlarini ko‘rsatish albatta rangtuslarni ustalik bilan ishlatishni, tajribani taqazo etadi. Ranglar majmuining o‘zaro uyg‘unlikda tiniq-yorqin yoki xira tuslari so‘niq tasvirlash orqali ham mavzu mohiyatini, mazmunini olib ko‘rsatish mumkin. Bu holda ranglar gammasiga, uning ma’nodorligiga alohida e’tibor qaratiladi va uning «kaliti» topib qo‘llanadi. Ma’lumki, intererda tashkil qilingan qo‘yilmani ishlaganda uning kompozitsiya markazini topib, o‘quv quyilma ifodaviyligini yanada yaxshi qilib ta’minalash mumkin. Bunda kompozitsiya markaziga urg‘u beruvchi rang va tus munosabatlariga murojaat etiladi. Ular bo‘rttirib tasvirlanadi. Xulosa qilib aytganda, tasviriy vositalar, imkoniyatlar juda ko‘p, faqat ularni o‘z o‘rnida ustalik Bilan qo‘llashni bilish kerak. Mahoratni, nazariy va amaliy bilimlarni oshirish uchun ko‘p mashq qilish, izlanish, mehnatdan qochmaslik kerak. SHunda ham o‘quv mashqlar, ham ijodiy ishlar sifati kafolatlanadi. Bugungi talaba ertaga nafaqat yaxshi mutaxassis rassom- pedagog, balki ijodkor musavvir bo‘lib etishar, bu esa uning intilishlariga, harakatiga bog‘liq. Muhimi, talaba o‘z o‘qituvchisi tomonidan qo‘yilgan har bir vazifani to‘liq va bekamu-ko‘st, vijdonan bajarishi lozim.


5-Mavzu: Libossiz odam qomati (murakkab hollaridagi tahlili) Libossiz erkak qomati tayanch nuqtalari bilan. (Keksa chayir kishi) Inson qomatining tayanch nuqtalarini aniqlangan holda tasvirlash.

Reja:

- 1. Odam gavdasining konstruktiv yechimini topish*
- 2. Odam qomatining rangtasvirida rang yaxlitligi va mayda shakl ifodasi*
- 3. Odam tanasidagi ranglarning uyg‘unligi*

Odam gavda rangtasvirini ishlashdan oldin. uning mukammal qalamtasviri. konstruktiv qurilishi umumiy, yaxlit shakl va mayda bo'laklar ifodasini puxta o'rgangan bo'lishi kerak. Shaklni mohirona topa bilish. nisbatlarni to'gri aniqlash. yaxlit va mayda detallarning anatomik va konstruktiv qurilmasini to'g'ri topish natijasida ko'zlangan natijaga erishish mumkin. Rangtasvir shaklning to'g'ri qurilishi tus va rang yechimining birligidadir. Kimki grizayl texnikasida odam tasvirini maromiga yetkazib bajara olsa, rangtasvirini ham muvaffaqqiyatlchi qishiga zamin yaratgan bo'ladi. Odam qomatining rangtasvirida uning hajmi, sirt, muhit sifatlari, rang yaxlitligi va mayda shakl ifodasini doimo solishtirib turish va fikr yuritib ishlash natijasida yaratiladi. Dastlabki rang qoplamadan boshlab, keyingi ishlovlargacha olib beruvchi shakl xarakterini ish yakunida qanday boiishini hisobga olib rejalashtirish kerak bo'ladi.

Yoritilishiga qarab rang yorqin, xira va och bo'lishi mumkin. Xuddi bosh rangtasviri kabi odam qomatining rangtasvirini ishlashda ham kompozitsiya ustida izlanib, bir necha ranglavhalar bajariladi. Eng chiroyli plastik yechim tanlanadi. Bu eskizlarda gavdaning kompozitsion-plastik yechimi, rang yechimi tanlanadi, o'lcham aniqlanadi. Model xarakterini ocha turib. rassom barcha psixologik nyuanslardan. xarakterli xususiyatlardan eng ifodaliliginı ajratib topishi zarur. Kiyimsiz gavda tasvirida tana rang xususiyatlarini uning atrof-muhit bilan bog'liqligini ifodalash kerak. Odam tana rangi o'zining tabiiy rangidan tashqari nozik ko'z bilan ilg'ash juda qiyin issiq-sovuq, och-to'q tuslanishlarga ham ega bo'ladi.



Odam tanasidagi ranglarning turlicha bo'lishi birinchi navbatda qon tomirlarining chuqur yuzada bo'lishi, tanadagi yog' qatlamiga, teri yuzasi xarakteriga bog'liq. Ko'krak, qorin yoki yelka rangidan son terisi rangi tizza yoki oyoq tovoni rangidan farq qiladi. Yuz, qol, bo'yin odatda tananing yopiq qismlardan to'qroq boladi. Tanadagi ranglar jilosi albatta reflekslarga ham bog'liq. Tananing yuqori qismiga shiftdan oyoq qismiga poldan reflekslar tushib turadi. Bundan tashqari, fon va kiyimlar ta'sirini ham sezish mumkin. Yuz, tana, kiyimlarda fondan qo'shimcha to'ldiruvchi ranglar bo'ladi. Yalang'och qomatni ishlash jarayoni to'g'risida professor O.E.Braz shunday degan: "Siz gavdaga yaxlit qarab ko'rishni o'rganing, busiz rangtasvir yozib bo'lmaydi. Yaxlit bolaklarni doimo solishtiring, bo'yin va tizza, qorin va oyoqlarga qarang, yaxlitlikda ranglar kuchini topping". Shunday bo'lishi mumkinki, talaba naturani alohida bolaklarga bo'lib ko'chiradi, natijada ish sifati buziladi. Ikki kishilik qo'yilmada gavdalarni birgalikda ishlang, alohida-alohida ishlashga yo'l qo'y mang. Sizga yaqin turgan



gavdaning tayanch nuqtasini topping, keyin masofani hisobga olgan holda ikkinchisini tasvirlang. Bir gavdani ikkinchisi bilan solishtirib guruh shaklida birgalikda yozish kerak (yaxlit narsa singari). Qaysi gavdaning asosiyligini (kattalikda va masofada) oldindan belgilab olish zarur. Gavda atrofidagi predmetlar rangi ishning rangtasvir yechimiga katta ta'sir etadi. Shuning uchun gavdani tasvirlab turib, albatta, atrofdagi predmetlar rangi bilan ham solishtirib turish shart. Albatta, bu ikkinchi darajali qo'shimcha detallarga asosiy obyekt bo'lgan odam gavdasidek ishlov berilmaydi.



...artists can also work meticulously to refine the subject and achieve very developed surfaces that suggest volume. ..rassomlar ishlash jarayonini puxta olib borishadi, negaki tasvir jozibali bo'lishiga va ishlanayotgan ishlanma rang-barangligiga erishish maqsadida, natijada hajmli jonli aks ettirishdir. Gavdani qo'shimcha nozik ranglar bilan boyitib borish kerak. Lekin ulaming jarangdorligini oshirib yuborish kerak emas. Boshlovchi rassomlar, odatda issiq va sovuq

ranglaning oddiy tarkibidan foydalanishadi. Murakkab issiq ranglarni qandaydir qizg'ish rang bilan sovuq ranglarni yashil, siyohrang yoki ko'k rang bilan olishadi. Bunday ranglar tana sirti ifodasini bera olmaydi. Tanada deyarli har doim kamida 2-3 ranglar birikmasini ishlatish kerak. Oxra, siena, kuydirilgan suyak rangi kabi bo'yoqlar tanadagi sovuq hamda issiq ranglarni chiroyli ifodalaydi. Ularning oq bilan aralashmasi turlicha issiq hamda sovuq ranglar tuslanishini kashf etadi. Politrada bo'yoq turi ko'p bo'lmasligi kerak. Chegaralangan ranglar bilan ko'p rang va tuslar topishga harakat qilish kerak. Ishning yakuniy qismi yaxlitlash, ya'ni mayda detallarning bir butunlikka bo'ysunishidir. Bu ishda asosiy bo'laklarning tus yechimiga e'tibor berish kerak. Agar ola-bula chiporlik yaxlitlikka xalaqit bersa, ularga ishlov berish kerak. Naturani yaxlit ko'rishga xalaqit berayotgan har bir bo'lakni o'z joyiga qo'yish kerak. Agar shunday qilmasak, qo'shimcha detallar asosiy obyektdan chalg'itib, diqqatni tortadi, yaxlitlikni buzadi. Agar rassom yaxlit ko'rishni o'rgangan bo'lsa, tasvirni oqilona bajaradi. Bu



bosqichda gavda siluetiga ham e'tibomi kuchaytirish darkor. Tasvirda juda nozik tus farqini saqlab qolish kerak. Siluetning ba'zi joylarini kuchaytirib (chiziq orqali) ba'zi joylarni fon bilan qo'shib yuborish kerak.

Qo'yilmada nimani bo'rttirib (chizib), nimani fonga yaqin tusda birlashtirib yuborishni hal etish zarur. Buni naturaga yaxlit qaraganda ajratib olish mumkin. Shundan so'ng, gavdaning to'g'ri konstruktiv qurilmasiga ega bo'lish mumkin. Nihoyat, portreti ishlanayotgan odamning ichki psixologiyasini ochishga ham urinib ko'rish mumkin. Bu narsaga detallarni yaxlitlab, asosiy xarakterli joylarini bo'rttirish bilan erishish mumkin. Shuning uchun tasviri chizilayotgan odamni uning o'zi uchun xarakterli bo'lgan muhitda, ish ustida tasvirlagan ma'qul.

Yuz ifodasi, qol va gavda xarakteri, rang - aynan shu odamni xarakterlashi o'ta muhimdir. Bu o'rganishlar, kuzatishlar portret kompozitsiyasi, plastik va kolorit yechimining asosiga poydevor bo'la oladi.

Bu mashg'ulotning asosiy metodika ahamiyati shundaki bosh va fondagi yirik tus munosabatlarini aniqlashga qaratilgan. Odatda talabalar fanni alohida yozishadi, buning natijasida ishni tus jihatdan qaralganda tasvirda yaxlitlikka erishib bo'lmaydi. Naturani ko'rko'rona ko'chirish ishni muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. Shuning uchun tasvirlashda to'g'ri yo'lni tanlash, metodik ketma-ketlikda ishni davom ettirish muhimdir. Bu kabi mashg'ulotlar tasviriy san'at sir-asrorlarini puxta o'rganishda muhim va zarur bosqichdir. Ma'lumki, inson qomatini to'liq chizish ustida ish olib borayotgan



mutaxassis rassom dastlab modelning siluetini fonga nisbatan topib, so‘ngra mayda detallarga ishlov beradi hamda refleks, yarim soya, soyalarni ko‘rsatadi. Shuning uchun tasvirlashda yirik tus munosabatlarini ko‘rish va to‘gri ifodalash hamda mayda detallarga o‘tish kerak. Grizayl ishlashda ko‘proq jigarrang, qora, ultramarin va oq boqyoqlardan foydalan gan ma’qul.

Libossiz yarim qomat old tarafdan yon tarafdan yoritilgan holatdagi ranglavhasini ishlash.

Bu mashg‘ulotda quyidagi maqsad ko‘zda tutiladi: Libossiz yarim qomatning yorug‘ va soya qismlaridagi tus munosabatlarini (fanning ham) hamda qomatning shaklini tusda tasvirlash. Bu mashqni bajarish uchun anatomik qurilmasi aniq model tanlanadi. U shunday qo‘yilishi kerakki, kuchli yorug‘-soya kontrasti vujudga kelsin. Qomatning yorug‘ va soya qism laridagi tus munosabati fon bilan birgalikda yaqqol ko‘rinishi kerak. Fon sifatida kulrang mato tanlanib, qomatning yorug‘ tarafidan, to`q, soya tarafidan esa och bo‘lib ko‘ringani ma’qul. Soya tomonda shakning aniqligiga erishish uchun yorug‘lik qaytaruvchi tekislikdan foydalanish mumkin. Aynan shunday sharoitda yuzning soya qismida anatomik aniq chiziqlarni ko‘rish mumkin. Bu mashqni bajarishda talabalar biroz qiyinchilikka uchraydi. Talabalar modelni yaxlit qabul qilishni o‘rganmay turib, mayda detallarga berilib ketishadi. Yirik shakl yo‘qotib qo‘yilgach naturani fonga bog‘lay olishmaydi. Naturani yaxlit qabul eta olmagan bu bosqichda talabadan maksimal diqqat e’tibor talab etiladi. Mashqlar jarayonida yuz ajinlari, ko‘z kipriklardan umumiy mayda detallardan ongli ravishda voz kechish kerak. Yirik tus, shakl munosabatlarini to‘g‘ri toppish portret rangtasvirini o‘zlashtirishga keng yo‘l ochib beradi. Talaba bu mashqlarni bajarish jarayonida boshning har bir bo‘lagini tusda bir-biridan farqini, yorug‘-soya xarakterini o‘rgana borishi kerak. Yuz bo‘laklari, ko‘z-olmasi, burunning old, yontomonlari, yonoqqa ishlov beraytganda katta shaklni hisobga olgan holda, juda maydalashtirib yubormasdan ishlash zarur. To pshiriqni muvaffaqiyatli chiqishiga qo‘yilmani to‘g‘ri yaxlit ko‘rishga erishish bilan yetishish mumkin. Bosh shakliga ishlov berish soya qism

idan boshlanadi. Soya yaxlit, katta shaklni ajratib, tus munosabatida kamerton vazifasini ham o'taydi. Soyadan keyin fon yechimi hal etiladi.

Talabalar ko'pincha fonga unchalik e'tibor berish maydi. Boshni ishlab bo'lishgach, fanni bo'yab qo'ya qolishadi. Natijada yirik shakllar, shuningdek bosh bo'laklari munosabatida xatolikka yo'l qo'yiladi. Boshning soya va fon munosabatlari topilgach yoritilgan qismi ishlana boshlanadi.

Tasvirlashning bu bosqichida boshning kontur chizig'i fonda qanday xarakterda bo'lishiga ko'proq e'tibor berish talab etiladi. Odatda talabalar boshnin yoritilgan qismi fonini to'qroq, soya qismini ochroq olishga xarakat qilishadi. Model kontrast yoritilgan bo'lmasa, boshning yorug' qismi kon turi fonga nisbatan bir oz to'qroq bo'ladi, shuning dek soya qismi fonga nisbatan reflekslar yordamida yorug' chiziqqa ega bo'ladi. Boshning shunday yoritilishi refleks chiziq konturi yordamida fondan ajratib olishga yordam beradi. Boshnng soya qismi fonga nisbatan belgilab olingach, uning konstruksiyasi, xarakteriga e'tiborni kuchaytirib kata shaklni aniqlashga o'tiladi.

Shaklni bir qancha tekisliklardan tashkil topgan hajm deb tushunish kerak. Mana shu har bir mayda tekislik o'z tusiga ega. Hajmlli shaklni ifodalash uchun tekisliklar chegarasini silliqlash shart emas. Har bir tekislikni bo'laklarga bo'lib ishlov berish maqsadga muvofiqdir. Yuz bo'laklari-ko'z, burun, lab va hokazolar dastlab yirik tekisliklarda yaxlit shaklda tasvirlanib, so'ngra tus munosabatlari hal etiladi. Bu mashqni bajarishda peshona , burun kabi yuzbo'laklarning tus xarakteristikasiga e'tibor kuchaytiriladi.



Tirik inson modeli (yalang'och inson qiyofasijni chizish) mashg'ulotlarini tashkil etish va undagi rasm chizish ketma-ketligi gipsdan ishlangan model tasvirini ishlash jarayoni bilan deyarli bir xil. Model taglik ustida taxminan 40 sm balandlikda erkin holatda, rassomga qarab, bir oyog'iga tiralib - ushbu holatda chap oyog'iga tirahb turishi kerak.

Model holati Gudonning «Ekorshe»sini eslatadi. Bukilgan chap qo'l tana qismining orqa tarafida bo'lib, o'ng qo'l erkin holatda pastga osilib turibdi. Bu yerda chap oyoq og'irlik markazidir. o'ng oyoq esa, chap oyoqqa nisbatan biroz oldimroqda joylashgan va erkin holatda turibdi. Modelga yuqori-yon tarafdan kuchsiz yorug'lik tushishi kerak. Anatomik tuzilish bo'yicha to'liq tasawur hosil qilish uchun, modeldan uzoqroq masofada odam skeleti yoki Gudonning «Ekorshe»sini joylashtirish tavsiya etiladi. Bundan asosiy maqsad, oldingi vazifada olingan bilim va malakalami tirik odam rasmini chizishda taqqoslab, nisbatlar hamda muskullar tizimini yanada aniqroq tasawur etishdan iboratdir. O'quvchilar bir-birlaridan eng kamida model bo'yiga bir barobar keladigan masofada, naturadan esa, eng kamida qomatning uch barobari darajasidagi masofada joylashishlari kerak. Bunday masofa ularga modelni boshdan oyog'igacha perspektiv o'zgarishlarda ko'rish imkonini beradi. Rassom tasviring joylashish o'rni



va o'lchamlarini - rasm kompozitsiyasini belgilaydi. Model pozasi va harakatidan kelib chiqqan holda modelning umumiy holati va model massasi qalam bilan yengil chizib chiqiladi. Turgan holatdagi model rasmini chizishni dastlab old tarafdan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday holatda rasm chizish tamoyillarini ochib berish ancha oson kechadi. Oyoq osti va ular orasidagi masofa turgan modelning tayanch maydoni hisoblanadi. Og'irlik markazidan o'tuvchi tik chiziq tayanch maydonidan o'tganda ham model muvozanat holatida tik turgan, deb hisoblanadi. Bundan shuni anglashimiz mumkinki, odam oyoqlari orasini kengroq ochsa, tayanch maydoni kattalashadi va mustahkam muvozanatga ega bo'ladi. Bir oyoqqa tiralib turganda, model holati og'irlik markazi bo'y lab tushirilgan tik tayanch oyoqning tovon qismidan yoki uning yonidan o'tadi. Yalang'och odam tasviri chizilganda model holati ana shunday bo'lishi lozim. Rasm chizishning dastlabki bosqichida harakat holati va asosiy nisbatlami ko'rsatgan holda butun modelni umumiy ko'rinishini yordamchi chiziqlarda tasvirlash muhimdir. Tasviriy san'at qonun va qoidalardan bizga malumki, tabiatdagi barcha shakllar geometric sirtlarga o'xshash shakllar tarkibiga asoslanadi. Shuning uchun ham ushbu holatga misol tariqasida Dyurer tomonidan geometrik shakllarga asoslanib ishlangan rasmni keltirishimiz mumkin. Bu yerda model harakati yaqqol ko'zga



tashlanadi. Yelka kamari tosga nisbatan deyarh to‘g‘ri burchak bo‘yicha burilgan, bosh orqaga qayrilgan. Yanada oydinlik kiritish maqsadida A. Dyurer ko‘krak qafasini geometrik shakl asosida, perspektiv o‘zgarishlami ko‘rsatib, sxematik tarzda tasvirlagan. Og‘irlik markazidan podium yuzasidagi kesishish nuqtasigacha tik chiziq chiziladi. Ushbu nuqtaga asoslanib, ikki tovonning o‘zaro joylashuvini izlash kerak. Har bir oyoq turgan joy tovon uzunligi darajasida belgilanadi. Katta oshiq (sonning tos bilan birlashgan qismi)dan pastga, oyoq joylashadigan joy markazi tomon tana tiralgan oyoqning umumiyo yo‘nalishini ko‘rsatuvchi to‘g‘ri chiziq chiziladi; ikkinchi sonning katta oshig‘idan erkin turgan oyoqning awal tizzagacha bo‘lgan qismi, keyin esa, tovon markazigacha bo‘lgan qismi chiziq bilan belgilanadi. Og‘irlik markazidan o‘tuvchi va rasmida belgilangan boshning yuqori qismigacha davom etuvchi tik chiziqning umumiyo uzunligi model balandligini tashkil etadi. Tos erkin holatda turganida, og‘irlik markazidan tushirilgan vertikal yarim chuqurchasidan o‘tadi. Hosil bo‘lgan umumiyo tik chiziqqa tananing quyidagi alohida qismlari chegaralarini ko‘rsatuvchi belgilar chiziladi: oyoq, ko‘krak va bosh o‘lchamini ko‘rsatuvchi belgilar. Bu yerda boshning o‘rta chizig‘i mo‘ljal qilib olinadi va bosh holati oval shakl bilan belgilanadi; shu usul bilan boshning burilish darajasi va harakati aniqlanadi. Ishning bu bosqichida rasmning obrazli xarakteriga ta’sir qiluvchi modelning yuqori, o‘rta, pastki qismi nisbatlariga to‘xtalib, pedagog rassomlarga baland, o‘rta va past bo‘yli odamlarda boshning butun tana uzunligiga nisbati qanday bo‘lishini, shuningdek, erkak, ayol va yosh bola qomatlari nisbatlari o‘rtasidagi farqlami tushuntirib berishi kerak. Bosh balandligi va yarim chuqurchasining joylashuvi butun model balandligiga nisbatan belgilangandan so‘ng, yengil chiziqlar bilan o‘mrov suyaklari yo‘nalishi chiziladi. So‘ngra modelning yarim chuqurchasidan to‘sh suyagini xanjarsimon o‘sig‘i, undan kindik va



rasmagi asosiy o‘zgarmas nuqtalardan biri bo‘lgan tos suyagining boshlang‘ich qismi - yonbosh suyak tomon cho‘zilgan shartli o‘rta chiziq aniqlanadi. Rasmga ko‘krak so‘rg‘ichlaridan o‘tuvchi gorizontal chiziq chiziladi; keyin tos suyaklarining qirralaridan chiziq o‘tkaziladi va shu yo‘l bilan tosning gorizontal chiziqqa nisbatan qiyalik darajasi aniqlanadi. Ikki oyoqqa tiralib turgan model holatida tos gorizontal holatda bo‘ladi. Tananing barcha og‘irligini bir oyoqqa o‘tkazilganida, tos og‘irlik tushmagan oyoq tomonga egiladi. Tosning yuqori qismi chizig‘i yonbosh suyakning ko‘rinib turgan qirralariga asoslanib belgilanadi.

Keyin ikki son suyagi boshchalari o‘rtasidagi chiziq belgilanadi. Tana og‘irligini ko‘rsatib turgan sonning tos bilan birlashgan boshchasi aniq ko‘rinib turadi; ikkinchi oyoqning son boshchasining joylashish o‘rni o‘zgarganligi tufayli, uning o‘rnida chuqurcha hosil bo‘ladi. Ikki son boshchalari o‘rtasidagi chiziqqa parallel ravishda, rasmda shtrixlab qo‘yilgan tosning yuqori qismidan o‘tuvchi, chiziq belgilanadi. Tos chizig‘iga parallel ravishda ikki oyoqning tizza qopqoqlaridan o‘tuvchi chiziq chiziladi (son boshchasi va to ‘piq o‘rtasida). Bunday usulda chizilgan belgilar tik chiziq bo‘yicha model nisbatlarini aniqlashga yordam beradi. Modelning asosiy qismlari kengligi - tosdan tovongacha va tosdan boshning yuqori chegarasigacha bo‘lgan qismi shtrixlar yordamida oydinlashtiriladi. Ikki oyoqning yon tomonlari va tos, tors, yelka, qo‘1, bo‘yin va bosh ham shtrixlar bilan chizib chiqiladi. Ishning keyingi bosqichida o‘chirg‘ich bilan yordamchi chiziqlar va tasvirlangan model ichidagi barcha belgilangan yordamchi chiziqlar o‘chiriladi, shundan so‘ng tasvirning olchami va chegaralari natura bilan yana bir bor solishtiriladi. Buning uchun dastlab tasvir hajmini ko‘rsatib beruvchi asosiy soya va tus munosabatlari rasmda aks ettirilib, natijada nisbatlami to‘g‘rilash va konturlarga shtrix bilan aniqhk kiritish imkonи paydo botadi. Bunda modelning tos va boshdan boshlab, oyoq va qo‘lgacha bo‘lgan qismlari ustida ish olib boriladi. Oyoq-qo‘lning - yelka, tirsak, tizzalaming bukilgan joylariga shtrixlar yordamida yorug‘-soya yordamida tus beriladi.

Qo‘1 kaftlari va tovonlar birgalikda ishlanadi, model tasviri shtrixlar bilan ishlanadi va shakl hajmi yorug‘lik-soya munosabatlari asosida ko‘rsatiladi. O‘quv

mashqni bajarish davomida qalamni botirib chizish mumkin emas, chunki xatolarni tuzatishda rasm qorayib ketadi va tasvir yaxhthgi buziladi.



NAZORAT SAVOLLARI

- 1. Tayanch nuqtasi va muvozanat to‘g‘risida so‘zlab bering.**
- 2. Odamning harakat holatini izohlang.**
- 3. Inson skeleti to‘g‘risida madumot bering. Uning tasvirini uslubiy bosqichlarda chizish usullarini so‘zlab, amaliy ko‘rsating.**
- 4. Qalamchizgi va xomaki rasm nima? Ular to‘g‘risida madumot bering.**
- 5. «Shaklning konstruktiv asosi», deganda nimani tushunasiz?**
- 6. Odamning plastik anatomiysi, deganda nimani tushunasiz?**
- 7. Psixologik portret nima? Mimika muskullari to‘g‘risida madumot bering?**
- 8. Inson qomatini tasvirlashda analiz va sintez yodi bilan tasvir bajarish, deganda nimani tushunasiz?**
- 9. Pedagogik rasmning oddiy rasmdan farqi nimada?**
- 10. Buyumda yorugdikning taqsimlanish qonuniyatlarini bayon eting.**

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. Boymetov. Qalamtasvir 1-qism. T. 2007.
2. B.Tojiboyev. N.Isoxo`jayeva Qalamtasvir, Rangtasvir va kopozirsiya asoslari. T.2011.
3. N.A.Dmitriyev. Kratkaya istoriya iskusstv. M.: 1985 g.
4. Gruppa avtorov.Vse obshaya istoriya iskusstv. M.:1956 g
5. Abdirasilov.S, Tolipov N. “Dastgohli Rangtasvir” Iqtisod moliya. T., 2008.
6. Abdirasilov.S, Tolipov N. “Rangtasvir” Bilim. O’MKHTM T., 2005
7. B.Tojiev, N. Isahojayeva. “Qalamtasvir, rangtasvir va kompozisiya” “SHARQ” NMAK. T., 2011
8. Abdirasilov.S., Tolipov N. N.Oripova. “Rangtasvir” TDPU rizografida 2003
9. G.V.Beda. Jivopis’. Moskva. "Prosvextsenie". 1986. (26-39 betlar)
10. Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N. Rangtasvir. T., 2006.
- 11.Nurtoev.O’ “Rangshunoslik asoslari” o’quv qo’llanma “Ilm ziyo” T., 2008
- 12.Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N. Rangtasvir (1-qism). T.: 2002.
- 13.Abduraqmonov G.M. Rangtasvir va kompozitsiya. – Toshkent, 1995.
- 14.Nabiev M. «Rangshunoslik». Toshkent; O’qituvchi, 1995.

6-Mavzu: Yarim qomatli portret qo'llari bilan (Yosh ayol kishi). Inson qomati harakat holatlarini kuzatish va tasvirlash.

Reja:

- 1. Portret qo'llari bilan postanovkasi rangtasvida bajarish***
- 2. Odam boshini yelkasi bilan ishlash***
- 3. Xomaki ranglavxa***

Yuqori kursda vazifani bajarishda tasvirlanuvchini o'xshashligi va ruhiy xarakteristikasini ko'rsatish talablari qo'yiladi. Bu vazifani amalga oshirishda naturachini tanlanganligiga bog'liq bo'ladi. Naturani tanlashda uning, o'ziga xosligi, xarakterstikasi, yuz detallarining aniqligi va qo'llarining plastikasi qiziqarli bo'lishi zarur. Postanovkani qo'yishda yorug'lik tushishini shunday qo'yish kerakki, uning o'ziga xos tomonlarini; qomat holati, qo'l va bosh shakplari aniq ajratilib ko'rsatilishi maqsadga muvofiq. Postanovkani qo'yishda naturachining tabiiy holatini aniqlab. uning o'zi odatdagi holatidan foydalanib ko'yishga harakat qilish kerak. Qiziqarli va yaxshi qo'yilgan postanovka talabalar tomonidan ixlos bilan ishlanib, vazifani bajarishda yaxshi natijaga erishishini ta'minlaydi. Naturachining libosi bosh va qo'lni ishlashda chalgitmasligi, qomat shakllarini yaxshi ko'rinishini ta'minlashi kerak.

Portretning fonida xalaqit beruvchi narsalar bo'lmasligi qomatning holat siluetini yaxshi ko'rinishini ta'minlashi va asosiy qomatdan chalgitmasligi zarur. Agar portretchi qomati och tusdagi fonda bo'lsa, uning siluet xarakteriga katta e'tibor berish vazifaning muvoffaqiyatini ta'minlashda muhim vositalardan biridir. Uning yuzini uzoqtsan ko'raolmasakda, siluet xarakteridan tanish bo'lgan kishini tanishimiz mumkin. Talaba vazifani bajarishga kirishishdan oldin naturadan qoralama ishlab o'rganishida qomatning umumiy xarakterini chizmatasvir kompozitsiyasini qurishida yordam beradi. Rangtasvir ish boshidan pastanofkani bosh, qo'l qurilishini va shakl berishga





diqqat qaratilib, naturachining xarakterli detallariga aktsent beriladi. Katta rassomlar portret asarlarini sinchiklab o'rganish mumkin. Golbeyn portretlarida esa; birida katta ko'zlar, ikkinchisida keng va og'ir pastki jaglar, uchunchisida o'tkir uzun burunli insonlarni ko'ramiz. Rassom insonni tasvirlar ekai, umumiylar shakllar orasida xarakterli, o'ziga kos detallarni topa olgan. - Portret ishslashda muqim qismlarini ajratib har xil darajada tasvirlash muhim rol o'yinaydi. Masalan, Chistyakov portretida boshni ishslash haqida shunday deydi. - «Ko'z va

ko'z qorachig'ini diqqat bilan aniq, tirikday jonli ishlang. Burun va lablarni ham puxta ishlang, qolganlarini biroz yumshoqroq ishlang». Buni «Qo'lli portret»ga tatbiq qilib, bosh qismiga va qo'lni aniq ishslash lozim, libosni esa erkinroq ishslash mumkin. Portretda qo'l barmoqlari muhim ahamiyatga ega. Ular ham bosh kabi katta ahamiyatga ega bo'lib, betakror individual xarakterlidir. Qo'l orqali yoshini, kasbini va xarakterini ochib beriladi. Inson xarakterini jozibali ochib berishda qo'l harakati va holatiga bogliq. V.Serov, A.Abdullaev, R.Axmedov portretlari talabalar uchun o'z kurs vazifasini bajarishiga misol bo'laoladi.

Xomaki ranglavxa

Har bir rassom ijodida xomaki nusxa muhim ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun chizmatasvir bo'yicha dastur uzok mudtsatli postanovkalarning yetakchi ahamiyatini ta'kidlab, shu paytning o'zida xomaki nusxaga jiddiy e'tibor berishni xam talab qiladi. Rassom ijodida xomaki nusxaning qo'llanilishi turli xilda ko'rindi. O'quv xususiyatidagi xomaki nusxdan tortib yuqori badiiy ahamiyatga ega bo'lgan ijodiy xomaki nusxalargacha bo'lgan tasvirlar ma'lum. Ba'zan xomaki nusxa oliy darajadagi chizmatasvir namunasi bo'lib qolishi xam mumkin. Badiiy ta'lim muassasalarida xomaki nusxa bilan shug'ullaniladi, negaki bu yumushni rangtasvirchi, grafikachi, haykaltarosh, arxitektor va bezakchi kabi soxa vakillari xam bilishlari lozim. Dastur ko'rsatmasiga binoan xomaki nusxa ustida ishslash

guruh rahbari kuzatuvchi ostida ustaxonada va mashg'ulotlardan bo'sh paytda mustaqil ravishda ikki yo'nalshtsda olib borilishi zarur. Talabada kuchli kuzatuvchanlik xislatini, andozani plastik xususiyati, mutanosibligi va harakatini tez ilg'ab olish jihatini o'stirish, xomaki nusxa mashqlarining asosiy maqsadi hisoblanadi. Xomaki nusxa talabada ko'zchamaning o'tkirligi va aniqligi, qo'l texnikasi va ko'rish orqali yodda saqlab qolish jihatlarini o'stiradi. Ustaxonada ishlanadigan xomaki nusxalar uchun ham libosli, xam libossiz andozalar xizmat kilishi mumkin. Postanovkalar xususiyati statik va soddadan va murakkabgacha o'zgarishi mumkin. Kuchli kuzatuvchanlikni o'stirish uchun harakatlanuvchi andoza kiritiladi. Ko'rish orqali yodda saklash xususiyatini o'stirish uchun andoza fakat bir minutdan uch minutgacha ko'rsatiladi. Tabiiy harakatlarni ko'rish ma'qulroqdir. Talabalarda noma'qul ta'b uyg'otuvchi va vokelik xaqida noto'g'ri tasavvur beruvchi sun'iy xolatlardan qochish kerak. Xomaki nusxalar uchun postanovkalar mudtsati berilgan topshiriqning murakkabligiga qarab belgilanadi va o'n besh minutdan ikki soatga kadar bo'lishi mumkin. Eng muhimi har bir postanovka o'z vazifasiga ko'ra maqsadga yo'naltirilgan va anik bo'lishi lozim. Xomaki nusxalar bo'yicha mashg'ulotlar rejasi o'qituvchi tomonidan avvaldan tayyorlab qo'yiladi. Reja tuzganda talabaning ixtisosligi va uning tayyorgarlik darajasini xisobga olish zarur. Kursdan kursga topshiriq o'zgarib borishi zarur. Xomaki nusxalar o'qituvchi tomonidan katta ijodkorlikni va e'tiborni talab qiluvchi jonli yumush hisoblanadi. Agar guruxda chizmatasvir yomon ko'rileyotgan bo'lsa, xomaki nusxani qurilma bo'yicha rejalashtirish zarur. U yoki bu talabaga alohida vazifa xam berilishi mumkin. Har bir talabaga alohida yondashuv chizmatasvirni egallashdagi xatolarni o'z vaqtida to'zatish imkonini beradi. Xomaki nusxani boshlashdan avval bir necha vakt naturani o'rganish lozim. Ishda nimani tasvirlash zarurligini aniq idrok etib




olib borish keraq Xomaki nusxaning keyingi boskichi harakat, mutanosiblik va xususiyatni belgilash bilan bog'liq. Andozaning turli xislatlarini bordaniga ilg'ab olish uchun diqqat-e'tiborni, idrok etish tezligini. ko'z chamalash va qo'l harakatini kuchaytirish talab etiladi. Bu sifatlarni talabada xomaki nusxa ustida doimiy ishlash orqaligina vujudga keltirish mumkin. U yoki bu talaba xomaki nusxani boshlash asnosida qalamni darhol bosib, ogir uchmas chiziqlar tortayotganligini ko'llab kuzatish mumkin. U chizgan qomat muhitdan qirqib olingandeq qog'oz sirtiga yelimlangan applikatsiyadek tuyuladi. Xomaki nusxa bilinar - bilinmas yengil chiziklar orkali bajarilishi va faqat harakat xamda shakl talab qilgandagina turli kalinlik va tue berib uni kuchaytirish lozim bo'ladi. Umuman, xomaki nusxa birdan boshlanishi lozim, bu bilan u uzoq muddatli chizmatasvirdan farq qiladi. Ko'yilgan vazifa hal etilgandagina xomaki nusxa tugallangan xisoblanadi. Qo'yilgan vazifaga ko'ra chizmatasvir ashyosi tanlab olinadi. Pero, tush, qalam aniqlikni talab qiladi va har bir chiziq uchun javobgarlik hissini uyg'otadi. Sangina, ko'mir, sous, akvarelъ kabi ashyolar rangtasvir soxasidagi xomaki nusxalar chizishga ma'qul. Bunday har bir ashyoning o'rganilishi lozim bo'lgan o'z imkoniyatlari bor. Talaba qog'oz sifatini aniqlashga o'rganishi va unga tegishli chizgich ashyosnni tanlashi zarur bo'ladi. Talabada ashyolarga nisbatan mutaxassislarcha munosabatda bo'lishni o'stirish keraq to'g'ri kelgan qog'oz bo'lagiga xomaki nusxa chizmasligi, uning xajmi va sifati belgilangan topshiriqqa mos kelishi zarur. Agar ustaxonada bajarilgan xomaki nusxalar orqali tez ishlash mahorati, qobiliyati xosil bo'lsa, uy sharoitida bajarilgan xomaki nusxalar bilan talabaning



ashyoga munosabati, ko'ra olish qobiliyati vujudga keladi, u rassom sifatida shakllanadi. Bu sifatlar lahzalik tasvirlar uchun ob'ekt tanlashda, uni kalban idrok etishda ko'rindi. Bu yerda hech kim namuna sifatida o'tirmaydi, barcha tabiiy ko'rinishda bo'ladi.

Darsdan tashqari bajarilgan barcha xomaki nusxalarni doim ko'llash zarur, negaki aynan shu yerda talabaning kelajakdagi ijodiy ishlari uchun zarur bo'ladigan hayotiy kuzatishlar zahirasi to'planadi. Ilmiy bilim xususiyatiga ega bo'lgan xomaki nusxalar, inson tanasining anatomik jixatlaridan olingan xomaki chizmalar ana shu kurilmalar jumlasidandir. Fakat doimiy va uzlucksiz mashq qilish bilangina tez xomaki nusxa chizish mahoratini o'stirish mumkin. Xomaki nusxa uzoq tanaffus bilan, ba'zi - ba'zida chizib turish kutilgan natijani bermaydi. Rus rassomlari I.Repin, N.Serov kabilar doimiy xomaki nusxa ustida ishlaganlar va shuning uchun xam mahoratli rassom bo'lib yetishganlar.

Rang tasvirda portret ishlashda bosh chizmasini ishlash umumiylar qonunlar bilan tanishib, anatomiya bosh suyagini uch xil ko'rinishda tasvirlashni amalda bajarib o'rganiladi. Yuz mushaklari va qismlarini tirik odam boshida ishlash bosqichlari gipsli haykallardan chizmatasvir ishlash bilan bir xildir. Bosh chizmatasvirini ishlashdan oldin uni kompozitsiyasini qog'oz yuzasida izlash kerak. Kontur chiziqlari yordamida boshning burilish holatlarini, bosh o'lchamlari nisbatlarini aniqlanadi. Keyin yordamchi chiziqlar o'tkazib bosh qismi tuzulishini belgilab chiqiladi. O'q chiziq yordamida burun asosi, lab va jagning pastki qismi aniqlanadi. Profil chizigi orqali boshning




burulishi, egilishi va gorizont chizigiga nisbatan holati belgilanadi. Undan keyin boshning hamma tekisligi (yuz, yonoq, peshona usti) va perspektiv qisqarishlarini aniqlab, diqqat bilan peshona do'ngligi, ko'z chuqurchasi, burun old va yon tekisligi, burun qanotchalari, yanoq suyaklari va pastki jag' gekisliklari aniqlanib joylashtiriladi. Yuzning hajm, xarakter va nisbatlarini aniqlab, yengil shtrixlar yoodamida nur - soya belgilanadi. Boshni hamma tomonidan kuzatib uning yuz xarakteri ishlanadi. Undan keyin nur - soya, reflekslarni aniqlab tuslari kuchaytiriladi, ortiqcha chiziqlar olib tashlanadi va umumiy holatga bo'ysundiriladi. Chizmatasvir ishlash jarayonida talaba diqqatini boshning nisbat(proportsiyalar)ga, kompozitsiya va xarakterga qaratiladi. Talaba naturani xar xil burilishi holatida kuzatishni, bosh tekisliklarini muhitdagi holatini, qismlarini o'zaro bogliqligini, uygunligini, yuz muskullarini nur - soya va tus, qismlarini plastik yechimini, umumiy holatga bo'ysudirishni bilishi kerak. Unda induviduallik xarakteri shakl va nisbatlar aniqligida, jozibali ishlov berish bilan tusda bajarilgan. Ammo qismlarga ishlov berishda yetarli aniqlik va chuqr saralashda xatolikka yo'l qo'yilgan bo'lib chizmatasvirni badiiylik jozibasini kamaytirgan.

Bosh qismlari yetarli darajada ishlangan. Rangtasvir ijobiy sifatga ega bo'lib, ashayoviyligi, aniq qurilishi, obrazni ochib berilishi, muhit va havoiy perspektiva holatini ko'rsata olgan. Bu chizmatasvirlarda bajarilish uslublari, dastxati, vazifalar talabalar tomonidan bajarilishi dasturga muvofikdir va badiiy realizm maktabi talabiga mosdir.


Odam boshini yelkasi bilan ishslash.

Talaba birinchi kursda bosh chizmatasvirining umumiy konuniyatlarini bilan, bosh suyagi, yuz mushaklari va a'zolari anatomiyasi bilan tanishib olgach, boshni turli tomondan va rakurslarda tasvirlashni amaliy egallab, jonli boshni tasvirlashga kirishadi. Jonli (natura) bosh ustida ishslash bosqichlari gipsli bosh ustida ishslash bosqichlari kabi davom etadi. Qogoz yuzasiga kompozitsion joylash asosida, boshni chizish boshlanadi. Boshning kattaligi, uning joylashuv o'rnini yengil chiziqlar bilan belgilab olgach, talaba o'lchamlar mutanosibligini aniqlaydi.


So'ngra yuz qismlari tuzilishini belgilovchi yordamchi chiziqlar o'tkazadi. Yuz qismdagi o'rta chiziqda burun asosi, ogiz chukurchasi va jag kabilar belgilanadi. To'gri chizik boshni kaysi holatda chizilishini, ko'z chukurchalari ustidan o'tkazilgan chiziq boshning egilganlik darajasini va uning yotiqlik gorizontal chiziqda nisbatan holatini belgilaydi. So'ngra boshning barcha qismlarini (yuz, yon, engak va boshqalarini) topish zarur bo'ladi va ularning turli egilganlik holatidagi masofada qisqarishi qat'iy belgilab olinadi. Bosh hajmini aniq ko'rsatish uchun, eng avvalo, peshona suyagi va uning dungliklari, ya'ni qosh yoyi, ko'z chukurchalari kabilarning yuzasini diqqat bilan chikarish zarur bo'ladi; so'ngra burunning old va yon yuzasi, burun parraklari, turtib chikib turadigan yonok suyaklari va pastki jag belgilanadi. Yuzning hajmi, xususiyati va muvofiqligini belgilab olgach, yengil chizik bilan yorug - soyalar beriladi. So'ngra yuz xususiyatini anglab olish uchun turli tomondan tuzilmaga mosligi aniklanib har bir kismga ishlov beriladi xamda asta shakl hosil kilinadi. Shundan keyin yorug - soya, reflekslar aniqroq chiqarilaveradi, tus kuchaytiriladi, ortiqcha qismlar olib tashlanadi, ularning barchasi tasvirni yaxlitlikka bo'ysundiradi. Rangtasvir ustida ishlash chog'ida talaba e'tibori tuzilma mutanosibligi, kompozitsiyasi vaxislatigaqaratiladi. Talabani bosh tuzilmasining turli holatlarini kuzatishga o'rgatiladi va hamisha boshning fazodagi holati, bosh suyagi va yuz mushagi, yuzning turli o'zgarish paytida qismlarning o'zaro aloqasi, yoruglik tus va tus qismlariga plastik ishlov berish, ularning




yaxlitliylikka bo'yusundirilishini xamisha eslab kolish zarur. Ko'rsatiladigan chizmatasvir qatiy va ishonchli tuzilmaga juda mos keladi. Unda shaklning shaxsiy xususiyatini chuqur tushunish va mutanosiblikning aniqligi, shaklning tus bilan aniq va ma'nodor andozaligini yaqqol ko'rinish turibdi. Ammo yoritilgan qismlariga ishlov berishda hafsala va chuqur tanlov yetishmaydi, bu chizmatasvirning ifodaliligin susaytiradi. Boshqa chizmatasvir ham portreti ishlanayotgan shaxe xislatlarining o'tkir talqini bilan ajralib turadi. Qariyaning jag'i ifodali, yaxshi joylashtirilgan, makonda jonli shakl xissi saqlangan. Ushbu andoza uchun tus to'xtamining gradatsiyalari muvaffaqiyatli xal etilgan. Bosh yetarli darajada qismlar ishlovi bilan boyitilgan. Rangtasvir moddiy do'nglik aniq qurilganlik inson obraziga chuqur kirishganlik makon va fazoviylikni his qilinishi kabi bir qator ijobiy hislatlarga ega. Ammo bu chizmatasvirda ham boshning suyak qismi yuzasi yetarli darajada aniq emas va shaklning bir qadar xomligi sezilib puradi. Turli usullarda chizilgan bu barcha chizmatas virlarda talabalarning dasturga ko'ra qo'yilgan vazifalarini diqqat bilan bajarishga intilish seziladi. Agar chizmatasvirdagi ayrim yetishmovchiliklar olib tashlansa, ular shubhasiz oliy mакtab talablariga javob beradi. Jonli andozadan uzok muddatli surat chizish, yoddan xomaki nusxalar va lahzalik chizgilar bajarish bilan bir qatorda anatomiyadan qat'iy bilimlarni talab kiladigan va eng muhim naturadan chizish chogida ulardan omilkorlik bilan amalda ko'llay oladigan ko'nikmalarni hosil kiladigan, yoddan mustaqil raem ishslashda bu bilimlarni erkin qo'llashni talab etadigan anatomik chizmatasvir bo'lajak rassom faoliyatida muhim o'rin tutadi. Anatomik chizmatasvir talabalarga chuqur bilim berish xususiyatiga ega bo'lishi lozim. Shu maqsadga frantsuz haykaltaroshi Gudon tarafidan yaratilgan inson anatomik kallasi haykali qo'yilishi mumkin. Ularni shunday quyish va yoritish kerakki, bunda boshning muskullar



tizimi aniq ko'rinib tursin, talaba undan ko'proq bilim olein, muskul qurilmasi hamda kalla shaklini turli xolatlarda va jaglar biron narsa chaynayotgandagi vaziyati, suyaklar birikuvi kabilarni yaxshi o'rgansin. Bunda boshni old, yon, yarim burilishi kabi turli holatlarini tasvirlash tavsiya etiladi. rangtasvirlar miqdori har bir alohida talaba uchun zarur bo'lgan darajada belgilanadi. Talaba navbatma - navbat kalla suyagi detallarini yaxshi o'zlashtirib, boshqa detallarni o'rganishga asta sekin o'taboshlaydi. Ba'zida boshning anatomik tartibini o'rganishga ko'proq vaqt talab qilinadi, shunga ko'ra talaba ko'plab chizgilarni bajarishi zarur bo'ladi. Talaba chizayotgan chizmatasviri hajmi boshning tabiiy xajmidan oshmasligi (boshning jonli andozasi hajmi nazarda tutiladi) kerak. Har bir chizmatasvirga taxminan ikki – to'rt soat ajratiladi. Rangtasvirda asosan naturani qalam bilan chiziladi, lekin pero, sangina, ko'mir kabi boshqa ashylardan ham foydalanish mumkin. Ko'rgan narsalarini xotiraga olish kobiliyatini rivojlantirish va mustahkamlash maqsadida naturadan chizmatasvirni tugatgach aynan o'sha andozani mukobil harakatlar bilan tasvirlanadigan xotiradan qisqa muddatli tasvirlarni bajarish tavsiya etiladi. Xotiradan rangtasvirlar tasvir jarayoniga ko'ra naturadan bajariladigan tasvirlar bilan almashinib turishi mumkin. Xotiradan chizmatasvirlar bosh anatomiyasini o'rganishdagi tasviriy xotirani mustaxkamlash imkonini beradi. Bunday chizmatasvirlar talaba nazariy bilimlarini va amaliy ko'njshalarini




to'la egallagani anik bo'lguncha takrorlanishi L03»1M. Anatomik boshni turli xolatlarda tasvirlash bilan bir katorda uning alohida qismlari bo'lgan ko'z, burun, og'iz, quloq kabilardan qisqa tasvirlar bajarish foydali. Bu talabaga har bir qismning, har bir mushakning alohida kurilmasini chukur va e'tibor bilan o'zlashtirishiga, ularning shakl kurilmasi va boglikligini tushunishga yordam beradi. Boshning yuqorida ta'kidlangan kismlarining har birini taovirlashni majburiy qilib qo'yish shart emas, bu holat o'r ganilayotgan ma'lumotni qanchalik tez o'zlashtirib olish va tayyorgarlik darajaga bogliq. Inson boshi anatomik tasvirini bajarish chogida bosh suyagidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lsa, unda talaba boshning mushak qoplamasi va bosh suyagi orasidagi bevosita aloqani tushunib yaxshiroq eslab qoladi. Bosh va ayrim kismlarining tuzilish xususiyatlarini ongli ravishda va mustahkam egallab olinishi uzok muddatli chizmatas virlarda ham, xotiraviy chizmatasvirlarda ham aksini topmog'i talab etiladi. Inson anatomiyasini nazariy va amaliy jihatdan egallahni asosan plastik anatomiya kursi mashg'ulotlarida keng o'r ganiladi. Anatomik chizmatasvir topshiriqlarini faqat boshning asosiy mushaklarini statik holatda o'r ganish bilangina chegaralanib bo'lmaydi. Barcha mushaklarni va ularning uzaro bnrikuvi shakl va hajmi, turli harakat va qisqarishlardagi o'zgarishini chuqur anglash lozim. ayniqsa imo - ishora bilan bog'liq mushaklar va ularning inson ichki holatiga bog'liq tomonlariga e'tibor karatish muhimdir. Murakkab vazifalarni bajarmay turib, haqiqiy rassom, psixologik portret yoki tematik surat ustasi bo'lib yetishishi qiyin.



Odam boshi murakkab rakurs da. «Rakurs holatni tasvirlashni o'r ganishdan oldin bajariladigan boshni yon tomondan va rakurs ko'rinishlarda chizish»

topshiriqlariga «kalla suyagini turli ko'rinishlarda tasvirlash» topshirigi muqaddima bo'lishi kerak. Bu inson bosh tasviriga o'tishda nihoyatda zarur. «Kalla suyagini turli ko'rinishlarda» tasvirlash bosh suyagining tuzilish xususiyatlari va uning kismlarining o'zaro alokalarini o'rganishni nazarda tutadi. Ushbu topshiriq kalla suyagining turli ko'rinishlarini o'rganishni taqozo etadi. Uning ro'paradan, to'rtdan uch qism ko'rinishi va yon taraf holati chiziladi.

Bu turli burilish va rakurslar xamda boshning ayrim qismlarining tabiatda jism va qomatning alokasidan vujudga keluvchi fazoda yuz beradigan qoidalariga bo'yсинувчи jarayoni o'zaro mutanosiblikni belgilash kabilarga e'tiborni qaratish zarur bo'ladi. Rakurs - tabiatda jism va qomatning murakkab holati. Bu holatda qaralayotgan ob'ektning insonga old qismi kattaroq, uzoklashayotgan kismi kichiklashib boradi. Kalla suyagi chizmatasvirini bajarishga kamroq vakt ajrati ladi, xususan, dastlabki ikkita chizmaga olti - sakkiz soat, uchinchisiga un ikki - un olti soat vakt ajratiladi, negaki u avvalgi ikkita chizmaning ustida ishlash jarayonida olingan bilimlarning amaldagi natijasini namoyon etish imkoniyatini tugdiradi. Ko'p yillik pedagogik tajribadan kurinadiki, vaktniig bunday taksimlaiishi talabani portret chizishdek qiyin topshiriqni bajarishga asta - sekin kirishuviga yaxshi debocha bo'ladi. Har uchala suratni bir o'lchamda chizish tavsiya etiladi, bu boshning turli holatlaridagi tuzilish xususiyatlari va shakli, o'ziga xosliklarini tezroq tushunib olishga yo'l ochadi. Rangtasvirni shoshmay,



shaklning fazodagi (ayniqsa, rakursdagi) holatini yaxshilab kuzatib, keyin ish boshlash kerak. Boshning umumiy ko'rinishi, uning kattaligi va mutanosibligini belgilab olgandan keyin, o'rta (simmetriya) chiziqni anik mo'ljallab olish zarur. Qosh, ko'z, burun va og'zni ifodalovchi chiziqlar o'tkaziladi, ularning orasidagi masofa belgilanadi, negaki bosh yon tomonga burilganda va rakursda bu chiziklar orasidagi masofa o'zgaradi.

qilish foydalidir. Ba'zan ushbu postanovka uchun skelet chizib olish va andoza xislatini hisobga olib, bu skeletoni mushaklar bilan «kiyintirish» maksadga muvofik bo'ladi. Naturani taxlil qilish va aniq ifodalash libossiz qomagni o'rganishdagi dastlabki postanovkalarning asosiy vazifasidir. Bajargan va to'gri tushunilgan chizmatasvir namunasida qomat qogoz yuzasida yaxshi joylashtirilgan, har ikkala oyogiga tayangai tana to'gri qurilgan. Agar 7 buginli umurtqadan oyoqlarga qadar tik to'g'ri chiziq tortilsa, uning uchi aniq oyoqlar orasiga kelib tutashadi; yelka va tos suyagi yoki gorizontal - yotiq chizikda joylashgan. Qomatning mutanosibligi va xususiyati, shuningdek tosning oyoq, ko'l va bosh bilan aloqadorligi yaxshi topilgan. Yorug'lik va soyaning muvofik kelishi tufayli qomat fonga moslashib ketgan. Tik turgan komat tasvirlanganidan so'ng gavdani o'rganishga kirishiladi. Utirgan holatdagi erkak kishining gavdasi chizmatasviri yaxshi bajarilgan topshiriq namunali bo'lishi mumkin. Chizmatasvirda tegishli yuzada kompozitsiya jixatdan yaxshi joylashtirilgan qomatni ko'rish mumkin, harakat to'g'ri belgilangan, andozaning mutanosibligi va shakli aniq, yelka aylanasi yaxshi ishlangan. Ko'krak qafasi tos bilan to'gri birikkan. Ushbu naturachiga xos bo'lgan biroz bukrilik to'g'ri ifodalangan. Asosan olganda chizmatasvir naturaning plastik va tus xususiyatlarini to'g'ri tushungan holda bajarilgan. Shaklni tahlil qilish asnosida talaba gavdaning anatomik qurilmasini bergan, shakllar aloqadorligi to'g'ri tushunilgan va qismlari umumiylikka bo'ysundirilgan. Libossiz qomatni o'rganishni



davom ettirsak endi oddiygina qurilmadan tashkari ularning oldida jiddiy vazifalar turadi. Bunda postanovkalar murakkablashadi, qomat (odatda erkak qomati) kuchli harakatda yoki ogirlik ko'targan boshka biron - bir ish bilan shug'ullangan murakkab rakursda bo'lishi mumkin. Murakkab harakat mushaklarga kuch tushishi bilan bog'liq tashqi shaklning o'zgarishini kuzatish imkonini beradi. So'ngra qomat bir nechta tayanch nuqtasiga ega bo'lgan postanovkalar qo'yiladi va nihoyat, rakursda yotgan holatdagi qomat bilan bog'lik murakkabroq topshiriq beriladi, eng muhimi, u inson qomati qurilmasini tasvirlash bilan bog'liq bo'ladi. Tabiiyki, libossiz qomattasviri topshirigi yuqori kursda ham uchraydi va bu o'ziga xos takrorlash bo'lib, avvalgi kurslarda olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlaydi. Bajarilgan topshiriqlar natijasida talaba chizmatasvirning barcha usullarini egallashi, anatomiya fanidan olgan bilimlari asosida odam qomatini bemalol tasvirlashi, postanovka kismlarini yaxlitlikka bo'ysundira olishi, makonda katta qurilma shaklini his etishi va yaxlitga nisbatan ayrim qismlarning o'zaro plastik aloqadorligi ta'minlanishi, naturadan olgan jonli taassurotini berishi lozim bo'ladi.

Talaba bajargan rasmdagi o'tirgan xolatdagi erkak qomati tasvirini muvaffaqiyatli chiqqan deyish mumkin. Talaba tomonidan pastdan kuchli rakurs bilan chizilgan utirgan holatdagi erkak qomati andozaga yakin turgan mutanosiblikni bu postanovka ustida ishlagan. SHuning uchun yaxshi o'ylangan va mahorat bilan andozalangan chshmatasvirda mutanosib topilgan. Tasvir jonli chiqqan, eng muhim narsa aniqlangan. Butun komatni koplab olgan yoruglikka nozik ishlov berilgan, faqat chal ko'lning yelkaga yaqin joyida va tirsakda biroz qo'pollik seziladi va tusdagi yorug'likni ajratuvchi chizik og'irlashtirib yuborilgan. Bosh kuchli rakursda ham yaxshi tasvirlangan, uning qismlari o'zaro aloqada va



ularning barchasi o'z holiga chiroyli chiqqan. CHap oyoqning kattayib ketganini hisobga olinmasa yaxshi andozali tasvirlangan.

Odam qomatini sklet va muskullarni anatomik qismlarga ajratib qurish.


Sklet - bu odam qomatini chizmatasvirda qurishning asosi xisoblanadi. Qomat qanday holatda bo'lmasin, sklet qismlarni nisbatini saqlash uchun bosh vositadir, tayanch nuqtasini va muvozanatni saqlashni ta'minlaydi. Odam skleti bosh suyagi, umurtqalar tizimi, ko'krak qafasi, tos va ikki oyoq, qo'l suyaklaridan iborat.

Ba'zi suyaklar o'zaro choklar bilan(bosh suyagi) harakatsiz bog'langan bo'lsa, boshqalari suyaksimon qotishma bilan (ko'krak qovurg'alari va bo'g'inlar) ham harakatli bog'langan. Bo'g'in bu suyaklarning harakatdagi bog'lanishi bo'lib, odam qomati shakllarining plastika va harakati shularga bog'liq. Gavda asosini umurtqa tizimining yuqori qismida ko'krak qafasi joylashgan bo'lib, ko'krak qafasi pastki qismi 7, 8, 9 va 10 qovurg'a tog'aydan iborat. Ko'krak qafasining yuqorisida yelka belbog'i joylashgan. Belkurak tashqi burchagi qo'l bilan bog'lanib yelka bo'g'inni tashkil qiladi. Ko'krak qovurg'asi yuqori qismiga egilgan shaklda umrov suyagi birikkan. Umrov suyagining ko'krak tomoni chuqurcha hosil qilishda qatnashadi va yelka kamari chizmatasvirini qurishda asosiy nuqta hisoblanadi. Tos suyagi to'rtga suyaqdan; ikkita nomsiz, xoch va dumgazadan tashkil topgan. Nomsiz suyak o'zaro harakatsiz bog'langan. SHunday qilib tos suyagi simmetrik va yaxlit qurilishni hosil qiladi. Naturadan ishslash jarayonida buni esdan chiqamaslik kerak. Skletning tashqi pastki qismiga son suyagi, oyoq suyagi, va tovon kiradi. Gavdaning yuqori qismi va qo'li qanday qurilgan bo'lsa, pastki qismlari o'lchami nisbatlari ham shunday aniqlikda topilishi kerak. Muskullar skelet suyaklari bilan qomat relbefini tashkil qilib, sklet qismlari va qomatning harakat o'zgarishi bilan hamohang bo'ladi. Muskul va suyaklar harakatda bo'lib, muskullar o'z shaklini o'zgartiradi, suyaklar o'zgarmaydi, ammo har xil yo'nalishda harakatga keladi. Qomat qurilishi qog'oz yuzasiga joylashtirishdan boshlanadi. Asosiy nisbatlar sklet asosida aniqlanadi. Agar qomat ikki oyog'ida tayanch turgan, qo'llari pastga qaratilgan, skelet simmetriya hosil qilgan bo'lsa, tos suyagi gorizontal holatni hosil qiladi. Tayanch vertikal o'q

chizigi ikki oyoq oralig'iga to'g'ri keladi. Agar qomat bitga oyog'iga tayanib, ikkinchi oyog'i erkin holatda bo'lsa simmetriya holati yo'qoladi va vertikal o'q chiziq tayanch oyogiga yaqin tekislikka tushadi. Qomat chizmatasvirini qurishda ko'krak qafasi, tos suyagi va oyoq holatining muhitda joylashuviga qaratiladi. Butun qomatni bog'lovchi bo'lib tos suyagi hisolanadi. Yelka kamarining tos suyagi kabi o'q chizigi vertikal chiziqga egilishi nisbatiga bog'liq. Qomat bir oyoqqa tayanib turgan bo'lsa, tos suyagi o'qi erkin oyoq tomon egiladi. Plastik xarakteri uchun gavdaning oldidan ko'rinishida skletning qismlari alohida ahamiyatga ega. Qomatni qurishda skletdan tashqari muskullarni ham bilish kerak. Ish jarayonida bu bilimlarni ustalik bilan qo'llaniladi. Katta ko'krak muskuli (juft) ko'krak qafasi yuzasida yotadi va yelka suyagining yuqori qismiga biriktirilgan. Old tishsimon muskul ko'krak qafasining yon va orqa yuzasiga joylashgan. Muskul tishlari ko'krak qafasining to'qqizinchi qovurgasidan boshlab, belkurakning ichki qirrasiga birikkan. Ol va yuqridan katta ko'krak muskuli bilan, orqadan esa keng orqa muskuli va belkurak bilan qoplangan. SHuningdek, ko'krak qafasining boshqa tomonida xdm juft muskullar joylashgan. Qorin muskuli ko'krak muskuli kabi simmetriyani tashkil qiladi. Plastik jihatdan qorinning tashqi qiyshiq va to'g'ri muskuli katta ahamiyatga ega. Qorin to'g'ri muskuli yassi bo'lib, o'rta chiziqning ikki tomoni yuzasiga joylashgan va qorin tekisligida yaxshi kuzatiladi. Tashqi qiyshik muskul ko'krak qafasi pastki yepinchchi qabirg'adan boshlab tos suyagi oraligini to'ldiradi. Orqa tomon xarakteri uchun umurtqalar tizimiga uning o'simtalari; dumg'aza, belkurak va tos suyagi ahamiyatlidir. Trapetsiyasimon muskul orka va bo'yinning orqa qismida joylashgan. Orqa enli muskuli qomatning yirik muskullaridan biridir. U orqaning pasgki qismini to'la egallaydi. Ko'krak pastki umurtqadan boshlab yelka suyakkacha yuqori qismi bilan bog'lanadi. Qo'lni yuqori ko'targanida qo'ltiq osti chuqurchasi yaxshi ko'rinaldi, buni esa ko'krak katta muskuli bilan orqa enli muskuli hosil qiladi. Chuqurchani tishli old muskuli qoplamasi va ko'krak qafasi yordamida paydo bo'ladi. Orqa xarakatida romba ko'rinishidagi muskul uchburchak shakli ko'rinishiga ega bo'lib, umurtqaning belkurak chekkasi va keng orka muskuli bilan

chegaralanadi. Natura ishlash amaliyotidan ma'lumki tayanch oyog'i tomonida joylashgan gavda muskullari qisqaradi, ikkinchisida esa cho'ziladi.

Qomatning pastki qismini qurishda ba'zi qonun qoidalarni bilish kerak: masalan, bir oyokda turgan qomatda tayanch oyoq tomoni yuqori, erkin holatdagi oyogi tomonidagisi past. Tayanch oyoqni tos suyagi bilan monolit chiziladi. boshqa oyog'i tos suyagi beli bo'ginidan pastga qarab tovongacha quriladi. Son suyagi asosida bo'g'in, tizza kosasi, uning orqa tomonidan esa bo'gin yuzasi bel bilan tutashadi. Tayanch oyogi tizza bo'gini yuqori, erkin o'tirgan oyoq tizzasi yarim bukilgan bo'lib, tos suyagi pastga egilgan. Rangtasvirni to'g'ri ishslash uchun qomat turgan tekislikni ham qurish kerak. Keyin tekislikda tovon shaklini quriladi. Chizmatasvirda qomatning tashqi shaklini ko'satishda deltasimon muskul katga ahamiyat, mazmun kasb etadi. Qo'l detal qismida yelkaning ikki boshli muskuli qisqarganda sezilarli relef hosil qiladi. Ichki yelka muskuli ikki boshli muskul ostiga joylashgan. U oldi yelka suyakning o'rtasidan boshlanib, qo'l yuqori suyagiga yopishgan.





NAZORAT SAVOLLARI

- 1. Tayanch nuqtasi va muvozanat to‘g‘risida so‘zlab bering.**
- 2. Odamning harakat holatini izohlang.**
- 3. Inson skeleti to‘g‘risida madumot bering. Uning tasvirini uslubiy bosqichlarda chizish usullarini so‘zlab, amaliy ko‘rsating.**
- 4. Qalamchizgi va xomaki rasm nima? Ular to‘g‘risida madumot bering.**
- 5. «Shaklning konstruktiv asosi», deganda nimani tushunasiz?**
- 6. Odamning plastik anatomiysi, deganda nimani tushunasiz?**
- 7. Psixologik portret nima? Mimika muskullari to‘g‘risida madumot bering?**
- 8. Inson qomatini tasvirlashda analiz va sintez yodi bilan tasvir bajarish, deganda nimani tushunasiz?**
- 9. Pedagogik rasmning oddiy rasmdan farqi nimada?**
- 10. Buyumda yorugdikning taqsimlanish qonuniyatlarini bayon eting.**

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. Boymetov. Qalamtasvir 1-qism. T. 2007.
2. B.Tojiboyev. N.Isoxo`jayeva Qalamtasvir, Rangtasvir va kopozirsiya asoslari. T.2011.
3. N.A.Dmitriyev. Kratkaya istoriya iskusstv. M.: 1985 g.
4. Gruppa avtorov.Vse obshaya istoriya iskusstv. M.:1956 g
5. Abdirasilov.S, Tolipov N. “Dastgohli Rangtasvir” Iqtisod moliya. T., 2008.
6. Abdirasilov.S, Tolipov N. “Rangtasvir” Bilim. O’MKHTM T., 2005
7. B.Tojiev, N. Isahojayeva. “Qalamtasvir, rangtasvir va kompozisiya” “SHARQ” NMAK. T., 2011
8. Abdirasilov.S., Tolipov N. N.Oripova. “Rangtasvir” TDPU rizografida 2003
9. G.V.Beda. Jivopis’. Moskva. "Prosvextsenie". 1986. (26-39 betlar)
10. Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N. Rangtasvir. T., 2006.
- 11.Nurtoev.O’ “Rangshunoslik asoslari” o’quv qo’llanma “Ilm ziyo” T., 2008
- 12.Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N. Rangtasvir (1-qism). T.: 2002.
- 13.Abduraqmonov G.M. Rangtasvir va kompozitsiya. – Toshkent, 1995.

14.Nabiev M. «Rangshunoslik». Toshkent; O'qituvchi, 1995.

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

SAN'ATSHUNOSLIK FAKULTETI

AMALIY SAN'AT VA RANGTASVIR KAFEDRASI

RTS-AU-21-gurux talabalari uchun

RANGTASVIR

fanidan

mustaqil ishlarni bajarish bo'yicha

USLUBIY KO'RSATMA

VA TAVSIYALAR



NAMANGAN – 2023

Mazkur mustaqil ish uchun uslubiy ko`rsatma va tavsiyalar Oliy va o`rta maxsus ta'lim vazirligining 2009-yil 14-avgustdagи 286-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "talaba mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha" yo'riqnomasi hamda namdu ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlangan talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi bo'yicha" yo'riqnomasi asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi:

A.Amanullayev

Taqrizchi:

B.Ruzinov

Ushbu mustaqil ish uchun uslubiy ko`rsatma va tavsiyalar Amaliy san'at va rangtasvir kafedrasining 2023 yil "28" avgustdagи "1"-son yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan.

1.Mustaqil ta’limning tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqili shi o’zbekiston respublikasi oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining “talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish to’g’risida”gi 2009 yil 14 avgustdagи 286-sonlibuyrug’i va “talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo’yicha yo’riqnomा” asosida tashkil etiladi.

Talaba mustaqil ishi (tmi) – muayyan fandan o’quv dasturida belgilangan bilim, ko’nikma va malakaning ma’lum bir qismini talaba tomonidan fan o’qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o’zlashtirilishiga yo’naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o’quv qo’llanmalar bo’yicha fan boblari va mavzularini o’rganish;
- tarqatma materiallar bo’yicha ma’ruza qismini o’zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo’yicha fan bo’limlari yoki mavzulari ustida ishslash;
- mavzuga oid karta-sxemalar va turli chizmalar tayyorlash;
- talabaning o’quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog’liq bo’lgan fan bo’limlari va mavzularni chuqur o’rganish;
- faol va muammoli o’qitish uslubidan foydalaniladigan o’quv mashg’ulotlari

2. Mustaqil ishlarni nazorat qilish bo’yicha topshiriqlarni qabul qilish shakllari

Mustaqil ishlarni nazorat qilish bo’yicha topshiriqlarni quyidagi shakllarda qabul qilish tavsiya etiladi.

- ◆ Mavzu asosida qoralamalar
- ◆ Eskizlarni yig’ish yakuniy qismi
- ◆ slaydlar
- ◆ tarqatma materiallar
- ◆ mavzuni tahlil qilish

Talabalarni mustaqil ishlarini baholash har bir mustaqil ish mavzusini yakunlab topshirilgandan keyin amalga oshiriladi. Mustaqil ta’lim jarayonida ajratilgan topshiriqlarni talaba Universitet, fakultet’ kutubxonalari yoki internet tarmog’laridan topib tayyorlaydi va qisqacha mazmunini qayd etib boradi hamda ko’rsatilgan shakllarda topshiradi. Bunda talaba har bir mavzu bo’yicha ishni bajarib, o’qituvchiga ko’rsatgan mustaqil ishi uchun ball oladi. To’planadigan ballar reyting nazorati turlariga (oraliq va joriy nazorat) qo’shiladi.

Talabaning har bir mustaqil ishini baholashda quyidagi me’zonlarga amal qilish mumkin.

- ◆ Mavzuning yoritilishi:
- ◆ Kutubxona va internet ma’lumotlaridan foydalanganligi-
- ◆ Ishni tushuntirishda talabaning nutqi
- ◆ Ishga ilmiy jihatdan yondoshganligi
- ◆ Imloviy va uslubiy xatolar
- ◆ Savollarga og’zaki javob:
- ◆ Berilgan barcha savollarga javob berish
- ◆ Qisman xatoga yo’l qo’yish
- ◆ Qisman to’g’ri javob berish
- ◆

TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINING SHAKLI VA HAJMINI BELGILASHDA

QUYIDAGI JIHATLAR E’TIBORGА OLISHI LOZIM:

- O’qish bosqichi;
- Muayyan fanning o’ziga xos xususiyati va o’zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;
- Talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi (tayanch bilimi);

- Fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasi;
- Talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi.

TALABA MUSTAQIL ISHINING VAZIFALARI QUYIDAGILARDAN IBORAT:

- Yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- Kerakli ma'lumotlarni izlab topishning qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- Axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- An'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- Elektron o'quv adabiyotlari va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- Internet tarmog'idan maqsadli foydalanish;
- Berilgan topshiriqning ratsional yechimini belgilash;
- Ma'lumotlar bazasini belgilash;
- Topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;
- Ishlab chiqilgan loyiha yoki g'oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish;
- darslik va o'quv qo'llanmalarning (ularning to'la ta'minlanganligi taqdirda) boblari va mavzularini o'rghanish. Tarqatma materiallar bo'yicha Ma'ruza qismlarini o'zlashtirish. O'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizmlari bilan ishlash. Fanning boblari va mavzulari ustida ishlash;
- fandan nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirish, ularni tahlil qilish, mustaqil ishlashga o'rgatish, mashqlar bajarish.
- Fanga oid masalalarni, materiallarni tahlil qilish, mantiqiy mulohazalar ustida ishlash.
- Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o'rghanish.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestr dan semestriga ko'nikmalar hosil bo'lishiga muvofiq ravishda o'zgarib, oshib boradi. Fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;

- ❖ Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rib kelish;
- ❖ Muayyan mavzu bo'yicha referat tayyorlash;
- ❖ Rasm chizish;
- ❖ Amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;
- ❖ Ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash;
- ❖ Uy vazifalarini bajarish va boshqalar.

MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARINI MUVAFFAQIYATLI YAKUNLASHLARI UCHUN

QO'YILADIGAN TALABLAR:

- Maqsadning (bilimni mustahkamlash, yangi bilimlarni o'zlashtirish, ijodiy faollikni oshirish, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish) aniq asoslanishi;
- Vazifa va topshiriqlarning aniq-ravshan belgilanishi;
- Topshiriqlarni bajarish algoritmi va metodlaridan talabalarning etarli darajada xabardor bo'lishi;
- Maslahat va boshqa yordam turlarining to'g'ri belgilanishi;
- Hisobot shakli va baholash mezonini aniq belgilash;
- Nazorat vaqtini, shakli va turlarini aniq belgilab olish.

Talabalar bilimini baholashda reyting tizimini qo'llash maqsadlaridan kelib chiqqan holda mustaqil ish soatlari, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha taqsimlanadi va mos ravishda baholanadi. Talabalar mustaqil ishlarini baholash ajratilgan soatlarga mutanosib ravishda amalga oshiriladi.

Ma'ruza soatlari uchun ajratilgan mustaqil ta'lim soatlarida ma'ruzada berilgan o'quv materiallarini chuqurlashtirilgan tarzda mustaqil o'rganish va konspekt yozish nazarda tutiladi.

Rangtasvir (dastgohli) yo'nalishi talabalari uchun

Mustaqil ishi mavzulari:

3-kurs; Rangtasvir

III. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARINI TAQSIMLANISHI			
No	Mavzu nomi	TMI shakli	Soati
3-kurs V-semestr			
1	Me`morchilik shakkiali ishtirokida tuzilgan natyurmort.(sun`iy yorug'lik yordamida)	O'tilgan dars mashg'ulotlari asosida mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
2	Kuz inomlaridan tuzilgan natyurmort. (sun`iy yorug'lik yordamida)	O'tilgan dars mashg'ulotlari asosida mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
3	Gips rozetka ishtirokida mavzuli notyurmort. (sun`iy yorug'lik yordamida)	O'tilgan dars mashg'ulotlari asosida mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
4	Me`morchilik shakkiali ishtirokida tuzilgan natyurmort.(tabiiy yorug'lik yordamida)	Mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
5	Kuz inomlaridan tuzilgan natyurmort. . (tabiiy yorug'lik yordamida)	Mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
6	Gips rozetka ishtirokida mavzuli notyurmort. (tabiiy yorug'lik yordamida)	Mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
7	Kapitel shakkillardan tuzilgan natyurmort(<i>qora qalam</i>) (sun`iy yorug'lik yordamida)	O'tilgan dars mashg'ulotlari asosida mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
8	Xona inter'erda tuzilgan natyurmort. (<i>sangina, ko`mir qalamcha, sous</i>)	O'tilgan dars mashg'ulotlari asosida mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
9	Amaliy san`at buyumlari ishtirokida tuzilgan natyurmort: <i>sangina, ko`m. qalam., sous</i>	O'tilgan dars mashg'ulotlari asosida mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
10	Mato buklamlardan tuzilgan	Mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9

	natyurmort (<i>grizael'</i>) . (sun`iy yorug'lik yordamida)		
	Jami		90
	3-kurs VI-semestr		
1	Bosh suyagi 3 xil ko`rinishda (suniy yorig'liq yordamida)	Mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
2	Qirqma bosh (obrubovka)	Mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
3	Antik davr xaykali (Sakrat, Venera) . (sun`iy yorug'lik yordamida)	Mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
4	Uy ro`zg'or buyumlari va meva, sabzovotlardan tuzilgan natyurmort	Mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
5	Kopitel' ishtirokida tuzilgan natyurmort	Mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
6	Gipsdan yasalgan antik bosh xaykali ishrokida natyurmort	Mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
7	Odam boshini 2 tomondan ko`rinishi	Mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
8	Odam portreti elkalari bilan	Mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
9	Odam tanasining qismlari (qo`l, tirsak, panja, barmoq , tovon)	O'tilgan dars mashg'ulotlari asosida mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
10	Odam portreti (grizal' usulda)	Mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
	Jami		90
	3-kurs bo'yicha jami		

Mustaqil ishlarni bajarish uchun o`quv-uslubiy adabiyotlar ro`yxati.

Nº	Muallif	Adabiyotning nomi	ARMda gi soni	Nashr yili
Asosiy adabiyotlar				
1.	Boymetov B.	Qalamtasvir o`qitishning ilmiy asoslari. T., 1995.	5	T-2008
2.	Boymetov B.	Qalamtasvir asoslari. T., 2000	5	T-2018
3.	Boymetov B.	Portret qalamtasvir. T., 2001	5	T-2014
4.	Rostovtsev N.N.	Akademicheskiy risunok. M., 1981	1	T-2006
5.	Safaraliev S.	Uchebno`y risunok v Akademii xudojestv	1	T-2014

		M., 1990.		
6.	Nabihev M.	Rasm chizishni o'rganish metodikasi. T., 1998	5	
7.	B.Tojiyev N. Isaxojayeva	Qalamtasvir rangtasvir va kompozitsiya asoslari	-	T-2011
8.	B.Boymetov, O'.Nurtayev	Tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish	-	T-2007
9.	A.Sulaymonov	Tasviriy san'atda oqim va yo'nalishlar	4	T-2019
10.	Bulatov S	Rangshunoslik	2	T-2016
11.	Xasanov R	Amaliy bezak san'ati mashgulotlari metodikasi (ukuv kullanma)	1	T-2007
12.	Xasanov R	Amaliy bezak san'ati mashgulotlari metodikasi (ukuv kullanma)	1	T-2007
13.	H.Sultanov N.Mansurov	Chizmatasvir (O'quv qo'llanma)	-	T-2014
14.	B.Boymetov	Haykaltaroshlik va plastik anatomiya	-	T-2007
15.	Botir Boymetov	Qalamtasvir (O'quv qo'llanma)	-	T-2007
16.	A. Kalonov	Qoralama va xomaki chizgilar	-	T-2013
17.	M.Ketti Toshmurodov_	Chizmatasvir	-	T-2012
18.	G Artiqov	Rangtasvir texnikasi va ashyolar texnologiyasi	-	T-2007
19.	R. Xudayberganov	Mahobatli rangtasvir texnika va texnologiyasi	-	T-2015
20.	А. Лаптев	Рисунок первом	-	M-2000

1.	<u>www.rsl.ru;</u>		
2.	<u>www.person.ru;</u>		
3.	<u>www.mf.uz;</u>		
4.	<u>www.tdiu.uz;</u>		

GLOSSARIYA

GLOSSARIYA

A

Abris - chegara chiziq suvratdagi tasvir, rang va tuslarni chegarasini belgilaydi.

Abstraktsionizm - lotin tilidan olingen bo'lib, "maxxum" degan ma'noni anglatadi. Bu oqim XIX asr oxiri XX asr boshlarida Yevropada paydo bo'lgan. San'atdagi mazkur yo'naliish namoyyandalari narsa va xodisalarni real tasvirlashdan voz kechganlar. Ularning asarlarida borliq emas ijodkorning his-tuyg'ulari shakl va ranglar o'yini aks etgan. Abstraktsionizm oqimidagi asarlarda ma'no va mazmun ayrim dog', xajm, chiziq, ranglarning tartibsiz, harakati qonun va qoidalarsiz tasvirlanadi.

Avtolitografiya - yunoncha "toshga chizaman" degan ma'noni anglatadi. Unda rassom o'z asarini tosh ustiga ishlab so'ngra undan qog'ozga tasvir oladi.

Avtoportret - "avto" so'zi yunon tilidan olingen bo'lib, o'zim ma'nosini anglatadi. Avtoportret esa o'zimni portretim demakdir. Ko'pchilik rassomlar oynaga qarab o'zlarini portretlarini ishlashadi. Avtoportretda rassomlar o'zlarining harakterlari, tabiat ikki dunyosini ko'rsatmoqchi bo'ladilar.

Agitplakat - grafikaning bir turib bo'lib, unda turli g'oyalar targ'ibot va tashviqot qilinadi.

Akademizm – tasviriy san'atdagi akademik uslubga asoslangan badiiy yo'naliish. Ba'zida bu bilan yangi badiiy yo'naliishlarni ham atashadi. Ijodkorlardan tashkil topgan tasviyy san'atdagi badiiy yo'naliish.

Akvatinta - metallga chuqur o'yib ishlanadigan gravyuraning bir turi. Bunda rassom metall taxtachaning ayrim joylariga avval asfal't kukuni sepib, keyin uni azot kislotada yuvadi.

Akvarel' - lotin tilidan olingen bo'lib, suv ma'nosini anglatadi. U suvda yaxshi eriydigan va yuviladigan mayin va shaffof bo'yoq. Akvarel' tasviri nihoyatda rangli, nafis va nozik bo'lib, ular ko'pincha qog'oz ustiga ishlanadi.

Antik san'at - qadimgi degan ma'noni bildiradi. Bunda taraqqiy etgan qadimgi Yunon, Rim san'ati nazarda tutilgan.

Applikatsiya - lotincha yopishtirish ma'nosini anglatadi. Mazkur tasvirlash texnikasi tabiiy (barg, tosh, meva-sabzovotlarning urug' va po'choqlari), badiiy (rangli, fol'sha qog'ozlar v.b.), va tashlandiq (gazmol parchalari, dori-darmondan, xo'jalikda ishlatilib bo'shagan narsalar v.b.) materiallar yordamida tekislik ustida bajariladigan tasvirlash usuli.

Asosiy ranglar - qizil, sariq, zangori ranglar shunday deb ataladi. Bu ranglarni birbirlari bilan aralashtiib boshqa ko'p ranglar olinadi.

Assimetriya - yunon tilidan olingen bo'lib, "simmetrik emas" degan ma'noni anglatadi. Tasviriy san'atda asardagi detallarni, suvratni chap va o'ng yoki yuqori va pastki tomonlaridagi tenglik, o'xshashlik alomatlarining yo'qligi assimetriya hisoblanadi.

Afsonaviy janr - xalq og'zaki ijodi asosida tasviriy san'at namunalarini aks etdiruvchi janr. Bunday janrda yaratilgan tasvirlar afsonaviy odam va mahluqlar (xayvonlar) bo'lib, xaqiqatda ular bo'lmaydi. Masalan dev, ajdar, kentavr, rusalka, pegas, putti grifon, va boshqalar

shular jumlasidandir. Afsonaviy janrda yaratilgan ishlarning ko'pchiligi rangtasvir va xaykaltaroshlikda uchraydi.

Axzar - rang nomi, meditsinada ishlatiladigan zelenkaning rangi.

Axromatik ranglar - yunon tilidan olingan bo'lib, rangsiz degan ma'noni anglatadi. Ular oq, qora, kulrang va ularning aralashmasidan hosil bo'lgan tuslardir.

B

Badiiy an'ana - qadimdan inson faoliyatining adabiyot, san'at kabi sohalarida erishilgan va saqlanib qolning ilg'or yutuqlar va tajribalar. Baget - rasm, suvrat kabilarni solishga mo'ljallangan moslama.

Badiiy ko'rgazma - deganda tasviriy, amaliy, me'morchilik san'at asarlari yoki loyxalarni ommaga namoyishi tushuniladi. Ular muzey, galereya, san'at saroylari va markazlarida o'tkaziladi. Ko'rgazma bir yoki bir necha muallifning tasviriy san'at ayrim tur yoki janrlari bo'yicha ham o'tkaziladi. Ular davriy yoki doimiy va ko'chma tarzda o'tkazilishi mumkin. Badiiy ko'rgazma xalqaro, mintaqaviy, milliy turlari ham bor. Badiiy ko'rgazmada ba'zi birgina asar qo'yilishi xollari ham bo'lgan. Masalan, ko'p yillardan buyon Leonardo da Vincining "Monna Liza Jokonda" nomli asrinining bir o'zi ko'chma ko'rgazmada namoyishi etilgan.

Badiiy akademiya - bu nom bilan asosan rassom, haykaltarosh, me'morlar tayyorlanadigan oliy o'quv yurtlari ataladi. Shuningdek bu nom bilan nafaqat san'atga balki ularda rahbarlik qiladigan, tashkiliy ishlarni olib boradigan davlat muassasalari ham yuritiladi. Masalan, O'zbekiston badiiy akademiyasi.

Barikaram - rang nomi, karam bargaining rangi.

Binafsha - rang nomi, gunafsha gulining rangi. Blik - narsa va tasvirlarning eng yorug' yaltiroq joyi.

Bosh bezak - kitoblarining ichki bezagi, kitob varag'ining eng tepe qismida beriladigan tasvir. Ular rasmli yoki, naqshli bo'lishi mumkin.

Bronza - mis, qalay, alyuminiy, berilliy, qo'rg'oshin kabilar aralashmasidan hosil bo'lgan qotishma. U alyumin, kul rangiga yaqin bo'ladi.

Bo'yoq - tasviriy san'atda, shuningdek badiy-bezak ishlarida ishlatiladigan qorishma. Uning moy bo'yoq, akvarel, guash, tempera, emal, emulsiya kabi turlari bor.

B'enale - ikki yilda bir marta bo'ladigan ko'rgazma nomi.

Byust - frantsuzcha so'z bo'lib, qabr ustiga qo'yiladigan xaykal ma'nosini anglatadi. U odamni ko'kragidan yuqori qismini tasvirlaydigan xaykal hisoblanadi.

V

Vernisaj - ko'rgazmaning ochilishi. Dastlab u Frantsiyada ko'rgazmadan oldin rangtasvir asarlari sathiga lok berish degan ma'noni anglatgan.

Vitraj - oyna ustiga bo'yoq bilan ishlangan rangtasvir. Uni ikki tomonlama ko'rish mumkin. Ular ko'pincha uy derazalari yoki eshik oynalariga, shuningdek ma'muriy, o'quv yurtlari binolariga ishlanadi. Ular rasmli yoki naqshli bo'ladi.

G

Galereya - tasviriy va amaliy san'at asarlari saqlanadigan va ko'rgazmalar o'tkaziladigan maxsus bino.

Gamma - o'zaro uyg'un ranglar yig'indisi bo'lib, unda bironta rang yetakchilik qiladi. Masalan, iliq rang gammasi, sovuq rang gammasi, yorqin rang gammasi shular jumlasidandir.

Gliptika - qimmatbaho toshga o'yib tushirilgan tasvir, ba'zida zeb-ziynat va muhr o'rnida ham ishlatalidi.

Gravyor - metal, tosh, yog'ochga o'yib tasvir ishlaydigan usta, rassom.

Grifon - qadimgi Sharq san'atida uchraydigan tanasi arslon, kallasi va qanoti burgutsimon afsonaviy mahluq tasviri.

Grizayl' - tasvir usuli bo'lib, birgina bo'yoq bilan ishlangan tasvir. Bunda ko'pincha qizig'ish, qora, jigarrang, zangori ranglar qo'llaniladi.

Grunt - tasvir ishlanadigan zamin. U karton, bo'z, devor bo'lishi mumkin. Unga tegishli qorishma surtilgan bo'ladi.

Guash' - Italianlar tilidan olingen bo'lib, suvli bo'yoq ma'nosini anglatadi. U suvda yaxshi eriydi. Guash bo'yog'i akvareldan uni qog'oz yuzasiga barnecha qavat qilib turlicha qalinlikda berilishi bilan farqlanadi.

Gulgun - rang nomi, kechki shafaq paytida ro'y beradigan ko'rinish rangi.

D

Dastgohli rangtasvir - rangtasvirning dastgox (molbert)ga o'rnatib ishlanadigan turi. Rangtasvirning bu turida tasvirlanayotgan odam, xayvon v.b. larning o'lchovlari o'zini xaqiqiy o'lchovidan katta bo'lmasligi lozim.

Devoriy rantasvir - (freska, alfresco)-uy shifti, devorga berilgan suvoq qurib ulgurmasdan uning ustiga ishlangan tasvir. Ular ba'zan shift, devor ustiga qoplangan mato, qog'oz ustiga ham ishlanadi.

Dekoratsiya - teatr sahnasini spektakl mazmuni bilan bog'liq holda tasvirlanadigan bezak ko'rinish. Ular rangtasvir va butafor shaklida bo'ladi.

Diptix - qo'sh tasvir. Ko'pincha ular bir mavzu va bir mazmunda bo'lib yonma-yon namoyish etiladi.

Y

Yodgorlik xaykal - mashhur va tarixiy shaxslarga bag'ishlab ishlangan xaykal. U mahobatlri, relbflri yoki dastgoxli-yumaloq bo'lishi mumkin.

Yorug'soya - Tasviriy san'at nazariyasiga doir atama. Uni yorug'soya qonuni deb ham ataladi. U tasvirlanayotgan narsalarning yoki tirik mavjudotni qalamtasviri va rangtasvirini hajmli qilib ishlanishiga qo'llaniladi.

Yorug' (shul'a) - tasviriy san'atning nazariy asoslariga oid atama bo'lib, uning yorug'soya qonuniga tegishlidir. Ma'lumki, har qanday narsa va mavjudotlar xajimlidirlar. Rasmida uni xajmli ekanligini yorug'lantirmasdan, turib ko'rsatib bo'lmaydi. Bunda narsaning yorug'lik man'baiga qaragan qismi yorug', teskari tomoni soya bo'ladi. Ularning o'rtasidagi qismi yarim soya deyiladi. Yorug' atamasi shundan kelib chiqqan.

J

Janr - ayot lavhalarini, ko'rinishlarini uning mazmuniga ko'ra tasvirlovchi badiiy asar turidir. Masalan, manzara, natyurmort, turmush, portret, nyu v.b. tasviriy san'at janrlari hisoblanadi. **Jaydarirang** - lokal rang. Tasvirlanayotgan narsa, buyumning asosiy rangi yoki bir rang bilan atalishi. Masalan; barg-yashil, osmon zangori.

Jigarrang - rang nomi, hayvonlarning jigari rangiga o'xshash rang. Ba'zilar uni "qo'ng'ir" deb ham atashadi.

Z

Zarhal rang- nomi, tillasimon rang.

Zarg'aldoq - rang nomi apaelsin, mandarin yoki qovoqning ichki rangiga o'xshash rang.

Zangori - rang nomi, to'q osmon rangi.

Zafaron - rang nomi, to'q sariq rang.

Zirxal harf - kitoblarning bob va fasllarining matn qismidagi bezakli va yirik qilib ishlanadigan birinchi harfi.

Zumrad - rang nomi, yashil yaltiroq tosh rangiga yaqin rang.

I

Illyustratsiya - lotincha ko'rgazmali tasvirlash, yoritish ma'nosini anglatadi. Ular oqqora yoki rangli rasm, suvrat, sxema, jadval, diogramma shaklida bo'lib, kitob, jurnal, gazetalarning mazmunini oson va tez idrok etishga yordam beradi.

Iliq ranglar - kishilarda iliqlik (issiqlik) xislarini uyg'otuvchi ranglar. Ular qizil, sariq, zarg'aldoq, malla, novvoti, qirmizi, pushti, shingab, sabza, sadaf, lolaro'y, gulgun, noranvash, somoniq, barikaram kabi ranglardir.

Interer - tasviriy san'at va me'morchilik, amaliy san'atda binoning ichki qismi ko'rinishini bildiradi.

K

Karikatura - italiyancha so'z bo'lib, bo'rtirib tasvirlash ma'nosini anglatadi. Bunday xajviy rasmlarda ijtimoiy, siyosiy, maishiy mavzudagi mazmunlar aks etadi. Karikatura mavzusidagi rasmlarda ayrim voqeа va shaxslar tanqid qilinadi, kishilar ustidan kulinadi. Ayrим xollarda unda ba'zi kishilar do'stona-xajviy tarzda ifodalanishi ham mumkin. Karikatura jamiyatda ro'y berayotgan xo'jasizlik, isrofgarchilik, poraxo'rlik, laganbardorlik, ichkilikbozlik kabi salbiy illatlarga qarshi kurashda katta rol o'ynaydi.

Kentavr - qadimgi Yunoniston xaykaltaroshligida uchraydigan tanasi ot boshi odam tasviri. **Kontrast** - frantsuzcha keskin ziddiyat ma'nosini anglatadi. Tasviriy san'atda och va to'q, oq va qora, iliq va sovuq ranglarni yonma-yon turishi kontrastlikni keltirib chiqaradi.

Kompozitsiya - badiiy asarlarda (adabiyot, musiqa, tasviriy san'at, amaliy san'at v.b.) qo'llaniladigan atama bo'lib, u tuzish, qurish ma'nosini anglatadi. Badiiy obrazlar va vositalarning asarda o'z o'rnida shakl, rang, mazmun jihatdan qurilishi uning kompozitsiyasini anglatadi va u badiiy obrazlarni ifodaliligin oshirishga xizmat qiladi.

Kompozitsiya qonunlari - tasviriy san'atda yaratiladigan badiiy asarlarning g'oyasi, mazmuni hamda badiyilagini tartibga soluvchi nazariy tushunchalar. Asarning muvaffaqiyati ko'pincha uning kompozitsiya qonunlariga rioya qilishga bog'liq bo'ladi. Kompozitsiyaning bir butunlik, suvrat detallarini asar g'oyasiga, bo'ysnishi muvozanat, suvratda yangilikni bo'lisligi, kontrastlar, hayotiylik qonunlari bor.

Kompozitsiya qoidalari - deganda ijodkorning kompozitsiya ishlash jarayonida rioya qilishi kerak bo'lган tamoyilar tushuniladi. Uning ritm, kompozitsion markaz, simmetriya harakat, turg'unlik, planlik, pralellik turlari bor. Kompozitsiya qoidalari asarlarni ifodalilik vositalari ma'nosini ham anglatadi.

Kompozitsiya uslublari - ijokorning asr g'oyasini uning badiyilagini, savodxonligini ko'tarishga qaratilgan chora-tadbir va yo'l-yo'riqlar majmuasi. Uning monumentlik (mahobatli), fazoviylik, gorizontallar, variantlar, diagonallar kabi turlari bor.

Kompozitsiya vositalari - asrni yaratishda qo'llaniladigan asosiy tasvirlash texnikasi, ular qatoriga chiziqlar, ranglar, oq, qora dog'lar, kolorit kabilalar kiradi.

Kolorit (gamma) - lotin tilidan olingen bo'lib, rang (buyoq) ma'nosini anglatadi. Kolorit asosan rangtasvirda qisman grafikada real borliq va voqelikni ifodali tasvirlashda ranglarni o'zaro uyg'un va mutanosibligida nixoyatda ahamiyatlidir. Kolorit ranglar mutanosibligiga ko'ra iliq yoki sovuq, yorqin yoki to'q, muloyim yoki jiddiy bo'lishi mumkin. Koloritda u yoki bu ranglar guruxi yoki yagona bir rang yetakchilik qiladi.

Konstruktivizm - lotin tilidan olingen bo'lib, qurish (yasash) ma'nosini anglatadi va u XX asrning birinchi choragida san'at va adabiyotda vujudga kelgan. Bu oqimdag'i rassomlarning ijodi tasviriy va amaliy san'atda idish tovoqlar, uy jixozlari, kiyim-kechak, gazlama kabilarni yangi nusxalarini ishlab chiqish bilan bog'liq. U kitob grafikasi, teatr bezaklarida ham o'z ifodasini topgan. Natijada an'anaviy teatr bezaklarining o'rnini harakatli jixozlar egallagan. Bu oqim XX asr oxirlarida paydo bo'lган mum (vosk) xaykallarni paydo bo'lishligiga ham olib keldi. Konstruktivizm oxir oqibat dizayn san'atini keltirib chiqardi.

Ksilografiya - frantsuzcha yog'ochga o'yilgan degan ma'noni anglatadi. U grafika (gravyura) ning bir turi sifatida tasvir yog'ochda hosil qilinib, so'ngra undan tasvir qog'ozga ko'chiriladi. Bu tasviriy texnologiyada grafik asar ko'p nusxada tayyorlanishi mumkin.

Kulrang - rang nomi, yoqilgan o'tindan qolgan kulning rangiga yaqin bo'lган rang nomi. **Kubizm** - kub so'zidan olingen bo'lib, XX asrning birinchi choragida Frantsiyada paydo bo'lган. Bu yo'nalishdagi rassomlar realistik san'at an'analarini inkor etgan holda o'z asarlarida har qanday mavjudot va narsalar-kub, shar, tsilindir, konus piramidalar va ularning o'zaro qo'shilmasidan hosil bo'lган shakllar yordamida tasvirlaydilar.

Kumushrang - rang nomi, kumish rangiga yaqin bo'lган rang.

L

Lavkas - rangtasvir ishlash uchun tayyorlangan qorishma. U mato, karton kabi materiallarni ustki qismini maxsus suyuq qorishma bilan yopib chiqish orqali tayyorlanadi.

Lessirovka - rangtasvirga xos bo'lib, tayyor ishni ustini pardozlash, sayqallashtirish ma'nosini anglatadi. Bunda qurigan tasvir ustidan yorqin yoki yoqimli bo'yoq beriladi

. **Linogravura** - gravyuraning bir turi bo'lib, unda tasvir linoleum parchasi ustida hosil qilinadi. So'ngra undan qog'ozga rasm ko'chiriladi. Bu tasvir texnologiyasida grafik asar ko'p nusxada tayyorlanishi mumkin. Lolaro'y - rang nomi, lola gulining rangiga o'xshash rang.

Lojuvard - rang nomi, eng to'q zangori rang.

M Manzara - tasviriy san'atning janrlaridan biri. Unda tabiat, shuningdek shahar ko'rinshlari tasvirlanadi.

Maishiy (turmush) janr – deb kishilarning kundalik hayoti, turmushi, mehnatini aks etdiruvchi tasviriy san'at janriga aytildi.

Manera – tasviriy san'atda rassom yoki xaykaltaroshning ish uslubi.

Mallarang - rang nomi, limon mevasining rangiga o'xshash rang.

Mahobatli rangtasvir – tasvirlanuvchilarning xaqiqiy o'lchovidan katta qilib ishlangan suvrat. Ular ko'proq devoriy rangtasvirda ko'p qo'llanadi.

Mahobatli haykal – tasvirlanuvchi odam yoki xayvonlarni o'z o'lchovlaridan katta qilib ishlangan xaykali.

Metsenat – san'at homiysi. Moybo'yoq - rangtasvirda ishlatiladigan asosiy material (buyoq) bo'lib, u maxsus qorishma moy yordamida eritib ishlatiladi.

Modernizm – “Modern” so'zi eng zo'r zamonaqiy degan ma'nosini anglatadi va u XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi yarmi oralig'ida Yevropa hamda A+SH san'ati va adabiyotida shakllangan. U akademizm, klassitsizm, realizmni inkor etuvchi oqim. Bu oqim

vakillari mumtoz san'atning badiiy an'analaridan voz kechish, asarlarda rassomlar o'zlarining shaxsiy kechinma va taasurotlarini ustun qo'yish lozimligini asoslashga harakat qildilar. Ularning ijodida real obrazlar shaklini o'zgartirish, xattoki yo'qotish, ularni o'rnini turli shakl va ranglar bilan almashtirishdek ko'rinishlar o'z aksini topgan.

Moviy - rang nomi, erta tongdagi sof osmon rangi.

Mozaika - rangtasvirning bir turi bo'lib, qattiq materiallar hisoblangan koshin, rangli shisha, marmar, tosh, yog'och, metall parchalarini tekis yuzaga maxsus qorishmalar yordamida yopishtirib yaratiladigan tasvirlash texnikasi. Bunday asarlar ko'pincha devorga, shiftga, uy poliga ishlanadi. Mosh rang - rang nomi, mosh rangiga yaqin bo'lган rang.

Mo'yqalam - qilqalam, rassomlar ishlataidigan tasvir quroli. ularning jundan yoki sintetik materiallardan tayyorlanadi. Mum xaykal - asalari mumidan rangli qilib tasvirlanadigan xaykal. Ko'pincha mashhur shaxslar xaykali shu yo'sinda ishlanadi. Mum xaykallarda xaqiqiy liboslar va turli ish qurollari ham qo'llaniladi.

Mo'jaz rangtasvir – tasvirlanuvchilarni kichik o'lchovda ishlangan suvrati. Ular ko'proq kitob bezagida ishlatiladi. SHuningdek ular mustaqil san'at asari sifatida, turli quticha va guldonlar ustiga ishlanishi ham mumkin. Musavvir - arabcha rassom degan ma'noni bildiradi.

N

Natura–tasvirlash uchun mo'ljallangan odam, xayvon, manzara, predmet va boshqalar hisoblanadi.

Naturshchik–natura vazifasini o'tayotgan odam. Natyurmort janri-tasviriy san'atning janrlaridan biri bo'lib frantsuzcha jonsiz tabiat degan ma'noni anglatadi. Mazkur janrda gullar, meva va sabzavotlar, uy-ro'zg'or buyumlari, san'at va sport atributlari aks etdiriladi. Nilgun-rang nomi, och jigar rang. Noranjvash-rang nomi, apel'sin rangiga yaqin rang.

Novvoti–rang nomi, novvot rangiga o'xshash rang. Novshadil-rang nomi, o'tkir yorqin yashil rang. Nofarmon-rang nomi, och binafsha rang. Nyuans-frantsuzcha so'z bo'lib, narsa va xodisalardagi, tasvirdagi nozik, yaxshi ilxab bo'lmaydigan farq ma'nosini anglatadi. NYutasviriy san'at janrlaridan bari bo'lib, unda kishilar, ko'pincha ayollar yalang'och tarzda tasvirlanadi. O Oq-rang nomi, paxta rangi. Orginal-asli, asl nusha, asl ko'rinish ma'nosini anglatadi. Oldinga intiluvchi ranglar-ranglar davrasida kuzatuvchi e'tiborini tez o'ziga tortuvchi ranglardir. Ular asosan iliq ranglar qizil, sariq, zarg'aldoq, pushti, va boshqa shu kabilar hisobanadi. Orqaga intiluvchi ranglar-ranglar davrasida kuzatuvchi e'tiboridan o'zini olib qochishga harakat qiladigan ranglardir. Ular asosansov uq ranglar-zangori, xavorang, yashil, binafsha kabi ranglardir hisoblanadi.

P

Politra – Frantsuzcha yupqa plastinka degan ma'noni anglatadi. Ular yog'ochdan ishlanadi. Politralar metall, plastmasa, chinni kabi materiallardan ham ishlanishi mumkin. Palitralar buyoqlarni aralashtirish uchun tayyorlangan bo'lib, rangtasvirchi rassomning ish quroli hisoblanadi. Akvarel bo'yoqlarni aralashtirish uchun bir parcha qog'oz ham palitra vazifasini o'tashi mumkin.

Panorama – yunon tilidan olingan bo'lib, ko'rinish ma'nosini anlatadi. Panoramada suvratlar aylana, yarim aylana shaklidagi uzun devorga ishlanadi. Shuningdek, unda ro'y berayotgan voqeа haqida to'liq tasavvur hosil qilish maqsadida suvrat oldiga butafor tasvirlar, uy maketlari, odam, hayvon, tabiat shakllari joylashtiriladi. Panoramalarni tomoshabinlar zaldagi maxsus ajratilgan joydan turib kuzatadilar.

Pane-mishe - frantsuz tilidan olingan bo'lib, ezilgan qog'oz ma'nosini anlatadi. Bu uslubda tasvir qog'oz, karton kabi materiallar sirtida yelimli moddalar, kraxmal, gips kabilarni aralashtirish orqali hosil qilinadi. Bunday tasvirlardan o'yinchoqlar, uy-ro'zg'or buyumlari,

ta’lim jarayonida didaktik materiallarni tayyorlashda foydalaniladi. Pastel – italiyanlar tilidan olingen bo’lib, hamir ma’nosini anglatadi. Rassomlar qoralama va grafik ishlarda keng foydalanadilar. Pastellar rangli ingichka bo’r shaklida bo’lib, ularni qog’ozga yopishqoqlik xususiyatlari kuchli bo’ladi.

Perspektiva – lotin tilidan olingen bo’lib, ravshan ko’raman degan ma’noni anlatadi. Borliqdagi barcha narsalar ma’lum masofadan turib kuzatilganda ular kuzatuchiga o’lchovlari, hajmi, rangi o’zgargandek bo’lib tuyuladi. Bu xodisani perspektiva deb yuritiladi. Tasviriy san’atni nazariy asoslaridan hisoblangan perspektiva maxsus fan darajasiga ko’tarilgan bo’lib, uning chiziqli, havo (rang) va rel’f (hajm perspektivasi) turlari bor.

Plakat – frantsuz tilidan olingen bo’lib, e’lon ma’nosini anlatadi. U tasviriy san’atning grafika turiga kiradi. Plakatlar kishilarni hayotidagi eng muhim bo’lgan muammolarni yechimiga qaratiladi, ular tashviqot va targ’ibot qilinadi. Masalan, tinchlik, ekologiya spid kabilar muhim muammolardir. Plakatlar ko’pincha katta o’lchovda va rangli qilib tasvirlanadi.

Plastilin - xaykaltaroshlikda ishlatiladigan maxsus qorishma. U mum, loy kabi modalardan tashkil topgan bo’lib, hamirsimon yumshoqlikda bo’ladi. Undan xaykaltaroshlar xaykallarni maketini tayyorlashda foydalanadilar.

Plastika - yunon tilidan olingen bo’lib, muloyim, go’zal ma’nosini aglatadigan xakaltaroshlikka doir atama. Unda obrazlar bo’rtirilgan holda ifodali qilib, uyg’unlik qonunlari asosida yaratilgan bo’ladi.

Plener - frantsuz tilidan olingen bo’lib, ochiq joy, keng ko’rinish ma’nosini anglatadi. Ko’pincha rassomlar o’z asarlari uchun etyud, qoralama, ranglamalarni plenerda bajaradilar. Ochiq havoda etyud, qoralama ranglamalar ishlashdan maqsad kunduzgi tabiat va boshqa ob’ektlarning ranglari haqida aniq tasavvur etishdan iborat.

Podramnik – rus tilidan olingen bo’lib, suvrat ishlash uchun mo’ljallangan matoni tarang tortib turishga xizmat qiluvchi qurilma. Ular to’rtta yog’ochni bir-biriga mahkamlanishi orqali to’rburchak yoki kvadrat shaklida tayyorlanadi.

Portret – frantsuz tilidan olingen bo’lib, tasvir, aniqrog’i odam tasviri ma’nosini anglatadi. U tasviriy san’atning bir janri hisoblanadi. Portretda bir yoki bir necha shaxs tasviri ishlanishi mumkin. Ularda odamlarning boshi yoki beligacha bo’lgan yoki to’liq qomati tasvirlanishi mumkin.

Pushti - rang nomi, och zarg’aldoq rang.

Puantilizm - frantsuz tilidan olingen bo’lib, nuqta ma’osini anglatadi. Bu yo’nalishdagi rassomlar o’z suvratlarini ma’lum mayda shakldagi (nuqta, kvadrat, doira v.b.) rang dog’lari yordamida ishlaganlar. Xozirda ham bu yo’nalishda ijod qilayotgan rassomlar bor.

P’edestal – haykal yoki yodgorlik tagiga qo’yiladigan taglik supa. Ular kub, prizma, tsilindr, kesik konus shaklida bo’lishi mumkin.

Pistoqi – rang nomi, pista mag’zining rangi.

Rakurs–odam, xayvon, manzara va boshqa narsalarning ufq chizig’idan ancha yuqori yoki pastdan turib ishlangan tasviri. Bunda tasvirlanadigan narsalar keskin qisqarib ko’rinadilar. **Ranglama**– qisqa vaqt ichida buyoqlar bilan ishlanadigan xomaki rasm.

Rassom–rangtasvir va grafika turida ijod qiluvchi mutaxassis. Ranglar toni-bu ularning och-to’qligi darajasini anglatadi. Ranglar toni bo’yoqlarning tarkibidagi eritmaning oz yoki ko’pligiga qarab belgilanadi. To’q ranglar qora, zangori, binafsha bo’lsa och ranglar oq, puti, xavorang bo’ladilar.

Rang tusi-bu birgina rangni bir necha darajasidagi bir-biridan farq qiluvchi sifatlaridir. Masalan qizil, sariq, yashil, zangori kabilar rang tusi hisoblanadi. qizil rangni qirmizi, pushti,

lolaro'y, gulgun kabi tuslari ham bor. Yoki zangori rangning xavorang, moviy, lojuvard tuslari bo'ladi. Rang to'yimliligi-bo'yoqlarni yorqinligini bildiradi. qorishmada kul rang qanchaliku kam bo'lsa, u shunchalik to'yimli va yorqin, aksincha ko'p bo'lsa shunchalik to'yinmagan bo'ladi. Ranglar spektri-spektr so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, tasavvur ma'nosini anglatadi. Spektrni boshqa turlari kabi optik turi ham bor. Optik spektrda oddiy quyosh nurini linzadan o'tkazilganda oyna uni turli qizil, sariq, zangori, yashil v.b. ranglarga ajratib beradi. Bu xodisani ranglar spektri deb ataladi. Ranglar spektrini tabiatda yomg'idan so'nggi osmonda paydo bo'ladigan ranglar kamalagida ham ko'rish mumkin.

Rangshunoslik-hayotda va san'atda ranglarning kishilar kayfiyatiga, ularni xistuyg'ullariga ta'sirini o'rganadigan fan. Rangshunoslik sanoat, meditsina muammolari bilan ham shug'ullanadi. Tasviriy san'atda rangshunoslik fani ranglar yordamida tasviriy obrazlar yaratish, uning ifodalilagini oshirish masalalarini yechishga harakat qiladi.

Rang (havo) perspektivasi-real borliqdagi narsa va xodisalarning kishi ko'zidan uzoqlashgan sari ularning ranglarida ro'y beradigan xodisa o'zgarishidir. Bunda ularning ranglari xavo, chang, tuman ta'sirida o'z tusini yo'qotadilar.

Ranglar garmoniyasi- garmoniya so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, bog'lanish, mutanosiblik ma'nosini anglatadi. Rangtasvir suvratlarda ishlatilgan turli ranlar bir-biri bilan bog'lansa, hamoxang bo'lsalar ular ranglar garmoniyani tashkil etadilar. Aksincha ular bir-birlarini inkor etsalar, bir-birlari bilan bog'lanmasalar disgarmoniyani keltirib chiqaradilar.

Ranglar qarama-qarshiliği (kontrast ranglar)-rangtasvir suvratlarda ishlatiladigan ranglarni bir-birlariga teskari turlari bor. Ular och va to'q, iliq va sovuq, shaffof va kir, yorqin va xira ranglardir. Ularni qarama-qarshi ranglar deb hisoblanadi. Ikki qaramaqarshi rang yonmayon qo'yilganda ularning birining yorqinligi kuchayadi, ikkinchisiniki esa susayadi.

Ranglar doirasi-asosiy ranglardan (qizil, sariq, zangori) va qo'shimcha ranglarni olinishini ko'rsatuvchi jadval. Ranglar doirasida o'n ikki yoki yigirma to'rt rang tusi doira cheti bo'ylab joylashtirilgan bo'lib, ular iliq va sovuq ranglardan tashkil topadi. Bir rang ustidan doira markazidagi nuqtadan to'g'ri chiziq o'tkazilsa, chiziqning ikkinchi uchi o'sha rangga mutanosib, mos rangga to'g'ri keladi. Rang doirasidagi ranglar asosiy (qizil, sariq, zangori), ranglarni o'zar aralashtirish orqali olinadi. Asosiy uch rangni bir biriga qo'shishi orqali birinchi darajali yana uch rang guruxi olinadi. Paydo bo'lган o'n ikki yonma-yon turgan ranglarni qo'shib yana o'n ikki rang olinadi. Ularni uchinchi darajali ranglar deb hisoblanadi. Natijada rang doirasida yigirma to'rt rang paydo bo'ladi.

Rel'ef- lotin tilidan olingan bo'lib, qabariq, bo'rtma ma'nosini anglatadi. Xaykaltaroshlikda tasvir tekislik yuzasidan qisman bo'rtib chiqqan bo'ladi. Uni birelef va gorelef turlari bir. **Reproduktsiya-** lotin tilidan olingan bo'lib, hosil qilish ma'nosini anglatadi. Tasviriy san'atda reproduktsiya deb suvrat, grafik ish va xaykaltaroshlik asarlarini bosmaxonalar sharoitida ko'p nusxalarda qog'ozda ko'paytirilgan tasvirlariga aytildi.

Restavratsiya- san'at asarlarini ta'mirlash ma'nosini anglatadi.

Retushn- frantsuz tilidan olingan bo'lib, tasvirni tuzatmoq ma'nosini anglatadi. Retushn qalam shaklida bo'lib, uning tarkibi oddiy qalamdan farq qiladi. Unda turli grafik ishlarni kamchiliklarini tuzatishda foydalilanildi.

Ritm-yunon tilidan olingan bo'lib, "oqaman" ma'nosini anglatadi. Tasviriy san'atda asarni ifodalilik vositalardan biri hisoblanib, u tomoshabinga estetik ta'sirini kuchaytirishga yordam beradi. Ritmda suvratdagi detallarni, ularni shakllarini, ranglarini o'lchovlarini qaytarilib yoki almashinib kelishi ritmnini hosil qiladi.

S

Sabza- rang nomi, erta bahorda yangi o'sib chiqqan o't-o'lanlar rangi.

Salon— tasviriy va amaliy san'atga doir materiallar, ish qurollari, san'at asarlari sotiladigan do'kon.

San'atshunos—san'at tarixi, nazariyasi va uning taraqqiyoti bo'yicha tadqiqot olib boruvchi mutaxassis.

San'atshunoslik— san'at tarixi, uning muammolari bilan shug'ullanuvchi fan.

Somoniy—rang nomi, somon rangi, tillasimon rang.

Sangina—lotin tilidan olingan bo'lib, qonga o'xhash ma'noni anglatadi. Ular qalam shaklida, yog'ochsiz temir oksidli tuproqsimon moddalardan tayyorlanadi. Ularni qog'ozga yopishqoqlik xususiyatlari kuchli bo'ladi. Rasomlar ulardan xomaki rasm ishlash jarayonlarida keng foydalanadilar.

Sanoat grafikasi—sanoatda qo'llaniladigan reklama, yorliq, emblema, blanka, konvert, tovar belgilari, etiketka, upakovka va boshqalarni ifodalaydigan grafika turi. Sariq-rang nomi, momaqaymoq (qoqi o't) rangining nomi. Sadaf-rang nomi, och sarg'ish rang. Sepiya-jigar rang bo'yoq bilan ishlangan rasm, tasvir.

Siluet—bir randa, hajmsiz qilib ishlangan rasm. Uni sharpa tasvir desa ham bo'ladi. Siyobbing rang nomi, simob rangi. Simmetriya-yunon tilidan olingan bo'lib, o'lchovdosh degan manoni anglatadi. Tasviriy san'atda suvratdagi detalni yoki narsani o'rtasidan vertikal o'q chiziq o'tkazilganda uning chap va o'ng tomonlarini bir-biriga tengligi kuzatilsa u simmetrik shakl hisoblanadi. Yoki suvratning chap va o'ng yoki yuqori va pastki qismlaridagi o'zaro tenglik yoki o'xhashlik ham simmetriyani bildiradi. Masalan, kapalak, simmetrik shaklga ega. Simmetriyani o'qli va markaziy turlari bo'ladi. O'qli simmetriyada simmetriya o'qi bitta bo'lsa, markaziy simmetriyada u bir necha bo'lishi mumkin.

Slayd—diapozitiv, fotoplyonkaga tushirilgan suvrat tasviri.

Sovuq ranglar—yashil, zangori, binafsha ranglarni shunday deb ataladi.

Soya—narsalarning yorug'lik tushmaydigan qismida hosil bo'lgan ko'rinishi. Soyalarning ikki xili bo'ladi. Ular shaxsiy soya va tushuvchi soyalardir.

Sous—qalam shaklidagi rassomning ish quroli. U yog'ochsiz bir rangda bo'lib, o'lchovi 4-5 sm.dan oshmaydi. Sousdan rassomlar ko'proq xomaki ishlar jarayonida foydalanadilar.

Supermuqova — kitob badiiy bezagida ishlatiladigan qog'ozga ishlangan tasvir. Ular bezakli va rangli holda kitoblarni tashqi ta'sirdan saqlash maqsadida kitob ustiga kiydiriladi. Supermuqovani sarmuqova ham deyishadi.

Suvrat — yuksak badiiy saviyada ishlangan rangtasvir yoki grafik tasvir.

Sfinks - Qadimgi Misr xaykaltaroshligida uchraydigan tanasi sher boshi odam tasviri.

T

Tarixiy janr—tarixiy voqealarni tasvirlovchi tasviriy san'at janri.

Tasviriy san'at—borliqda mavjud va mavjud bo'limgan mavjudot, narsa va xodisalarni tasvirlovchi san'at turi.

Tempera-italyanlar tilidan olingan bo'lib, bo'yoq qorishtirish ma'nosini anglatadi. Bu bo'yoq suv bilan eritib ishlatiladi. U ko'proq binolarni bezagida, rangtasvir ishlarda keng qo'llaniladi. Tarkibida maxsus moddalar bo'lganligi sababli quyosh va yorug'lik ta'sirida o'z rangini o'zgartirmaydi, uzoq vaqtgacha o'z tusini saqlab qoladi. Tushn-qora siyoh. Shu vosita bilan ishlagan asar ham tushb deyilgan.

To'tiyo-rang nomi, yorqin yaltiroq yashil rang.

To'tigiy-rang nomi, zangori va yashil bo'yoqlarning qo'shilishidan olingan rang.

Tulum-xayvon, qush, baliq kabilarni maxsus materiallar yordamida o'ziga o'xshatib tayyorlangan nusxasi. Tushuvchi soya-soyalar nazariyasida ular ikkiga shaxsiy va tushuvchi soyalarga bo'linadi. Predmet tanasidagi soya shaxsiy soya, bir predmetdan ikkinchi predmetga yoki tekislikka tushgan soya tushuvchi soya deb yuritiladi.

Titul-lotin tilidan olingan bo'lib, yozuv ma'nosini anglatadi. Titul varroq kitoblarda muqovadan keyin keladi. Ularda kitob muallifi, kitobning nomi, kitob nashr etilgan shahar, un nashr etilgan yili yozilgan bo'ladi.

Tors-italyanlar tilidan olingan bo'lib, inson tanasi ma'nosini anglatadi. qadimda badiiy o'quv yurtlarida talabalar boshsiz, qo'lsiz, oyoqsiz gipsdan ishlangan odam tanasini rasmini ishlab chizishni o'rganganlar.

Triptix-yunon tilidan olingan bo'lib, u buklangan degan ma'noni anglatadi. Aslida u yagona umumiy mazmun va g'oyani ifodalaydigan uch bo'lakdan iborat rangtasvir, yoki grafika asari hisoblanadi. U Ufq chizig'i-yunon tilidan olingan bo'lib, chegaralash ma'nosini anglatadi. U kuzatuvchining ko'z balandligida tasavvur etiladigan gorizontal (yotiq) chiziq. Ochiq kengliklarda u kuzatuvchi tasavvuridagi osmon bilan yerni kesishgan joyidagi chiziqni bildiradi.

F

Faktura-lotin tilidan olingan bo'lib, tuzilishi ishlovi ma'nosini anglatadi. Unda asosan narsalarni ustki qismining tuzilishi nazarda tutiladi. Faktura-silliq, g'adir-budir, tekis bo'lishi mumkin.

Fas-tasviriy san'atda rasmi ishlanayotgan mavjudot va narsalarning oldidan ko'rinishidir.

Fleyts-katta o'lchovdag'i va kenglikdagi mo'yqalam. Ular ko'pincha bino va maxobatli rangtasvir ishlarini bajarishda ishlatiladi

Fon –lotin tilidan olingan bo'lib tubi, asosi, zamini ma'nosini anglatadi. Tasviriy san'atda fon rasmning orqa qismidagi tasvirlari yoki tekis bo'yalgan qismidir.

Firuza-rang nomi, zangori yorqin tosh rangi.

Frontispis– lotin tilidan olingan bo'lib, oldi, ko'raman ma'nosini anglatadi. U kitob titul varag'inining chap, muqovaning orqa tomonidagi bezakli sahifasi hisoblanadi. Frontispisda kitob muallifining rasmi yoki u haqda ma'lumot, kitob mazmuni, g'oyasi bilan bog'liq illyustratsiya beriladi.

Frontal kompozitsiya-Frontal so'zi ro'parasidan, to'g'risidan ko'rinishi ma'nosini anglatadi. Bunday kompozitsiyalar, rangtasvir, grafika, rel'fli bo'ladi va tekis yuzalarda aks etdiriladi. Ularni faqat bir tomonidan, old tomonidan kuzatish mumkin.

Futurizm-lotin tilidan olingan bo'lib kelajak ma'nosini anglatadi va u o'z mazmuniga ko'ra kubizmga yaqin turadi. Futurizm XX asr boshlarida Frantsiyada paydo bo'lgan avngardizm oqimi hisoblanadi. Bu oqim vakillari kelajak san'atini yaratishni maqsad qilib an'naviy madaiyat va sanatning moxiyati va mazmunin inkor etganlar, katta mashinalashgan shahar yutuqlarini, ularning harakatini, kuch-quvvatini ulug'laganlar. Futuristlar o'z asarlarida shakllarining o'zaro kesishushi, surilishi, to'qnashuvlarini, motivlarni ko'plab qaytarilishini ifodalaganlar. Bu orqali ular zamonaviy shaharlardagi shiddatli harakatlarni tasvirini ko'rsatmoqchi bo'lganlar. X Xromatik ranglar-atamasi yunon tilidan olingan bo'lib, rang, bo'yoq ma'nosini anglatadi. Ular qatoriga oq, qora, kul rang ranglardan tashqari barcha ranglar kiradi.

CH

Chiziqli perspektiva-deb narsalarning kishilar ko'zidan uzoqlashgan sari ularning o'lchovlarida ro'y beradigan qisqarib ko'rinishiga aytildi.

Chuqur fazoviy kompozitsiya-bunday kompozitsiyalar asosan jamoat va turar-joy binolarini ichki qismini, xususan yo'lak, karidor, foe, uy xonasi kabilarni loyihalashda ishlatiladi.

SH

Shaxsiy soya-tasvirlanayotgan mavjudotlar tanasidagi yoki ularning tasviridagi soya.

Shedu-Qadimgi Sharq, Oldi Osiyo xaykaltaroshligida uchraydigan atama. Unda boshi odam, tanasi buqa tasvirlanadi.

Shingob-rang nomi, tilla rangiga o'xshash rang.

Shtrixlash-qalam yoki shu kabi ish qurollari bilan rasm chizganda qo'llaniladigan uslub.

ILOVALAR

O'QUV DASTURI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI



RANGTASVIR
FANINING

ISHCHI O'QUV DASTURI

3-kurs uchun

Bilim sohasi: 200 000 - San'at va gumanitar fanlar
Ta'lif sohasi: 210 000 - San'at
Ta'lif yo'nalishi: 60210500-Rangtasvir (dastgohli)

Fan/modul kodi RT20238	O`quv yili 2023/2024	Semestr 5/6	EST8 - Kreditlar 6+6= 12
Fan/modul turi Majburiy	Ta`lim tili O`zbek		Haftadagi dars soatlari 5-semestr 6-soat 6- semestr 6-soat
Fanning nomi	Auditoriya mashg`ulotlari (soat)	Mustaqil ta`lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Rangtasvir	180	180	360

I. FANNING MAZMUNI

Fanni o`qitishdan maqsad - talabalarning Rangtasvir fani to`g`risidagi ilmiy, nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirish.

Fanni vazifasi - “Rangtasvir” fani o`quv jarayoni mobaynidagi o`quv mashg`ulotlarida talabalar antik davrda yaratilgan portretlarning gipsdan nushalari va inson qiyofasining turli ko`rinishlari - portret, inson jussasining libosli va libossiz yarim qomati, libosli va libossiz to`liq jussa va ikki jussadan tashkil topgan inter`yerdagi guruxli portret hamda ikki jussadan tashkil topgan libossiz qomat o`quv vazifalarini bajarish jarayonida kasb mahorati egallashlari talab etiladi, ular bu jarayonda rangtasvir ustasi sifatida shakllanadilar. Talabalar bu jarayonda turli sharoit va muxitda grafik vositalarda tasvir yaratish mobaynida tasvir qonun qoidalari, manzara va turli ob`yektlarni rangtasvirda tasvirlash nazariyasi, qiyofa hususiyatlari, inson anatomiyasi plastik sifatlari, tuzilishi hamda ularni ma`lum tabiiy yoki sun`iy yorug`lik man`bai bilan yoritilgan sharoitda badiiy bo`yyoqlar orqali tasvirlashni o`rgashishdan iborat.

II. ASOSIY AMALIY QISM (AMALIY MASHG`ULOTLARI)

II.1. FAN TARKIBIGA QUYIDAGI MAVZULAR KIRADI:

1-mavzu. Libossiz odam qomatini tahlili. Libossiz erkak qomati. (Kontropostda xolatida. Keksa chayir kishi.) Inson qomatin turli holatlarida o`rganish.

Libossiz erkak qomatini tasvirlash (kontrapost holatida. Keksa chayir kishi). Qomatni bosh, yelka, ko`krak, tos, oyoq qismlari o`ziga hos turli yo`nalishda aks

ettiriladi qismlarni bog'lashda uning yaxlitligini saqlab qolish. Libossiz odam qomatini tasvirlashda gavdaga qo'l, oyoq mushaklarining tuzulishi va ularning anatomik taxlilini kuzatish, nisbatlarni to`g`ri olish, o'lchamlar bilan ishslash talabi, metodik bosqichma-bosqich amaliy ishni bajarish.

2-mavzu. Tik turgan holatdagi libossiz qomat. (sarv qomat kishi)
Inson qomatini tik turgan holatini turli ko'rinishlarda o'rganish.

Tik turgan holatdagi libossiz inson qomat tahlil qilinadi so'ngra chuqur o'rganiladi. Inson qomatining anatomik taxlili, mushaklarning va muskullarning xolati, gavda qismiga qo'l, oyoq, panjalar, ularning joylashishi, xarakterli xolatini aniqlashdan ishni boshlaydi. Yumshoq va qattiq qalamlar bilan inson qomatiga og'ir yengil tus beriladi va tus, blik, yorug'-soya mutanosibligiga rioya qilib qo'llaniladi.

3-mavzu. Libossiz erkak qomati murakkab harakatda. (Keksa chayir kishi)
Inson qomatini murakkab holatini turli ko'rinishlarda o'rganish.

Libosiz erkak qomatini murakkab holati taxlil qilib o'rganiladi. Murakkab xolatdagi inson qomatining tuzulishi, anatomik xolati, mushaklar va muskullar joylashishi, ularning murakkab xolatda tuzulishi o'rganiladi. Inson libossiz qomati murakkab xarakat vaqtida gavda skeletining tuzulishi, gavda, yelka, qo'l, oyoq nisbatlari aniq o'lchamlar asosida qog'ozga to`g`ri joylashtirib olinadi. Natura keksa chayir kishi bulish kerak.

4-mavzu. Libossiz erkak qomati o'tirgan xolatda (Yosh erkak qomat)
Inson qomatini o'tirgan holatini turli ko'rinishlarda o'rganish.

Libossiz erkak qomati o'tirgan holatida tasvirlash vazifasini bajarishda inson qomatini o'tirgan xolatida anatomik tuzulishi o'rganish va gavdaga nisbatan qo'l, oyoq, yelka, mushaklar-muskullar xolatini chuqur o'rganish.

(Yosh erkak qomati) libossiz o'tirgan odam qomati. (Murakab bo'limgan drapirovkalar rangida ishslash va qomat harakati juda keskin bo'limgan holda yuz qiyofasi – obrazini ochib berish).

5-mavzu. Libossiz odam qomati (murakkab hollaridagi tahlili) Libossiz erkak qomati tayanch nuqtalari bilan. (Keksa chayir kishi) Inson qomatining tayanch nuqtalarini aniqlangan holda tasvirlash.

Libossiz odam qomati tayanch nuqtalari bilan urganiladi. O'lcham orqali qomatning qo'llariga bo'lgan nisbatini aniqlash va qo'llari bilan bog'lash, qomatdagi plastik yechimni topib, planshetga to`g`ri joylashtirish talab qilinadi. Pastanovkada qo'llariga bog'liq bo'lganligi sababli libosning naqsh qismlarini ishlanishi lozim bo'ladi.

6-mavzu. Yarim qomatli portret qo'llari bilan (Yosh ayol kishi). Inson qomati harakat holatlarini kuzatish va tasvirlash.

Libossiz yarim qomat suyangan holati (erkak qomati) anatomiyasi urganiladi O'lcham orqali qomatning qo'llariga bo'lgan nisbatini aniqlash va qo'llari bilan bog'lash, qomatdagi plastik yechimni topib, planshetga to`g`ri joylashtirish talab

qilinadi. Pastanovkada qo'llariga bog'iq bo'lganligi sababli libosning naqsh qismlarini ishlanishi lozim bo'ladi.

7-mavzu. Libossiz yarim qomat suyangan holatda (Erkak yoki ayol qomati) Erkak yoki ayol qomati va qo'llari tuzilishining harakterini o'rganish.

Postanovkani fazoviy bo'shliqdagi ko'rinish tasvirlanadi. Bosh va yelkaning o'zaro anatomik bog'liqligi, yelka, qo'llar va tananing o'zaro nisbat o'lchamlarini topib joylashtiriladi, kompozitsion yechimi aniqlashtirish va xarakatni ko'rsatish lozim bo'ladi. Talabalarning diqqat e'tibori modeldagi qo'l xarakteri va tuzilish xususiyatlarga qaratiladi, yelka, bilak, kaft, barmoq suyaklari kabi qo'lning qismlarini bog'lash, ularni katta shakl tasviriga buysundirishni qalam orqali ifodalash vazifasi beriladi.

8-mavzu. Libossiz yotgan odam qomati. (Murakkab drapirovkalar rangida ishlash).

Postanovka nisbatan soddarоq ko'rinishda bo'lgани ma'qul. Modelni fazoviy fondan ajratib, nur va soya munosabatlarini o'rganish, issiq-sovuq koloritda rivojlantirib borish kerak. Yalang'och inson qomati qurilmasi bilan tanishish, o'rganish va uni yaxlit holatda tasvirlash.

II.2. AMALIY MASHG'ULOT MAVZULARINI TAQSIMLANISHI

Nº	Mavzular	Soati
3-kurs V semestr		
I	Libossiz odam qomatini tahlili. Libossiz erkak qomati. (Kontropostda xolatida. Keksa chayir kishi.) Inson qomatin turli holatlarida o'rganish.	22
1.	<i>Qog'ozga to`gri joylashtirish</i>	2
2.	<i>O`zaro nisbatlarini topish</i>	2
3.	<i>Xarakterini o'rganish</i>	2
4.	<i>Konstruktiv tuzilishini topish</i>	2
5.	<i>Yorug'soya nisbatlarini topish</i>	2
6.	<i>Bosqichlar asosida ishslash</i>	2
7.	<i>Bosqichlar bilan rangda ishslash</i>	2
8.	<i>Kolorit yechimini ifodalash.</i>	2
9.	<i>Konstruktiv nisbatlar topish</i>	2
10.	<i>Umumlashtirish</i>	2
11.	<i>Yaxlitlash va tugallash</i>	2
II	Tik turgan holatdagi libossiz qomat. (sarv qomat kishi) Inson qomatini tik turgan holatini turli ko'rinishlarda o'rganish.	22
1.	<i>Qog'ozga to`gri joylashtirish</i>	2
2.	<i>O`zaro nisbatlarini topish</i>	2
3.	<i>Xarakterini o'rganish</i>	2
4.	<i>Konstruktiv tuzilishini topish</i>	2
5.	<i>Yorug'soya nisbatlarini topish</i>	2
6.	<i>Bosqichlar asosida ishslash</i>	2

7.	<i>Bosqichlar bilan rangda ishlash</i>	2
8.	<i>Kolorit yechimini ifodalash.</i>	2
9.	<i>Konstruktiv nisbatlar topish</i>	2
10.	<i>Umumlashtirish</i>	2
11.	<i>Yaxlitlash va tugallash</i>	2
III	Libossiz erkak qomati murakkab harakatda. (Keksa chayir kishi) Inson qomatini murakkab holatini turli ko'rinishlarda o'rganish.	22
1.	<i>Qog'ozga to`gri joylashtirish</i>	2
2.	<i>O`zaro nisbatlarini topish</i>	2
3.	<i>Xarakterini o`rganish</i>	2
4.	<i>Konstruktiv tuzilishini topish</i>	2
5.	<i>Yorug'soya nisbatlarini topish</i>	2
6.	<i>Bosqichlar asosida ishlash</i>	2
7.	<i>Bosqichlar bilan rangda ishlash</i>	2
8.	<i>Kolorit yechimini ifodalash.</i>	2
9.	<i>Konstruktiv nisbatlar topish</i>	2
10.	<i>Umumlashtirish</i>	2
11.	<i>Yaxlitlash va tugallash</i>	2
IV	Libossiz erkak qomati o'tirgan xolatda (Yosh erkak qomati) Inson qomatini o'tirgan holatini turli ko'rinishlarda o'rganish.	24
1.	<i>Qog'ozga to`gri joylashtirish</i>	2
2.	<i>O`zaro nisbatlarini topish</i>	2
3.	<i>Xarakterini o`rganish</i>	2
4.	<i>Konstruktiv tuzilishini topish</i>	2
5.	<i>Yorug'soya nisbatlarini topish</i>	2
6.	<i>Materiallikni topish</i>	2
7.	<i>Bosqichlar asosida ishlash</i>	2
8.	<i>Bosqichlar bilan rangda ishlash</i>	2
9.	<i>Kolorit yechimini ifodalash.</i>	2
10.	<i>Konstruktiv nisbatlar topish</i>	2
11.	<i>Umumlashtirish</i>	2
12.	<i>Yaxlitlash va tugallash</i>	2
	Jami	90
	VI semestr	
I	Libossiz odam qomati (murakkab hollaridagi tahlili) Libossiz erkak qomati tayanch nuqtalari bilan. (Keksa chayir kishi) Inson qomatining tayanch nuqtalarini aniqlangan holda tasvirlash.	22
1.	<i>Qog'ozga to`gri joylashtirish</i>	2
2.	<i>O`zaro nisbatlarini topish</i>	2
3.	<i>Xarakterini o`rganish</i>	2
4.	<i>Konstruktiv tuzilishini topish</i>	2
5.	<i>Yorug'soya nisbatlarini topish</i>	2
6.	<i>Bosqichlar asosida ishlash</i>	2
7.	<i>Bosqichlar bilan rangda ishlash</i>	2

8.	<i>Kolorit yechimini ifodalash.</i>	2
9.	<i>Konstruktiv nisbatlar topish</i>	2
10.	<i>Umumlashtirish</i>	2
11.	<i>Yaxlitlash va tugallash</i>	2
II	Yarim qomatli portret qo'llari bilan (Yosh ayol kishi). Inson qomati harakat holatlarini kuzatish va tasvirlash.	22
1.	<i>Qog'ozga to`gri joylashtirish</i>	2
2.	<i>O`zaro nisbatlarini topish</i>	2
3.	<i>Xarakterini o`rganish</i>	2
4.	<i>Konstruktiv tuzilishini topish</i>	2
5.	<i>Yorug'soya nisbatlarini topish</i>	2
6.	<i>Bosqichlar asosida ishslash</i>	2
7.	<i>Bosqichlar bilan rangda ishslash</i>	2
8.	<i>Kolorit yechimini ifodalash.</i>	2
9.	<i>Konstruktiv nisbatlar topish</i>	2
10.	<i>Umumlashtirish</i>	2
11.	<i>Yaxlitlash va tugallash</i>	2
III	Libossiz yarim qomat suyangan holatda (Erkak yoki ayol qomati) Erkak yoki ayol qomati va qo'llari tuzilishining harakterini o`rganish.	22
1.	<i>Qog'ozga to`gri joylashtirish</i>	2
2.	<i>O`zaro nisbatlarini topish</i>	2
3.	<i>Xarakterini o`rganish</i>	2
4.	<i>Konstruktiv tuzilishini topish</i>	2
5.	<i>Yorug'soya nisbatlarini topish</i>	2
6.	<i>Bosqichlar asosida ishslash</i>	2
7.	<i>Bosqichlar bilan rangda ishslash</i>	2
8.	<i>Kolorit yechimini ifodalash.</i>	2
9.	<i>Konstruktiv nisbatlar topish</i>	2
10.	<i>Umumlashtirish</i>	2
11.	<i>Yaxlitlash va tugallash</i>	2
IV	Libossiz yotgan odam qomati. (Murakkab drapirovkalar rangida ishslash).	24
1.	<i>Qog'ozga to`gri joylashtirish</i>	2
2.	<i>O`zaro nisbatlarini topish</i>	2
3.	<i>Xarakterini o`rganish</i>	2
4.	<i>Konstruktiv tuzilishini topish</i>	2
5.	<i>Yorug'soya nisbatlarini topish</i>	2
6.	<i>Materiallikni topish</i>	2
7.	<i>Bosqichlar asosida ishslash</i>	2
8.	<i>Bosqichlar bilan rangda ishslash</i>	2
9.	<i>Kolorit yechimini ifodalash.</i>	2
10.	<i>Konstruktiv nisbatlar topish</i>	2
11.	<i>Umumlashtirish</i>	2
12.	<i>Yaxlitlash va tugallash</i>	2
	Jami	90

Amaliy mashg'ulotlar mul'timedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem. guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

III. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARINI TAQSIMLANISHI

Nº	Mavzu nomi	TMI shakli	Soati
3-kurs V-semestr			
1	Me`morchilik shakkllari ishtirokida tuzilgan natyurmort.(sun'iy yorug'lik yordamida)	O'tilgan dars mashg'ulotlari asosida mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
2	Kuz inomlaridan tuzilgan natyurmort. (sun'iy yorug'lik yordamida)	O'tilgan dars mashg'ulotlari asosida mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
3	Gips rozetka ishtirokida mavzuli notyurmort. (sun'iy yorug'lik yordamida)	O'tilgan dars mashg'ulotlari asosida mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
4	Me`morchilik shakkllari ishtirokida tuzilgan natyurmort.(tabiiy yorug'lik yordamida)	Mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
5	Kuz inomlaridan tuzilgan natyurmort. . (tabiiy yorug'lik yordamida)	Mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
6	Gips rozetka ishtirokida mavzuli notyurmort. (tabiiy yorug'lik yordamida)	Mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
7	Kapitel shakkllardan tuzilgan natyurmort(<i>qora qalam</i>) (sun'iy yorug'lik yordamida)	O'tilgan dars mashg'ulotlari asosida mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
8	Xona inter'erda tuzilgan natyurmort. (<i>sangina, ko`mir qalamcha, sous</i>)	O'tilgan dars mashg'ulotlari asosida mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
9	Amaliy san`at buyumlari ishtirokida tuzilgan natyurmort: <i>sangina, ko`m. qalam., sous</i>	O'tilgan dars mashg'ulotlari asosida mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
10	Mato buklamlardan tuzilgan natyurmort (<i>grizael</i>). (sun'iy yorug'lik yordamida)	Mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
	Jami		90
	VI-semestr		
1	Bosh suyagi 3 xil ko'rinishda (suniy yorig'liq yordamida)	Mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
2	Qirqma bosh (obrubovka)	Mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
3	Antik davr xaykali (Sakrat, Venera) . (sun'iy yorug'lik yordamida)	Mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
4	Uy ro'zg'or buyumlari va meva, sabzovotlardan tuzilgan natyurmort	Mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
5	Kopitel' ishtirokida tuzilgan natyurmort	Mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
6	Gipsdan yasalgan antik bosh xaykali ishrokida	Mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9

	natyurmort		
7	Odam boshini 2 tomondan ko`rinishi	Mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
8	Odam portreti elkalari bilan	Mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
9	Odam tanasining qismlari (qo`l, tirsak, panja, barmoq, tovon)	O`tilgan dars mashg`ulotlari asosida mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
10	Odam portreti (grizal` usulda)	Mustaqil ijodiy ihslar bajarish	9
	Jami		90
	3-kurs bo'yicha jami		180

Fan bo'yicha kurs ishi. Fan bo'yicha kurs ishi o'quv rejada rejalashtirilmagan.

III.1.FAN O'QITILISHINING NATIJALARI (SHAKLLANADIGAN KOMPETENTSIYALAR)

Fanni o`zlashtirish natijasida talaba:

- Tasvirni formatga nisbatan joylashtirishni bilish;
- Odam boshini konstruktiv yechimida tasvirlay olish;
- Odam boshi tasvirini xarakterini, o`xshashligini va psixologik tomonlarini a`lo darajada kursatib berish;
- Qo`l, oyoq tasvrini konstruktiv echimida tasvirlay olish;
- Yarimqomatning anatomik tuzilishini bilish va chiza olish;
- Libossiz yarimqomat tasviri tuslar orqali(tonal'niy razbor) mukammal darajada topilganligi. Yorug' soyalarni tasvirlay olish;
- Tasvirlangan detallar(ko`z, burun, kuloq, lab, qo`l, qo`l panjası) bajarish;
- Libossiz qomat tasviri tuslar orqali (tonal'niy razbor) mukammal darajada topilganligi. Yorug' soyalarni tasvirlay olish;
- Berilgan mavzu bo'yicha postanovkalarni tugallangan holatiga olib kelish;
- Qoralamalarni yuqori son va sifat mutonosibligini bajarish;
- Manzaraning chizmatasviri yuqori son va sifat uyg'unligini bajarish;
- Asarlardan mavzuga oid nusha ko'chirishni bilish;

III.2. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI

- guruhlarda ishlash
- individual loyihamalar
- jamoa bo`lib ishlash va himoya qilish uchun loyihamalar

III.3. KREDITLARNI OLISH UCHUN TALABLAR

Fanga ajratilgan kreditlar talabalarga har bir semestr bo'yicha nazorat turlaridan ijobiy natijalarga erishilgan taqdirda taqdim etiladi.

Fan bo'yicha talabalar bilimini baholashda oraliq (ON) va yakuniy (YaN) nazorat turlari qo'llaniladi. Nazorat turlari bo'yicha baholash: 5 – “a'lo”, 4 – “yaxshi”, 3 – “qoniqarli”, 2 – “qoniqarsiz” baho mezonlarida amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat o'quv semestrida bir marta yozma ish shaklida o'tkaziladi.

Talabalar semestr davomida fanga ajratilgan amaliy (seminar) mashg`ulotlarda munta zam, har bir mavzu bo'yicha baholanib boriladi va o'rtachalanadi. Bunda talabaning amaliy (seminar) mashg`ulot hamda mustaqil ta'lif topshiriqlarini o'z vaqtida, to'laqonli bajarganligi, mashg`ulotlardagi faolligi inobatga olinadi.

SHuningdek, amaliy (seminar) mashg`ulot va mustaqil ta'lif topshiriqlari bo'yicha

olgan baholari oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda inobatga olinadi. Bunda har bir oraliq nazorat turi davrida olingan baholar o'rtachasi oraliq nazorat turidan olingan baho bilan **qayta o'rtachalanadi**.

O'tkazilgan oraliq nazoratlardan olingan baho **oraliq nazorat natijasi** sifatida qaydnomaga rasmiylashtiriladi.

Yakuniy nazorat turi semestr yakunida tasdiqlangan grafik bo'yicha yozma ish shaklida o'tkaziladi.

Oraliq (ON) va yakuniy (YaN) nazorat turlarida:

Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho**;

Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho**;

Talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho**;

Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas, deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Rangtasvir amaliyoti. O'quv-uslubiy qollanma. Toshmurodov M.N. 2010y
2. Rangshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma. R.A.Xudoyberganov. 2006
3. Tasviriy san'atda rang. O'quv qo'llanma. R.A.Xudoyberganov. 2004
4. Traditional oil painting. O'quv qo'llanma. Vilgil Elliott.2007 y
5. Alla pria II. O'quv qo'llanma. Richard Schmid. 2013y
6. Rangtasvir. O'quv qo'llanma. Jumaniyazov Sh.R.2018 y

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. Mirziyov Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. elektron resurs. T., Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar', №11.
2. Li N.G.Golova cheloveka. "Osnovi uchebnogo akademicheskogo risunka", uchebnii. M.:Eksmo, 2012 g.480 s. il. 3 ekz.
3. 6.Safaraliev D.A. "Uchebniy risunok v Akademii Xudojestv. Al'bom. M.: Izobrazitel'noe Iskusstvo, 1990 g. 160 s. il. 3 ekz.
4. Bammes G. "Izobrajenie figuri cheloveka". Posobie dlya xudojnikov, prepodovateley i uchashixsy. Izdatel'stvo Fol'k, Berlin, 1984 g. 336 s. il. 3 ekz.
5. Dajina V.D. "Mikelandjelo". Risunok v ego tvorchestve. Metodicheskoe posobie. M.:Iskusstvo, 1986 g. 216 s. il. 1 ekz.
6. Radlov N.E. «Risovanie s naturi». Metodicheskoe posobie. L., Xudojnik. RSFSR.1978 g. 130 s. il. 1 ekz.
7. James Lansel McElhinney & the instructors of The Art Students League of New

York. "Classical Life Drawing Studio". Elektron variant. NY., "Watson-Guptill". USA.
2010 y. 143 p.

AXBOROT MANBAALARI

1. www.ocinka.ru
2. www.textile-press.ru
3. www.vgik.info

Namangan davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan:

- "Amaliy san'at va rangtasvir" kafedrasining 2023-yil, 28-iyun 11-sonli majlisida muhokama qilingan va tasdiqqa tavsiya etilgan.
- San'atshunoslik fakulteti kengashining 2023-yil, 29-iyun 11-sonli majlisida ma'qullangan va tasdiqqa tavsiya etilgan.
- NamDU o'quv-uslubiy kengashining 2023-yil, 11-iuyl 12-sonli majlisida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Fan/modul uchun mas'ul:

A.A.Amanullayev - Namangan davlat universiteti "Amaliy san'at va rangtasvir" kafedrasи p.f.n., dotsenti.

Taqrizchilar:

H.Rizayev – NamDU "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasи dotsenti.

D.Pulatov – NamDU "Amaliy san'at va rangtasvir" kafedrasи s.f.n, dotsenti.

NamDU o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

X.Mirzaaxmedov

San'atshunoslik fakulteti dekani

A.Sayfitdinov

Amaliy san'at va rangtasvir kafedrasи mudiri


A.Amanullayev


Tuzuvchi


A.Amanullayev

TARQATMA MATERIALLAR














Lateral view











13.02.06 AMERAL




Миронов ИВ-51

Миронов ИВ-51



Мечников





TESTLAR

**Amaliy san'at va rangtasvir kafedrasi 5150800 – Rangtasvir (dastgohli)
yo'nalishi 3-kurs talabalari uchun “Rangtasvir” fanidan**
TEST SAVOLLARI

Test topshirig'i	A	B	S	D
Yorug'likni prizma yordamida ko'p rangli ekanligini isbotlagan olim	*I. Nyuton	M. V. Lomonosov	X. Gyugens	J. K. Maksvel
Etti go'zal devoriy sur'atini qaysi rassom yaratgan?	*Chingiz Ahmarov	Ro'zi Choriev	Javlon Umarbekov	Malik Nabiev
Janr nima?	*San'atning mazmunan turlari.	Janr ijod.	Tasviriy san'at asarlarining syujetini ifodaviy shakli.	Tasviriy san'atning bir turi
Konservatoriya binosiga keramikadan ishlangan «Ilxom farishtasi» pannosi muallifi kim?	*Ozod Xabibullin	Bahodir Jalolov	Jur'at Rahmanov	Vladimir Burmakin
Lenardo da Vinching “Monna Liza” portretida qanday ranglardan foydalilanilgan?	*Och mallarang, jigarrang, yashil, qoramtil	Och mallarang, qizil, binafsha, jigarrang	Sariq, qizil, zargori, och favorang	Oq, sariq, yashil, qora va jigarrang
Mashxur“Jonajon o'lka ” asari muallifi kim?	*O'. Tansiqboev	M. Nabiev	B. Jalolov	O.Qozoqov
Ochiq havodagi natyurmortda qanday jixatlar seziladi	*Buyumlarni shakli, rangi va yorug'-soyalar	Buyumlarni faqat soyasi	Orqa plan	Tabiat manzarasi
Portret rangtasvirda birinchi planda nimalarni tasvirlashga alohida e'tibor qaratiladi	*Bosh qismi va qo'llarni tasvirlashga	Qo'llarni va kiyimlarni tasvirlashga	Kiyimlarni bezakdorligiga	Oyoqning holatiga

Mashhur “Teatr lojasida” kartinasining muallifi kim?	*Z. Kovalevskaya	N.Kashina	N.Volkov	Yu.Elizarov
Rangtasvirda rang-baranglikni kuchaytirish deganda nimalar tushuniladi?	*Har bir buyumni lokal ranglarini va buyumlarni bir-biriga tushgan reflekslarni kuchaytirish	Sof spektr ranglarni qo'llash	Kulrangdan foydalanish	Qizil rangdan ko'proq foydalanish
Tasviriy san'at janrlari qaysi qatorda ko'rsatilgan?	*Natyurmort, manzara, portret, tarixiy, maishiy, botal...	Haykaltaroshlik, rangtasvir, grafika	Ofort, ksilografiya, yog'och o'ymakorligi	Musiqa, teatr, kino, televiedeniya
Ijodkor bu.....	*Yangi asarlar yaratuvchi, izlanuvchi.	Yaratuvchi izlanuvchi.	Asarlar yaratuvchi	Yangilik yaratuvchi
Tasviriy san'atda rasm ishlash tartibi qanday?	*Kuzatish, xomaki rasm ishlash, bo'yoq berish.	Xomaki rasm ishlash, kuzatish, bo'yash.	Bo'yash, xomaki rasm ishlash, kuzatish.	Kuzatish, bo'yash, xomaki rasm ishlash.
Stilizatsiya so'zining ma'nosi nima?	*Soddalashtirish	Naqshga shakl beruvchi chiziq	Murakkablash tirish	Oddiy bajarish
Kontrast ranglar deb nimaga aytildi?	*Bir-biridan keskin farq qiluvchi rang	Uchta bir xil rang	Ikkita bir xil rang	Bir-biriga yaqin bo'lgan rang
Tasvirda narsa va predmetlarning mazmun tashkil qilib, tartibli joylashuvi nima deyiladi?	*Kompozitsiya	Komponovka	Kontsovka	Perspektiva
Tasviriy san'atda ishlataladigan terminlar	*Kontrast, garmoniya, akvarelb	Sangina, sous, ko'mir	Axta, bolga, xoka	Pastelb
Rang koloriti deganda nimani tushunasiz?	*Rang tusi	Ranglar mutanosibligi	Jilo berish	Ranglar qaramaqarshiligi
Triptix nima?	*Uch bo'lakdan iborat bir mavzudagi san'at asari	Uch haykaltarosh tomonidan ishlangan bir asar	Uch xil mavzudagi uchta asar	Uch ko'rinishdagi, uchta rassom tomonidan ishlangan asar
Akvarelda qog'oz yuzasiga rang berish qay yo'sinda	*chapdan o'nga va so'ngra pastga	O'ng tomondan	Pastdan tepaga qarab	To'q rangdan ochga qarab

olib boriladi				
Baqalajon yuzasini lokal rangi qanday?	*Safsar	Barikaram	Yashil	Binafsha
Kamoliddin Bexzod qanday rassom?	*Miniatyurachi rassom.	Dastgoxli rangtasvir ishlovchi rassom.	Xattot.	Ta'mirlovchi rassom.
«Sangina» quruq holda ishlatiladimi yoki suyuq holdami?	*Quruq holda	Suv aralashtirilib	Ham quruq ham suyuq	Bo'tqasimon holda
Akvarelda etyud bajarish qaysi tartibda olib boriladi?	*Ochlikdan to'qlikka qarab	To'qlikdan ochlikka qarab	Eng chiroyli rang birinchi beriladi	Soyalar rangi eng avval beriladi
Akvarelda ishlatiladigan ish qurollari	*Mo'yqalam, vatman qog'ozi, akvarel bo'yog'i	Stek, vatman qog'ozi	Moybo'yoq, eritgich akvarel bo'yog'i	Ko'mir, sangina akvarel bo'yog'i
Qizil rangni ramziy belgisi qaysi katorda to'g'ri berilagn?	*Taraqqiyot va zafarlar ramzi	Mehr-oqibat, sadokat ramzi	Orzu- xavas, ramzi	Halollik ramzi
Bo'yoqning aralashuvidan hosil bo'ladigan omuxta ranglar?	*Qo'shimcha ranglar	Xromatik ranglar	Axromatik ranglar,	Asosiy ranglar
Qizil, sariq va ko'k ranglar.	*Asosiy ranglar	Ko'shimcha ranglar	Xromatik ranglar	Axromatik ranglar,
«Amir Timur» muzeyidagi miniatyura uslubidagi devoriy suratlarni bajargan gurux kaysi?	* «Sanoi-nafis» guruxi.	«Saykal» guruxi	«Bog'i eram» guruxi	«Toshkent sayqali» guruxi.
Kompozitsiya nima?	*Mazmun asosida joylamoq, tuzmoq.	Yangi ijod namunasi yaratish.	Xayoliy ishlangan tasvir.	Har- bir buyumga yaxlit va uzbek qaramoq.
Mazok rangtasvirda	*Surtma, muykalamda kesib va uzib-uzib ishlanadi	Alla prima uslubiga uxshash uslubda ishlanadi	Fakat girizaylb uslubida ishlanadi	Lessirovka uslubiga monand ishlanadi
Marina janri bu...	*Dengiz xayotini tasvirlovchi janr	Xayvonlar xayotini tasvirlovchi janr	Tabiatni tasvirlovchi janr	Turmush xayotini tasvirlovchi janr
Maxobatli	*Katta xajmli	Qoralamalar	Ko'p muddatli	Dastgoxda

rangtasvir qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?	devor satxiga ishlanadigan maxobatli asar.	uchun ishlatiladigan usul	qoralamalar chizishda ishlatiladigan usul	ishlangan rangtasvir asari
«Lessirovka» deganda nimani tushunasiz?	*Quyuq bo'yoq qatlami ustidan rangni jilolash, boyitish uchun beriladigan, suyuq bo'yoq qatlami, silliqlab ishslash	Bo'yoqni suyuq va quyuq qilib ishlatish metodi	Suyuq bo'yoqning tasvir ustidan to'qlashtirish	Quyuq bo'yoqning tasvir ustidan surtish
Mashhur o'zbek grafikachi rassom	*Qutlug' Basharov	Raxim Ahmedov	Javlon Umarbekov	Ilhom Jabbarov
Akvarelъ bo'yog'i qaysi san'at turlarida ko'proq qo'llaniladi?	*Rangtasvir	Plakat	Kitob-jurnal grafikasi.	Miniatyurada
Rangtasvir ishlashda o'quv natyurmorti qanday tuziladi?	*SHakli, rangi, aniq buyumlardan tuziladi	To'q rangli buyumlardan tuziladi	Och rangli buyumlardan tuziladi	Eng yorqin buyumlardan tuziladi.
Naturadan manzara iishlashda ob'ekt qanday tanlanadi?	*Rassomning maqsadiga mos va qiziqarli joy tanlanadi	Ixtiyoriy joy tanlanadi	Biror qiziqarli detal tanlanadi	Keng dalali joy tanlanadi
Diptix nima?	*Ikki qismdan iborat rangtasvir asari	Besh qismdan iborat rangtasvir asari	Uch qismdan iborat rangtasvir asari	Ikki muallif tomonidan ishlangan bir asar
Muzey bu...	*Davriy eksponatlarni namoish etuvchi maxsus muassasa	Kadimiy va zamonaviy buyum, asori atiqalar saqlanadigan muassasa	Odamlar xordiq chiqaradigan maskan	Qadimiy buyumlarni saqlash uchun maxsus massasa
Mo'yqalam nima?	*Qilqalam rassomlar ishlatadigan yozuv va tasvir quroli.	Rassomlar ishlatadigan ish quroli.	Moybo'yoqda ishlatiladigan tasvir quroli.	Akvarelda ishlatiladigan tasvir quroli
«Grizaylъ» nima?	*Bir hil bo'yoq bilan rangtasvir ishslash texnikasi;	Qora bo'yoq bilan chizmatasvir ishslash;	Qora bo'yoqdagi rangtasvir	Moybo'yoq texnikasi
«Grizaylъ» texnikasida qanday sathga ishlagan ma'qul?	*Faqat och asosga ma'qul.	Och-to'q, to'qroq hamda to'q tuslangan asosga ma'qul	To'qroq tuslangan sath-asosga ma'qul	Faqat ola-chipor sathga ma'qul

«Grizaylb» qalamtasvir soxasiga kiradimi yoki rangtasvirgami?	*Rangtasvirga.	Ikkala sohaga taluqli;	Qalamtasvirga ;	Xaykaltaroshlikka
Tasviriy san'atda simmetriya nima?	*Buyum shaklini mutanosibligi	Buyumlarni bo'yni va enining tengligi	Buyumlarning bir-biriga o'xshashligi	Buyum shaklining nomunosibligi
Pastel nima?	*Rangli qalamcha bo'r.	Akvarelning bir turi	Guashning bir turi	Moybo'yoqning bir turi.
Perspektiva turlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?	*CHizikli perspektiva, rang va xavo perspektivasi;	Inter'ber, ekster'ber;	Fazoviy perspektiva, inter'ber;	Gorizont, masofa, ufk chizigi;
Proportsiya nima?	*Lotincha «Uzaro mutanosiblik» degan ma'noni bildiradi.	«Komponier» frantsuzcha joylamok, tuzmok, yaratmok	Ranglarni bir satxga tekiz joylashtirishni bildiradi.	Kiskarishlarni xisobga olib chizilgan tasvir.
Maxobatl rangtasvir turlari qaysi javobda to'g'ri belgilangan?	*devoriy surat, freska, mozayka	Devor va bino shiftini naqsh bilan bezatish	Vitraj, mozayka	Rel'ef, keramika, qoralama
Rangtasvirga monand bo'lgan iboralar qatorini belgilang?	*Politra, triptix, fon, kompozitsiya, kolorit.	Xoshiya, sopol, simmetriya, ritm, chinni	SHrift, vitraj, applikatsiya, ilyustratsiya.	Glazur, rel'ef, karkas, natura, byust
Rasm chizishni o'rganishning alifbosi	*O'ziga qarab rasm chizish.	Nusxa ko'chirish.	Mavzu asosida rasm chizish.	Hayoliy rasmlar chizish.
Akvarel bo'yog'i qurigach, ochlashadimi yoki to'qlashadimi?	*O'zgarmaydi	Ochlashadi	To'qlashadi	Qorayadi
Diarama nima?	*Yarim aylana shaklida ishlangan rangtasvir asari	Bir mavzudagi ikkita alovida ishlangan asar	Tasvirda keng manzara ko'rinishi	Haykallardan foydalanib ishlangan rangtasvir asari
Sariq rang to'q havo rangning oldida qanday ko'rinadi?	*Ravshanroq	Tuqroq	Xiraroq.	Ochroq
Yaxlit idrok etish nima?	*Natura yoki tasvirni yaxlitlikda ko'rish	Materiallarni aniq ishlamaslik	Naturadagi asosiy buyumni bo'rttirish	Naturani bir xil rangda ishslash
Suvda erimaydigan bo'yoqni belgilang?	*Moybuyoq	Guash	Tempera.	Akvarel.
“Amir Temur”	*M. Nabiev	O'. Tansiqboev	R.CHoriev	R.Axmedov

portretini yaratgan musavvir kim?				
Tasviriy san'atda nom qoldirgan mashxur san'at xomiysi nomini aniqlang?	*T. M. Tretyakov	V. T. Perov.	V. Stasov.	B.Latinin
«Jigarrang»uslubid a ishlash «Toshkent»maktabi asoschisi kim?	*T.To'xtaxo'jaev .	X.Mirzaxmedov.	A.Karimov.	A.Ilxomov.
Avtoportret nima?	*Rassomning o'z-o'zini ishlagan tasvir	Bir rassomni ikkainchi rassom tomondan ishlagan tasviri	Dengiz tasviri ishlangan rasmlar	Manzara tasviri ishlangan rasm
Badiiy uslub nima?	*San'atda qo'llaniladigan uslub	Karton, xolst yuzsiga ishlangan rasm	Narsa va joylarni foto suratini olish	Rang turi
O'chirg'ichning eng yaxshisi qanday materialdan tayyorlanadi?	*Rezinka	Kauchuk	Sun'iy rezina	Plastmassa
Mo'yqalamni qanday o'rab saqlanadi?	*Qog'ozga (gazeta)	Matoga	Yumshoq lattaga	Kartonga
A.Navoiy teatri binosidagi maxobatlari devoriy suratlar muallifi kim?	*CHingiz Ahmarov	Bahodir Majidov	Niyozali Holmatov	SHomahmud Muxammadjanov
Tus qanday ma'noni anglatadi?	*Narsaning rang xamda tusini och-to'qlik darajasini bildiruvchi tushuncha	Narsaning soyasi	Buyumning materialiligi	Buyumdag'i barcha soyalar
O'zbek rassomlaridan kimning avtoportreti Uffitsi galereyasiga tuhfa etildi.	*Abdulhaq Abdullaevning	Bahodir Jalolovning.	Ro'zi CHorievning	Samiq Abdullaevning
O'zbekistonda birinchi tasviriy san'at bo'yicha ranglar haqidagi darslik muallifini belgilang?	*I.Ilkromov	R. Hasanov	S. Afshar	A.Umarov.
O'zbekistonda tasviriy san'at	*Aprel oyida	May oyida	Mart oyida	Iyun oyida

xaftaligi yilning qaysi oylarida o'tkaziladi				
O'quv qalam tasvir nima?	*CHizishni o'rganish maqsadida, uzoq vaqt mobaynida qonun qoidaga asoslanib ishlanadigan qalam tasvir	Qisqa muddatda bajariladigan ishlar namunasi	Rangni o'rganish maqsadida, uzoq vaqt mobaynida ishlanadigan tasvir	CHizmachilik buyumlari asosida ishlanadigan tasvir
Fazoviy perspektiva nima?	*Narsaning bir- biriga nisbatan tiniq yoki xira bo'lib ko'rinishi	Barcha buyumlarning qisqarishi	Ranglarning qisqarishi	Xavo perspektivasi
Suvbo'yoq texnikasida tasvir ishlashda qanday ashyolar, ish qurollari zarur?	*Qog'oz, akvarel, mo'yqalam, suv	Akvarel karton, o'chirg'ich	Mo'yqalam, suv, skipidar, akvarel bo'yoq	Muyqalam, kerosin, benzin
Qanday o'chirg'ichlar qalamtasvir uchun qo'llaniladi?	*Iz qoldirmaydigan o'chirg'ich	Ko'kimtir bo'lgani	Qizil rangda bo'lgani	Oq-ko'k (yarmi) o'ta uvalanuvchan
O'chirg'ichlar qanday shaklda bo'lishi ma'qul?	*Uchburchak	To'rtburchak	Doira qilib	Beshburchak
Xomaki tasvir.(Nabrosk) nima?	*Qisqa muddatda ishlangan tasvir	40-50 minut ichida ishlanadigan tasvir	15-20 minut ichida ishlanadigan tasvir	Uzoq muddatda ishlanadigan tasvir
Tasvirdagi bo'lak, qism, ujur, narsaning ma'lum bir chegaradagi joyi?	*Detalb	Siluet	Gamma	Soya
Tasvirni uzoq muddatga turishi uchun qaysi anjomdan foydalananish mumkin?	*Moybo'yoq	Plastel	Akvarel	Qalam
Tushuvchi soya deb nimaga aytildi?	*O'zidan tushgan soyaga	Tashqaridan tushgan soyaga	Suniy yurtgich bilan yoritilganda tushgan soyaga	Yarim soyaga

Ulug' mutafakkir Mir Alisher Navoiy portreti siyosini kim yaratgan?	*Abduhaq Abdullaev	Ortig'ali Qozoqov	Alisher Mirzaev	R. Axmedov
Uch o'lchamli qilib, fazoviy ko'rinishda aks ettirish ...	*Hajmdor	Akademik rasm	Konstruktiv	To'g'ri javob yo'q
O'rta Osiyo miniatyura san'atiga kim asos solgan?	*Kamoliddin Bekzod	Mikelanjelo	LeonardodoVi nchi	Tansiqboev
Mo'yqalamni qanday, qaysi tarafga qarab xarakatlantirish kerak?	*Xoxlagan tarafga, erkin	Yuqoridan pastga, chapdan o'ngga	Pastdan yuqoriga, o'ngdan chapga	O'rtadan, pastga
SHtrix nima?	*CHiziq ,chizgi	Bo'yash	Konturlash	Xomaki rasmni bo'yash
Etyud nima?	*Ranglar bilan naturaning eng xarakterli xususiyatlarini qisqa muddatda tasvirlash.	Tez ishlangan tasvir.	Asar yaratishdan avval tayyorgarlik sifatida ishlangan tasvir.	Ma'lum maqsadni ko'zlab naturani o'rganish maqsadida chizilgan tasvir.
Etyudnik kanday moslama?	*Rassomlar uchun bo'yoq, qalam, palitra va qog'oz-larigacha saqlanadigan quti	Me'morlar uchun foydalaniladigan moslama.	Xaykaltaroshli kda foydalaniladigan moslama.	Zargarlikda foydalaniladigan moslama.
Yashil rang kaysi buyoklarning aralashuvidan hosil bo'ladi?	*Ko'k va sariq	Qizil va zarg'aldok	Qizil va ko'k	Zangori qizil
Dekoratsiya nima?	*Sahnani mazmunga mos bezash.	Qo'g'irchoqlarni kiyimining eskizi.	Kinofilmlarga ishlangan eskiz.	Tabiiy narsalarni stilizatsiya kilish.
Lokal rang deb ...	*Yuzaning asosiy rangi.	Narsa sirtidagi yaltirok joylar	Narsaning ishlov berilgan yuzasi.	Narsaning kuchli yoritilgandagi rangi.
Moybo'yoqda qanday uslubdan foydalaniladi?	*To'q ranglardan och ranglarga qarab ishlash uslubi	Och rangdan to'q rangga qarab	Issiq rangdan soquq rangga qarab	Akvarel texnologiyasidan foydlanib ishlanadi
Hosila ranglar qaysi qatorda to'g'ri berilgan?	*Zarg'aldoq, yashil, binafsha	Sariq, jigarrang, havorang	Qizil, sariq, zangori	Oq, qirmizi, qora
Akvarel	*Rangtasvirda	Qalamtasvirda	Amaliy	Haykaltaroshlikda

bo'yoqlardan asosan qaysi san'at turida qo'llaniladi ?			san'atda	
Natyurmort janrida ijod qiluvchi rassomlar qaysi qatorda ?	*G.Abduraxmanov, L.SHarden, A.Ikromjonov	N.Ten, L.Abdullaev, A.Savrasov	I. Perov, J.Umarbekov, M.Nabiev	A.Mo'minov, Kupriyanov, A.Volkov
Sovuq ranglar qaysi qatorda ?	*Yashil, havorang, zangori	Qora, jigarrang, kulrang	Qizil, sariq, oq	Yashil, qizil, zarg'aldoq
Niloba rangi qanday rang ?	*Havorang	Qizil	Zarg'aldoq	Zangori
Etalon sifatida qabul qilingan “Sohibqiron Amir Temur” portreti muallifi kim?	*Malik Nabiev	A.Abdullaev	CH.Axmaroov	R.CHoriev
Palitra nima uchun kerak ?	*Rangtasvir ishlash uchun	Kimyo asboblari uchun	CHizmachilik asboblariga	Haykal ishslash uchun
Axromatik ranglar qaysi qatorda ?	*Oq, qora, kulrang	Jigarrang, sabza, havorang	Barikaram, zarg'aldoq, binafsha	Qizil, havorang, sariq
Natyurmort qo'yilmasining ta'rifi qaysi qatorda to'g'ri ifodalangan?	*Narsaning o'ziga qarab tasvirlash	To'g'ri to'rtburchak ichida naqsh ishslash	Xayolan	Mavzu asosida rasm ishslash
Tarixiy janr ustasi qaysi qatorda ?	*M.Nabiev	L.Abdullaev	A.Abdullaev	A.Mirzaev
Z. Inog'omovning “CHoyga” asarida qaysi obrazdan foydalangan?	*Ayol obrazidan	Erkak va yosh bola obrazidan	Keksa ayol obrazidan	Bola yetaklagan mo'ysafid obrazidan
Miniatyura rangtasvirda ranglar qay yo'sinda qo'llaniladi?	* Ranglar toza holda, bir xil sidirg'a rang beriladi, yorug'-soya ko'rsatilmaydi	Fakat qo'shimcha xosil qilingan ranglar ishlatiladi	Faqat sovuq ranglardan foydalilaniladi	Kulrang tasvir holatda ishlatiladi
Yaponiya amaliy san'atida qanday tasvirlar ko'proq uchraydi?	*Tabiat manzaralari	Ieroglyph	Antropomorf	Natyurmortlar
Xona ichidagi natyurmortda qanday jixatlar seziladi?	*Buyumning shakli va uning lokal rangi aniq ko'rinxaydi, yorug'-soyalar uyg'un holda	Buyumlarni shakli aniq ko'rinxaydi	Qo'shimcha yoritgich qo'yish talab qilinadi	Yorug' - soya keskin farq qiladi

	bo'ladi			
E. Degani “Moviy raqqosalar” asari qanday tasvirlash vositasida ishlangan?	*Pastelъ	Akvarelъ	Guashъ	Moybo'yoq
Misr san'atiga xos xususiyatlar?	*Diniy	Bezakdor	Dunyoviy	Funktional
“Maratning o'limi” asar kim tiomondan yaratilgan?	*David	Lotur	Xalъs	Engr
“Uch faylasuf” asarining muallifi kim?	*Botichelli	Rafaelo	Rembrpnt	Pikasso
Rangtasvir asarlari qanday yuzalarga ishlanidi?	*Maxsus grunt qoplangan matoga	Devor yuzasiga	Qog'ozga	Yog'och materiallariga
Portret – kartina asarlar kaysi javobda tugri kursatilgan?	* . A. Abdullaev «Nazarali Niyoзов portreti», P. Benkov «Dutorchi iz»portreti, R. Axmedov «Ona uylari».	K. Bexzod «SHayboniyxon portreti», «Amir Xusayn portreti».	Leonardo da Vinci «Monna Liza», Titsian, «Avliyo Sebastyan»	I. Ye. Repin «Ruxoniy», R. Ryajskiy «Rais», Yaroshenko «Ut yokuvchi»
«Portret» so'zi qanday ma'noda ishlatiladi?	* «Qanday bo'lsa ushanday tasvirlash».	«Bir yoki bir necha odamni tasvirlash»	«Aniq bir insonni tasvirlash»	. «Insonning tashqi qiyofasini o'xshatib tasvirlash»
Rembrandt portretlari kaysi javobda kursatilgan?	* «Qariya kampir», «Avtoportret», «Danaya».	«Monna Liza», «Avtoportret», «Leda»	«Avtoportret», «Izabella Brandt», «Monax»	«Ota portreti», «Avtoportret»
Ogyust Renuar portretlari kaysi javobda kursatilgan?	* «Janna Samara portreti», «Yalangoch ayol», «Kora kiyimli kiz»	«Berta Moriza», «Fleytist», «Olchali bola»	«Avtoportret», «Izabella Brandt», «Monax»	«Arlezianka», «Doktor Rey», «Avtoportret»
O'zbekiston manzarachi rassomlari qaysi javobda ko'rsatilgan?	* . R. Timurov, I. Xaydarov, A. Mirsoatov, O'. Tansiqboev, N. Koraxon	O'. Tansiqboev, N. Koraxon, A. Mirsoatov, M. Nabiev, P. Ben'kov	O'. Tansiqboev, N. Qo'ziboev, A. Muminov, X. Usmanov, A. Abdullaev, Z. Inagomov	O'. Tansiqboev, Yu. Tal'dukin, R. Timurov, N. Vol'kov, N. Qo'ziboev
«Veneraning tug'ilishi» asarining muallifi kim?	* . Bottichelli.	Girlandayo	Velaskes	Rubens

«Fayum portretlari» ga taalluqli ma'lumotlar qaysi javobda berilgan?	* . Misrda eramizdan avvalgi IV asrlarda ishlangan.	Taxta materiali yuzasiga parket usulida birlashtirib, ishlangan.	Dalvarzintepa dan topilgan boshiga toj kiygan Kushon shaxzodasi tasviri.	Portretlar freska usulida ishlangan.
Portret san'atining eng gullagan davri qachon va qay tariqa bo'lган?	* . Antik san'at davrida (xudolar tasviri va garmonik guzallikni ulug'lash sifatida.	Uyg'onish davri san'atida (inson shaxsining ulug'lanishi tariqasida.	Ko'chmanchi rassomlar ijodida (oddiy halq vakillarini realistik usulda ifodalashda.	Uyg'onish davri san'atida (avtoportretlar ishlanishi tariqasida.
Xals asarlari qaysi javobda berilgan?	* . «Malle Babbe», «Skripka chalayotgan baliqchi», «Mandalina chaluvchi o'smir»	«Uch filosof», «Yudifъ», «Uyqudagи Venerа»	«Meva ushlagan qiz», «SHox rafiqasi», «Mevalarni yig'ish»	«Arledagi qizil uzumzorlar», «Arle ayollari», «Maxbuslarni sayr qildirish»
Pol's Gogen asarlari qaysi javobda berilgan?	* «Arledagi qizil uzumzorlar», «Arle ayollari», «Maxbuslarni sayr qildirish» .	«Moviy raqqosalar», «Absent», «Orkestrdagi musiqachilar»	«Meva ushlagan qiz», «SHox rafiqasi», «Mevalarni yig'ish»	«Janna Samara portreti», «Yalang'och ayol», «Qora kiyimli qiz»